



"ANOR BANK" AJda
yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga
kompleks bank xizmati ko'rsatish bo'yicha
UNIVERSAL SHARTNOMA

(2021-yil "1" dekabrdan kuchga kiradi)

MAZMUNI

1. UMUMIY QOIDALAR.....	3
2. ATAMALAR VA TA'RIFLAR	3
3. SHARTNOMA PREDMETI.....	7
4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI	11
5. MASOFAVIY XIZMAT KO'RSATISH TARTIBI.....	16
6. UNIVERSAL SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI.....	18
7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.....	20
8. NIZOLARNI HAL QILISH.....	20
9. MAXFIYLIK.....	21
10. YAKUNIY QOIDALAR	22
11. BANK MANZILI VA REKVIZITLARI	22

UNIVERSAL SHARTNOMAGA ILOVA

I. 1-ilova - Universal shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi ariza va hisobvaraqlar)ni ochish	23
II. 2-ilova - Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish, shuningdek Korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishning umumiyl shartlari	24
III. 3-ilova - Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar xodimlariga pul mablag'lari o'tkazmalarining umumiyl shartlari	38
IV. 4-ilova - Bank omonatlarini ochish, saqlash va yopishning umumiyl shartlari.....	43
V. 5-ilova - e-POS terminali orqali xizmat ko'rsatish va milliy valyutadagi to'lovlarni qabul qilishning umumiyl shartlari (Internet-ekvayring)	48
VI. 6-ilova - POS terminali orqali xizmat ko'rsatish va milliy valyutadagi to'lovlarni qabul qilishning umumiyl shartlari	53
VII. 7-ilova -Naqd pul mablag'larini qabul qilish bo'yicha xizmatlarni taqdim etishning umumiyl shartlari (samones)	60
VIII. 8-ilova -Jamg'arma hisobvarag'idagi pul qoldig'iga foizlarni hisoblashning umumiyl shartlari	
63	
IX. 9-ilova - To'lov API yordamida e-POS orqali to'lov usulini taqdim etishning umumiyl shartlari	68
X. 10-ilova - Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarni kreditlashning umumiyl shartlari	86

1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. "ANOR BANK" AJda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga majmuaviy bank xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida Universal shartnama (keyingi o'rnlarda "Universal shartnama") O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, mazkur Universal shartnama va unga bo'lgan Ilovalarga muvofiq "ANOR BANK" AJda (keyingi o'rnlarda "Bank") yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga masofaviy majmuaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tartibini belgilab beradi.
- 1.2. Universal shartnomaga qo'shilish quyidagi yo'l bilan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360, 367, 369 va 370-moddalariga muvofiq amalga oshiriladi: Mijoz tomonidan Universal shartnomaga qo'shilish va hisobvaraqlarini ochish (mazkur Universal shartnomaga 1-Ilova) to'g'risida Arizani imzolash va amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan ko'zda tutilgan hujjatlarni, jumladan, Bank va amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq Mijozning identifikatsiyasini o'tkazish uchun, Hisob raqamini ochish va Universal shartnomada doirasida Bank tomonidan ko'rsatiladigan barcha bank xizmatlariga kirish huquqini taqdim etish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni ilova qilish.
- 1.3. Bank Mijoz tomonidan Bankka taqdim etilgan ma'lumot asosida Mijozga xizmatlarni taqdim etish to'g'risida qaror qabul qiladi, agar qonunchilik tomonidan boshqa tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa. Bunda Bank Mijozdan qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olishga haqli.
- 1.4. Tuzib bo'lingan Universal shartnomada doirasida alohida Shartnomalarni tuzish uchun Mijoz Bankga, jumladan, Autentifikatsion ma'lumotlarni qo'llash bilan Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari, kirish Kodlari va/yoki mazkur Universal shartnomada belgilab berilgan tartibda ERI orqali imzolangan rasmiylashtirilgan Buyurtmanomani taqdim qiladi.
- 1.5. Mijoz tomonidan Autentifikatsion ma'lumotlarni, Buyurtmanomani rasmiylashtirishda kirish Kodlarini kiritish (Bankka xabar qilish) va/yoki Bankga ERI bilan imzolangan Buyurtmanomani taqdim etish, Bank tomonidan Buyurtmanoma akseptlanganda, Buyurtmanomada va muvofiq Umumiyoq qoidalarda tavsiflangan shartlarda Bank va Mijoz o'rtaida Shartnomada tuzilganligini bildiradi.
- 1.6. www.anorbank.uz rasmiy saytda Mijozlar Universal shartnomaning amaldagi tahriri va Bank Tariflari bilan tanishishlari mumkin

2. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Abonent qurilmasi- Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali Bank bilan axborot va moliyaviy hamkorlik qilish uchun foydalilaniladigan shaxsiy kompyuter, smartfon, telefon apparati yoki boshqa qurilma.

Abonent raqami-telefon tarmog'i abonentiga berilgan raqamlar ketma-ketligi (telefon raqami).

API - (Application Programming Interface) - ichki va tashqi tizimlar o'rtafigi o'zaro ta'sir va integratsiya uchun usullar, protokollar, vositalar, dasturiy modullar (shu jumladan kod bazasi) to'plami.

Autentifikatsiya ma'lumotlari- kirish Kodlari, Mijozning noyob logini (login), paroli (parol), shuningdek kirish va operatsiyalarni amalga oshirish uchun, shu jumladan Internet-bank, Mobil Bank va/yoki Internet tarmog'idagi boshqa xizmat ko'rsatish kanallari va uyali aloqa kanallari orqali Kartadan foydalanib amalga oshirish uchun ishlataladigan boshqa ma'lumotlar. Autentifikatsiya ma'lumotlari mijoz vakolatli shaxslarining qo'lda qo'yilgan imzosining analogi hisoblanadi.

Bank - «ANOR BANK» Aksiyadorlik jamiyati, 100170, Toshkent sh., Sayram 5-tor ko‘ch., 4-uy, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 22.08.2020y.dagi 87-son litsenziysi.

Bankomat - Shartnoma bo‘yicha naqd pullarni avtomatlashtirilgan (Bank yoki Hamkorning vakolatlangan shaxsini ishtirokisiz) yechib olinishi va to‘ldirilishi uchun, jumladan Kartani qo‘llash orqali yoki Mobil Bankdan foydalangan holda shakllantirilgan noyob QR-kodni qo‘llash orqali, hamda Bankda texnik imkoniyatlar mavjudligida Shartnoma bo‘yicha boshqa amaliyotlarni bajarishga mo‘ljallangan dasturiy-texnik majmua.

Mijozning benefitsiar egasi - mulk va boshqaruv tuzilmasining xususiyatlariga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan ta’sis hujjatlari (ustav va (yoki) ta’sis shartnomasi, Nizom) asosida mijozni nazorat qiluvchi shaxs;

Omonat - Omonat shartnomasiga muvofiq Bank va Mijoz o’rtasida kelishilgan muddatda Mijoz tomonidan foizlar yoki ustamalar bilan yoki ularsiz qaytarish shartlari asosida Bankda joylashtiriladigan milliy yoki xorijiy valyutadagi pul mablag’lari miqdori.

Masofaviy xizmat ko‘rsatish- operatsiyalarni amalga oshirish uchun topshiriqlarni shakllantirish va ijro etish va/yoki Autentifikatsiya ma'lumotlaridan foydalangan holda Mijozning arizalarini ko'rib chiqish va/yoki Mijoz va Bank o’rtasida tuzilgan shartnomalar, telefon orqali Bankning aloqa markazi va/yoki Bankning Internetdagi sayti va/yoki Internet-Bank va/yoki Mobil Bank va/yoki Internetdagi boshqa xizmat ko‘rsatish kanallari (shu jumladan elektron pochta) va/yoki uyali aloqa kanallari, shu jumladan SMS-xabarlar.

Universal shartnoma - "ANOR BANK" AJda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga Bank va Mijoz o’rtasida tuzilgan, ajralmas tarkibiy qismlar sifatida umumiyligi shartlar, tariflar va Universal shartnomaga qo’shilish to‘g’risidagi arizani o‘z ichiga olgan kompleks bank xizmati shartnomasi.

Shartnoma - agar boshqacha ko‘rsatilmagan bo’lsa, unda quyidagi shartnoma turlaridan biri:

✓ **Hisob-kitob xizmati shartnomasi**- ajralmas tarkibiy qismlar sifatida Buyurtmanomalar, Tariflar va va yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatishning Umumiyligi shartlarini, shuningdek Korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatishni o‘z ichiga olgan Bank va Mijoz o’rtasida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatishning umumiyligi shartlarida nazarda tutilgan Hisob-kitob hisobvarag’ini va/yoki (agar qo‘llaniladigan bo’lsa) alohida bank hisobvarag’ini ochish, yuritish va yopish, shuningdek Korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma.

✓ **Omonat shartnomasi** - Bank va Mijoz o’rtasida bank omonatlarini ochish, ularga xizmat ko‘rsatish va yopish to‘g’risida tuzilgan shartnoma, shu jumladan tegishli Buyurtmanoma, Tariflar va bank omonatlarini ochish, ularga xizmat ko‘rsatish va yopishning Umumiyligi shartlari.

✓ **Ish haqi loyihasi shartnomasi** - ajralmas tarkibiy qismlar sifatida Buyurtmanoma, Tariflar va Mijozning xodimlariga pul mablag’larini o‘tkazishning Umumiyligi shartlarini o‘z ichiga olgan, Bank va Mijoz o’rtasida Xodimlarning Karta hisobvarag’iga pul mablag’larini o‘tkazish to‘g’risida tuzilgan shartnoma.

✓ **Kredit shartnomasi** - Bank va Mijoz o’rtasida tuzilgan kredit berish to‘g’risidagi shartnoma, u ajralmas tarkibiy qism sifatida o‘z ichiga tegishli Buyurtmanomalar, Tariflar va yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarni kreditlashning Umumiyligi shartlarini kiritadi.

✓ **Elektron to’lovlar bo‘yicha axborotlarni qabul qilish va qayta ishlash bo‘yicha shartnoma (POS yoki e-POS terminali orqali)** - tegishli Buyurtmanomalar, Tariflar hamda POS

terminali orqali xizmat ko'rsatish va milliy valyutadagi to'lovlarni qabul qilishning Umumiy shartlarini yoki e-POS terminali orqali xizmat ko'rsatish va milliy valyutadagi to'lovlarni qabul qilishning (internet-ekvayring) Umumiy shartlarini o'z ichiga olgan, Bank va Mijoz o'rtaida (POS yoki e-POS terminalini) taqdim etish to'g'risida tuzilgan shartnoma.

✓ **Foizlarni hisoblash shartnomasi** - Bank va Mijoz o'rtaida hisob-kitob va jamg'arma hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari qoldig'iga foizlarni hisoblash to'g'risida tuzilgan shartnoma.

✓ **NDA shartnomasi** - (oshkor qilmaslik to'g'risidagi bitim) – ikki tomon o'rtaida materiallar, bilimlar yoki boshqa ma'lumotlarni o'zaro almashish maqsadida uchinchi shaxslarga kirish cheklangan holda tuzilgan shartnoma. Ushbu turdag'i bitimlar har qanday maxfiy ma'lumotlarning tarqalishini oldini olishga xizmat qiladi: tijorat ma'lumotlaridan shaxsiy ma'lumotlarga.

Qarzdorlik - Shartnoma bo'yicha Mijoz tomonidan Bankka to'lanishi kerak bo'lgan barcha pul summalar, shu jumladan Kredit summasi, Kreditdan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlar, komissiyalar, to'lovlar, shu jumladan qo'shimcha xizmatlar uchun to'lovlar, shuningdek amaldagi Tariflarga muvofiq jarimalar.

Buyurtmanoma- Mijozning Bank bilan Shartnoma tuzish niyatini o'z ichiga olgan va tegishli Shartnomaning barcha muhim shartlarini o'z ichiga olgan Bankka yuborilgan Mijozning taklifi (oferta, bayonot).

Universal shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi ariza - Mijozning Bank bilan kompleks bank xizmatini ko'rsatish uchun Universal shartnomani tuzish niyatini, shuningdek tegishli Umumiy shartlar doirasida alohida Shartnoma (Shartnomalar) tuzish uchun Buyurtmanoma hamda Bank va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq Mijozni identifikatsiyalash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan Mijozning Bankka yuborilgan yozma taklifi (oferta).

Identifikatsiya - mijozni tegishli tarzda tekshirish maqsadida mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ular taqdim etgan hujjatlari, ochiq manbalarda va ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan qo'shimcha tasdiqlangan ma'lumotlar asosida aniqlash.

Internet-Bank - Bank va Mijozning o'zaro aloqasini, shu jumladan Internet orqali ma'lumot almashish va operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradigan Bank xizmati.

Mijoz- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari muvofiq tashkil etilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan, Bank bilan belgilangan tartibda tegishli Umumiy shartlarga muvofiq Universal shartnoma va hisob-kitob xizmatini ko'rsatish Shartnomasini tuzgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

Kirish kodlari - Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali Bankka murojaat qilganda Mijozni aniqlashga imkon beradigan PIN-kod, raqamli va/yoki harf va/yoki grafik kodlar. Kirish kodlari Mijoz vakolatli shaxslarining qo'lda qo'yilgan imzosining analogi hisoblanadi.

Komission mukofot (Komissiya) - xizmatlar uchun Bank tomonidan Hisob-kitob hisobvarag'idan hisobdan chiqariladigan to'lov yoki Hisob-kitob hisobvarag'ida mablag' etishmasa, Bankning Mijozga bo'lgan talabi sifatida taqdim etiladi. Hisob-kitob xizmati Shartnomasida nazarda tutilgan komissiyalar Hisob-kitob hisobvaraqdan mablag'larni yechib olish bo'yicha birinchi operatsiya amalga oshirilgan sanadan boshlab undiriladi.

Komprometatsiya - Autentifikatsiya ma'lumotlari yoki ERIning yo'qotilishi, Autentifikatsiya ma'lumotlari yoki ERIning yo'qolishiga yoki Autentifikatsiya ma'lumotlariga yoki ERIga uchinchi shaxslar kirganligiga shubha paydo bo'lishi.

Korporativ karta (Karta) - hisob-kitob xizmati ko'rsatish Sharternomasi doirasida chiqarilgan bank kartasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalarda, Sharternomada, To'lov tizimlari qoidalarida va/yoki Bankning ichki hujjalarda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, uning egasiga Hisob-kitob hisobvarag'idagi mablag' yetishmagan yoki yo'q bo'lgan taqdirda Bank tomonidan taqdim etilgan Hisob-kitob hisobvaraqdagi qoldiq va/yoki kredit doirasida pul mablag'larini tasarruf etish imkonini beradi.

Mobil bank - mobil qurilmaning maxsus dasturlari (smartfon, planshet, noutbuk va boshqalar) orqali Bank va Mijoz o'zaro aloqa qilishiga, shu jumladan ma'lumot almashish va individual operatsiyalarni amalga oshirishiga imkon beradigan Bank xizmati.

Umumi shartlar - Universal sharternomaga ilova bo'lgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatishning Umumi shartlari, shuningdek korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish tartibi, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar xodimlariga pul o'tkazmalarining Umumi shartlari, bank omonatharini ochish, ularga xizmat ko'rsatish va yopishning Umumi shartlari, Pos va e-Pos terminali orqali xizmat ko'rsatish va milliy valyutadagi to'lovlarni qabul qilishning Umumi shartlari (Internet-ekvayring), naqd pul qabul qilish bo'yicha xizmatlarni taqdim etishning Umumi shartlari, naqd pul qoldig'iga foizlarni hisoblashning Umumi shartlari.

Operatsion kun (operatsion vaqt) - Bank tomonidan belgilangan ish kunining bir qismi, uning davomida Bank Mijoziarning Topshiriqnomalarini qabul qiladi va bajaradi. Operatsion vaqt to'g'risidagi ma'lumotlar Bankning Internet tarmog'idagi saytida joylashtiriladi.

Mijozning tegishli tekshiruvi - mijozning va u nomlaridan ish yuritayotgan shaxslarning shaxsi va vakolatlarini tekshirish, mijozning benefitsiar egasini aniqlash, shuningdek mijoz tomonidan amalga oshiriladigan ishbilarmonlik munosabatlari va operatsiyalarini doimiy ravishda o'rganish, ularning bunday mijoz va uning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish. Mijoz tomonidan taqdim etiladigan hujjalarni Bankka taqdim etilgan sanada amal qilishi kerak;

PIN-kod - Bank tomonidan har bir kartaga tayinlangan yoki Mijoz tomonidan mustaqil ravishda Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali tayinlanadigan va bankomatlarda, terminallarda va hokazolarda kartadan foydalangan holda operatsiyalarini amalga oshirishda Mijozni aniqlash uchun xizmat qiladigan raqamli shaxsiy identifikatsiya raqami. PIN-kodni tayinlash usuli Bank va/yoki To'lov tizimi tomonidan belgilanadi.

To'lov tizimi (TT) - o'z ishtirokchilari uchun yagona standartlarni, o'zaro ta'sir qoidalarini belgilaydigan va hisob-kitob ishtirokchilari o'rtaida pul oqimlarining harakatini ta'minlaydigan moliya institutlari to'plami. Ya'ni, yagona umumrespublika protsessing markazi (YaUPM) va/yoki Milliy banklararo protsessing markazi (Humo) va/yoki Visa International va/yoki boshqa to'lov tizimlari.

Topshiriqnomalar - hisob-kitob xizmati sharternomasi bo'yicha operatsiyani bajarish uchun Mijozining buyrug'i.

Hisob-kitob hisobvarag'i (Hisobvaraq) - Mijozining bank (hisob-kitob) hisobvarag'i, operatsiyalar ro'yxati, ular bilan hisob-kitob qilish tartibi va shakllari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjalari, bankning ichki hujjalari va hisob-kitob xizmati ko'rsatish Sharternomasi bilan belgilanadi.

Tizim- Bankning ixtisoslashtirilgan apparat va dasturiy ta'minoti, ya'ni Internet tarmog'idan foydalangan holda pul o'tkazmalarini amalga oshirishda Bank, To'lovchi, Mijoz, Merchant, Emitent va boshqa hisob-kitob ishtirokchilari o'rtaida axborot va texnologik o'zaro ta'sirni ta'minlaydigan Bank mijozlari uchun Masofaviy ko'rsatiladigan bank xizmatining barcha

kanallari. (ABS, mobil ilova, veb-platforma va boshqalar).

Xabar - Shartnoma doirasida Mijoz tomonidan bankka taqdim etilgan identifikator bo'yicha xabarlar servisidan, Bankning mobil ilovalari yoki Abonent qurilmasining boshqa imkoniyatlaridan, shu jumladan Push-bildirishnomalardan foydalangan holda uzatiladigan ma'lumotlar.

Omonat hisobvarag'i - Mijoz tomonidan omonat Shartnomasi shartlariga muvofiq joylashtirilgan milliy yoki xorijiy valyutadagi pul mablag'lari hisobga olinadigan hisobvaraq.

Tarif rejasi - Bankning vakolatlari organi tomonidan tasdiqlanadigan, tegishli Shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan foizlar, komissiyalar, to'lovlar va jarimalarni qo'llash, hisoblash, undirish va hisoblash hajmi va qoidalari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjat.

Tariflar - Universal shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan Tarif rejali to'plami.

Boylıklar - saqlash uchun yoki ta'minot/garov sifatida bank kassasiga topshirilgan va o'z qiymatiga ega bo'lgan barcha boyliklar (pul mablag'lari, qimmatbaho metallar va toshlardan yasalgan buyumlar, saqlash uchun topshirilgan qimmatli qog'ozlar, mulk va mulkchilik huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar, qat'iy hisobot blankalari).

Elektron raqamli imzo (ERI) - elektron shaklda (imzolangan ma'lumot) boshqa ma'lumotlarga biriktirilgan yoki boshqa yo'l bilan bunday ma'lumotlar bilan bog'langan, ma'lumotni (hujjatni) imzolagan shaxsni aniqlash uchun foydalaniladigan elektron shakldagi ma'lumotlar.

3. SHARTNOMA PREDMETI

- 3.1. Ushbu Universal shartnoma doirasida Bank Mijozga Umumiyligi shartlarga muvofiq alohida shartnomalar tuzish imkoniyatini beradi.
- 3.2. Agar ushbu Universal shartnomaning biron bir qoidasi tegishli Umumiyligi shartlarda belgilangan qoidalarga zid bo'lsa, unda Umumiyligi shartlarda belgilangan qoidalari qo'llaniladi.
- 3.3. Mijoz Universal shartnoma shartlariga to'laqonli qo'shiladi. Ushbu Universal shartnomaning ajralmas qismi quyidagi ilovalar hisoblanadi, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmasdan:

- 1-ilova - "Universal shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi ariza va hisobvaraqlarini ochish".
- 2-ilova - "Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish, shuningdek Korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishning umumiyligi shartlari".
- 3-ilova - "Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar xodimlariga pul mablag'lari o'tkazmalarining umumiyligi shartlari"
- 4-ilova - "Bank omonatlarini ochish, saqlash va yopishning umumiyligi shartlari".
- 5-ilova - "e-POS terminali orqali xizmat ko'rsatish va milliy valyutadagi to'lovlarini qabul qilishning umumiyligi shartlari (Internet-ekvayring)".
- 6-ilova - "POS terminali orqali xizmat ko'rsatish va milliy valyutadagi to'lovlarini qabul qilishning umumiyligi shartlari".
- 7-ilova - "Naqd pul mablag'larini qabul qilish bo'yicha xizmatlarni taqdim etishning umumiyligi shartlari (samonos)".
- 8-ilova - "Pul qoldig'iga foizlarni hisoblashning umumiyligi shartlari".

- 9-ilova - "To'lov API yordamida e-POS orqali to'lov usulini taqdim etishning umumiy shartlari".
 - 10-ilova - "Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarni kreditlashning umumiy shartlari"
- 3.4.** Universal shartnoma Bankning rasmiy saytida e'lon qilinadi. Mijozni Universal shartnoma shartlari, shu jumladan Universal shartnoma matniga kiritilgan o'zgartirishlar/qo'shimchalar bilan tanishtirish vaqtি axborot e'lon qilingan va/yoki xizmatlar olingan payt hisoblanadi. Mijozlarni Universal shartnoma va Tariflar bilan tanishtirish maqsadida Bank Universal shartnoma matni va Tariflarni (Tarif rejalarini) Bankning quyidagi manzildagi saytida e'lon qiladi: www.anorbank.uz, shu bilan birga, Bank Internet-bank/Mobil bankdagi Mijozlarning shaxsiy kabinetlarida ham Tariflarni (Tarif rejalarini) joylashtirishi mumkin. Qo'shimcha ravishda Mijozlarga ma'lumot olish va uning Bankdan kelganligini aniqlash imkonini beradigan boshqa yo'llar bilan ham Bank Mijozni xabardor qilishi mumkin. Ko'rsatilgan ma'lumotlarning e'lon qilingan sanasi Bankning Internetdagi www.anorbank.uz saytida birinchi joylashtirilgan sana hisoblanadi.
- 3.5.** Universal shartnoma Bank tomonidan Universal shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi Buyurtmanomaning bir qismi tarkibidagi Arizada bo'lgan Ofertani qabul qilish yo'li bilan tuziladi. Agar Universal shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'limsa, Ofertani qabul qilish Mijozga joriy Hisob raqamini ochish hisoblanadi. Agar Buyurtmanomada bir nechta Shartnomalar tuzish uchun Ofertaga qo'shilish to'g'risidagi ariza mavjud bo'lsa, Bankning tegishli Buyurtmanomani (Ofertani) birinchi qabul qilishi Universal shartnomani tuzish vaqtি hisoblanadi.
- 3.6.** Qo'shilish to'g'risidagi Ariza va Buyurtmanoma(lar)ni imzolash orqali Mijoz o'zining roziligini va Universal shartnomaning mazmuni, Tariflari, shuningdek xizmat ko'rsatish qoidalari, tartibi, qiymati bilan tanishganligini tasdiqlaydi, ularni taqdim etish shartlarini to'liq va shartsiz qabul qiladi, shuningdek Universal shartnomada mijoz uchun og'ir shartlar mavjud emasligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, Universal shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi Ariza va Buyurtmanoma(lar)ni imzolash orqali Mijoz amaldagi qonunchilikka va/yoki Mijozning ta'sis hujjatlariga muvofiq zarur bo'lgan davlat organlari va yuridik shaxslar boshqaruva organlarining barcha zarur roziligini, ruxsatini va/yoki ma'qullovinı olganligini, shuningdek faoliyatni va operatsiyalarni amalga oshirish uchun tegishli litsenziyalar va ruxsatnomalarga ega ekanligini tasdiqlaydi.
- 3.7.** Bank ichki qoidalarga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor bilan Universal shartnoma tuzishdan bosh tortishga haqli.
- 3.8.** Agar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Bank Mijozni identifikatsiyalash natijasida olingan ma'lumotlar, shu jumladan Mijoz tomonidan Bankka taqdim etilgan ma'lumotlar asosida Mijozga xizmat ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunda Bank Mijozdan qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olishga haqli.
- 3.9.** Universal shartnomaga qo'shilish to'g'risida Ariza va barcha zarur hujjatlar Mijozning vakolatli shaxs(lar)i tomonidan beriladi.
- 3.10.** Tuzib bo'lingan Universal shartnoma doirasida alohida Shartnomalarni tuzish uchun Mijoz Bankga, jumladan, Autentifikatsion ma'lumotlarni qo'llash bilan Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari va/yoki mazkur Universal shartnoma bilan belgilab berilgan tartibda ERI orqali imzolangan rasmiylashtirilgan Buyurtmanomani taqdim qiladi. Buyurtmanomani rasmiylashtirishda Mijoz tomonidan Autentifikatsiya ma'lumotlarini va/yoki ERI kalitini kiritish va/yoki Bankka va/yoki Bank vakiliga, jumladan Bankning aloqa markaziga taqdim etish Mijoz tomonidan tegishli Umumiy shartlarda bayon etilgan shartlar asosida Universal shartnomani tuzish uchun Bankka Oferta taqdim etilganligini anglatadi.
- 3.11.** Hisob-kitob hisobvarag'idagi, Bankda ochilgan Omonat hisobvarag'idagi mablag'larni tasarruf etish Internet-bank/Mobil bank yoki boshqa Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali yuborilgan Mijozning hisob-kitob hujjatlari asosida faqat qo'lda qo'yilgan imzoning analogidan, shu jumladan, lekin cheklanmagan holda, Mijozning vakolatli shaxsining ERIsidan foydalangan holda amalga oshiriladi.
- Bank Mijozga o'z qo'li bilan qo'yilgan imzosining analogi bilan imzolangan Hisob-kitob

- hisobvarag‘i, Omonat hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun buyurtmalarni qabul qilishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli (shu jumladan, Internet-bank/Mobil bank va/yoki boshqa Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanali orqali Hisob-kitob hisobvarag‘i, Omonat hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishning texnik imkoniyati bo‘lmagan taqdirda). Bunday holda, Mijoz bankka imzolar va muhr izlari namunalari bilan tegishli ravishda tuzilgan va tasdiqlangan kartochkani taqdim etishi shart. Mijozning hisob-kitob hujjatlarini imzolash huquqiga Mijoz tomonidan taqdim etilgan imzolar va muhr izlari namunalari bilan kartochkada ko‘rsatilgan Hisob-kitob hisobvarag‘ida, Omonat hisobvarag‘ida pul mablag‘larini tasarruf etish uchun Mijozning tegishli tarzda vakolatlangan Xodimlar/Mijozlari ega bo‘ladi. Bundan tashqari, Bank Mijozdan qo‘srimcha ma‘lumot va/yoki hujjatlarni talab qilish huquqiga ega.
- 3.12.** Universal shartnomani tuzish orqali Mijoz bankka ko‘rsatilgan qarzdorlikni to‘lash uchun Universal shartnomasi va/yoki Shartnomalar bo‘yicha Mijozning qarzdorligidan oshmaydigan miqdorda Bankda ochilgan Mijozning barcha bank hisobvaraqlariga nisbatan Bank buyruqlarini bajarish uchun akseptni taqdim etadi.
- 3.13.** Bank Mijozga Universal shartnomasi va/yoki shartnomasi bilan bog‘liq ma‘lumotlarni, shu jumladan ko‘chirmalarni Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari orqali yuboradi. Shu bilan birga, Mijoz bank tomonidan Mijozga yuborilgan ma‘lumotlarning uchinchi shaxslarga taqdim etilishi bilan bog‘liq barcha xavflarni o‘z zimmasiga oladi. Mijoz Universal shartnomasi doirasida Bankdan ma‘lumot taqdim etishning biron bir aniq usuli yoki usullaridan voz kechishga haqli, agar Bankdan ma‘lumot taqdim etishning kamida bitta kanali saqlab qolsa.
- 3.14.** Mijoz ma‘lumot olishning barcha usullaridan voz kechgan taqdirda Bank javobgar bo‘lmaydi. Mijoz tomonidan belgilangan kanallar/ma‘lumot olish usullari bo‘yicha Mijoz erishimli bo‘lmagan/mavjud bo‘lmagan taqdirda Bank javobgar bo‘lmaydi.
Mijoz tomonidan ushbu Universal shartnomaning 3.13-bandida ko‘rsatilgan har qanday usulda Bank tomonidan yuborilgan bildirishnomasi, xabar, so‘rov, ko‘rsatma, talab va boshqa hujjatni olmaslik xavfi, shu jumladan, Bank tomonidan yuborilgan bildirishnomasi, xabar, so‘rov, ko‘rsatma, talabnomasi va boshqa hujjatni bajarmaslik bilan bog‘liq huquqiy oqibatlar Mijozga yuklatiladi – Mijoz tomonidan vakolatlangan shaxsning ERIsi bilan imzolangan hujjat bunday shaxs tomonidan o‘z qo‘li bilan imzolangan qog‘ozdagagi hujjat bilan bir xil yuridik kuchga ega va ushbu hujjat uchun ko‘zda tutilgan huquqiy oqibatlarga olib keladi. Hujjatda Mijoz vakolatlari shaxsining ERIsi borligi hujjat Mijozning vakolatlari shaxsi tomonidan yuborilganligini va imzolanganligini anglatadi, bunday hujjatdagi ma‘lumotlar haqiqiy, ishonchli deb tan olinadi va Mijoz vakolatlari shaxsining o‘z qo‘li bilan imzolangan qog‘ozdagagi hujjatga tenglashtiriladi.
- 3.15.** Universal shartnomasi doirasida Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari orqali hujjatlarni almashish yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan hujjat aylanmasi hisoblanadi. Bunday hujjatlar Bank va Mijoz tomonidan (bundan buyon matnda birgalikda zikr qilinsa - Tomonlar) yozma ravishda tuzilgan deb tan olinadi. Universal shartnomasi doirasida har qanday yo‘l bilan yuborilgan xabarlar, yuborgan Tomonning Universal shartnomasi doirasida Tomonlarning huquqiy munosabatlarini o‘rnatish, o‘zgartirish yoki bekor qilish irodasini o‘z ichiga olgan xabarlar sifatida tan olinadi. Tomonlar bunday xabarni qabul qilishni qonuniy fakt deb tan olishadi. Xabarlarni imzolash O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalari, Bankning ichki hujjatlari, shuningdek Universal shartnomasi shartlarining talabi bo‘lgan hollarda Mijozning xabarlari Mijoz vakolatlari shaxsining ERIsi bilan imzolanishi kerak.
Tomonlar Universal shartnomasi doirasidagi Tomonlarning elektron hujjatlari Tomonlar imzolagan elektron hujjatlar sifatida tan olinishiga va Mijoz vakolatlari shaxsining o‘z qo‘li bilan imzolangan qog‘oz hujjatlariga teng bo‘lishiga kelishib oldilar. Mijoz tomonidan Bankka Mijoz tomonidan e’lon qilingan elektron aloqa ma‘lumotlari orqali yuborilgan elektron hujjat Mijozning vakolatlari shaxsleridan yuborilgan deb hisoblanadi va Mijoz vakolatlari shaxsining o‘z qo‘li bilan imzolangan qog‘oz hujjatlariga tenglashtiriladi.
- 3.16.** Tariflarning ajralmas qismi bo‘lgan har bir Shartnomasi uchun Tarif rejasi qo’llaniladi, u Mijoz tomonidan mustaqil ravishda tanlanadi va Mijozga Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari orqali uzatiladi.
- 3.17.** Ushbu Universal shartnomaning 3.18-bandiga binoan Mijoz tomonidan aksept taqdim etilgan

Mijozning buyruqlari va Bankning buyruqlarini bajarish maqsadida hisob-kitob (to'lov) hujjatlari Bank tomonidan rasmiylashtiriladi, Mijoz esa Bankka tegishli vakolatlarni beradi. Ilgari berilgan akseptni chaqirib olish Mijozning Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali yuborilgan yozma arizasiga binoan amalga oshiriladi.

3.18. Mijoz shu bilan Bankka bunday talablar summasida Bankning barcha talablarga nisbatan roziligini qabul qilishni, shu jumladan Bank tomonidan taqdim etilgan talablar (oldindan berilgan aksept) miqdorida pul mablag'larini Hisob-kitob hisobvarag'idan, Omonat hisobvarag'idan chiqarib olishga roziligini beradi, aynan:

- xizmatlar ko'rsatilishi sanasida Bank Tariflari va Universal shartnoma belgilangan miqdorda xizmat ko'rsatilganligini uchun komissiyalar (komission mukofotlar va/yoki Mijozga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq Bankning boshqa xarajatlari);
 - Universal shartnoma shartlarida nazarda tutilgan jarimalar;
 - noto'g'ri hisoblangan summalar, ortiqcha to'langan foizlar, shuningdek Mijoz tomonidan Bankka to'lanishi/qaytarilishi kerak bo'lgan boshqa mablag'lar.
 - Bank va Mijoz o'rtaida tuzilgan va/yoki yangidan tuziladigan boshqa Shartnomalar bo'yicha bunday Shartnomalarda nazarda tutilgan miqdorlarda, tartibda va shartlarda Mijozning Bankda ochilgan har qanday hisobvaraqlaridan, shu jumladan, agar ko'rsatib o'tilgan Shartnomalarda Mijozning aksepti asosida tegishli summalarni to'lash imkoniyati nazarda tutilmagan bo'lsa, Universal shartnomaning ushbu bandiga asosan Mijozning Bank oldidagi muddati o'tib ketgan qarzdorligi summasi;
- 3.19.** Agar Bankning rekvizitlarni o'zgartirish yoki to'lovni bekor qilish bo'yicha harakatlari tariflarda aniq ko'rsatilmagan qo'shimcha xarajatlar bilan bog'liq bo'lsa, Mijoz bunday xarajatlarni Bankka qoplashi shart. Shu bilan, Mijoz Bankka ushbu xarajatlar miqdorini Mijozning hisobvarag'idan oldindan berilgan aksept bo'yicha hisobdan chiqarishni topshiradi.
- 3.20.** Bank tomonidan xatolikka yo'1 qo'yilgan taqdirda, so'rovlar, rekvizitlarni o'zgartirish, to'lovni bekor qilish va qayta bajarish bo'yicha barcha harakatlarni Bank o'z hisobidan amalga oshiradi.
- 3.21.** Noto'g'ri to'lov rekvizitlari tufayli yoki to'lovni bekor qilish to'g'risidagi so'rov bo'yicha Mijozning bajarilgan to'lovlari bo'yicha qaytarilgan mablag'lar Bank tomonidan olingan summada Hisob-kitob hisobvarag'iga o'tkaziladi.

4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Ushbu Universal shartnomaning 4-qismida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlardan tashqari, Bank va Mijoz Universal shartnomaning ilovalarida ko'rsatilgan tegishli umumiy shartlarda belgilangan huquq va majburiyatlarga ega.

4.2. Bank quyidagi majburiatlarni o'z zimmasiga oladi:

4.2.1. Mijoz bilan bog'liq har qanday ma'lumot uchun maxfiylikni saqlash. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlaridan chiqadigan qarorlar, farmoyishlar, ko'rsatmalar, buyruqlar yoki boshqa hujjatlarga muvofiq Bank har qanday bunday axborotni oshkor qilishga haqli.

4.3. Mijoz quyidagi majburiatlarni o'z zimmasiga oladi:

4.3.1. Bankka, shu jumladan Bankning so'rovi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishonchli ma'lumotlar va hujjatlarni, shu jumladan pul mablag'lari bilan bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni, o'tkazilgan pul mablag'larini olishning asoslilagini tasdiqlovchi hujjatlarni, shuningdek xorijiy davlatlarning soliq rezidentlarini aniqlash uchun zarur bo'lgan Mijoz, naf oluvchilar va/yoki ularni bevosita yoki bilvosita nazorat qiluvchi shaxslarga nisbatan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish.

- 4.3.2. Bank tomonidan Internet-Bankda/Mijozning mobil bankida aks ettirilgan Mijoz, Mijoz Vakili, Naf oluvchi, Benefitsiar egasi haqidagi ma'lumotlar haqiqatga mos kelmasligi to'g'risida Bankni darhol xabardor qilish, shuningdek 3 (uch) ish kuni mobaynida Universal shartnoma tuzish maqsadida Mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga taalluqli barcha o'zgarishlar to'g'risida Bankni yozma ravishda xabardor qilish va yiliga kamida 1 (bir) marta Universal shartnoma tuzish va Mijozni lozim darajada tekshirish maqsadida taqdim etilgan ma'lumotlarning haqiqiyligini tasdiqlash. Internet-bankda/Mobil bankda aks ettirilgan ma'lumotlarning ishonchliliginin tekshirish to'g'risida Mijozdan xabarnomaning yo'qligi, shuningdek Universal shartnoma tuzilgan kundan boshlab bir yil o'tgach va har bir keyingi yilda xabarnomaning yo'qligi Mijozning Bankda mavjud bo'lgan ma'lumotlarning haqiqiyligi va dolzarbligini tasdiqlashini anglatadi.
- 4.3.3. Bankka Mijoz (vakolatlari shaxslar) bilan aloqa qilish uchun, shuningdek Tomonlarning ushbu Universal shartnomani bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday o'zgarishlar to'g'risida ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish, shu jumladan: nomi, yuridik manzili, haqiqiy manzili, Internet-sayt manzilidagi o'zgarishlarda, shuningdek rekvizitlardagi boshqa o'zgarishlarda darhol yangilangan ma'lumotlarni taqdim etish. Bankning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Universal shartnomada nazarda tutilgan bildirishnomalarni Mijozga yuborish majburiyati Mijoz bilan aloqa qilish uchun Bankda mavjud bo'lgan axborotga muvofiq bildirishnomalar yuborilganda bajarilgan hisoblanadi.
- 4.3.4. Universal shartnoma va boshqa shartnomalar shartlarini bajarish bilan bog'liq ma'lumotlar bilan mustaqil ravishda tanishish. Elektron hujjatlar shaklida Bank tomonidan umumiyo foydalanish uchun joylashtirilgan ma'lumotlar Bank tomonidan Bank saytida e'lon qilingan kundan boshlab va/yoki elektron hujjatlar Mijozga Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali taqdim etilgan kundan boshlab Mijozning e'tiboriga tegishli ravishda yetkazilgan deb hisoblanadi.
- 4.3.5. Shaxsiy ma'lumotlari Mijoz tomonidan Universal shartnoma doirasida Bankka taqdim etiladigan shaxslarga nisbatan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining talablariga rioya etiladi, Universal shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi arizada va boshqa hujjatlarda jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Universal shartnomani bajarish maqsadida hamda Bankning boshqa mahsulotlari/xizmatlarini Mijozga va/yoki ko'rsatilgan jismoniy shaxslarga taqdim etish maqsadida Mijoz bankka u taqdim etgan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishslashni topshiradi. Bunda Mijoz va Bank tomonidan ko'rsatib o'tilgan jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishslashga bunday rozilik olish talabini buzganligi, shuningdek ko'rsatib o'tilgan jismoniy shaxslarga "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni talablariga muvofiq ma'lumotlar yetkazilganligi oqibatlari, shu jumladan mulkiy tusdagi oqibatlar uchun Mijoz javob beradi.
- 4.3.6. Maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishslash, ularidan foydalanish va saqlashga rozilikni bekor qilish ushbu bandda ko'rsatilgan kelishuvlar bekor qilingan kundan boshlab Bank tomonidan Universal shartnomani (Shartnomalarni) bir tomonlama tartibda Tomonlarning Universal shartnomani (Shartnomalarni) bajarishini qiyinlashtiradigan yoki imkonsiz qiladigan darajada qisman yoki to'liq bekor qilish uchun asos bo'ladi. Ushbu bandda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha Universal shartnoma bekor qilingan taqdirda, Mijozning bankda ochilgan hisobvaraqlari Universal shartnoma bekor qilingan kundan boshlab yopilishi kerak. Tomonlar ushbu bandda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha Universal shartnomani bekor qilishda Tomonlarning qo'shimcha roziligi talab qilinmasligiga kelishib oldilar.
- 4.3.7. O'zgartirishlar kiritilgan va/yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran (agar o'zgartirishlar ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lsa) 3 (uch) ish kuni ichida kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda Mijoz tomonidan Bankka Universal shartnoma doirasida taqdim etilgan hujjatlar yoki yangilangan ma'lumotlarning yangi tahririni, shu jumladan Mijozning hisobini tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish.
- 4.3.8. Agar Universal shartnomaga muvofiq hisoblangan bo'lsa, jarimani hisobga olgan holda Bank oldidagi qarzni to'lash (agar mavjud bo'lsa).

- 4.3.9. Internet-Bankka/Mobil Bankka va/yoki boshqa Masofaviy xizmat ko'rsatish kanaliga kirish imkoni yo'qligi haqida, bular bilan cheklanmasdan, Karta va/yoki Abonent qurilmasi o'g'irlangan, yo'qolgan va buzilgan taqdirda darhol Bankka xabar berish. Bunday holatlar to'g'risida Bank o'z vaqtida xabardor qilinmagan taqdirda, Bank Mijozga uchinchi shaxslarning noqonuniy/firibgar xatti-harakatlari natijasida yetkazilgan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita zarar uchun Mijoz oldida javobgar bo'lmaydi.
- 4.3.10. Autentifikatsiya ma'lumotlarini xavfsiz saqlashni ta'minlash, ERI maxfiyligini ta'minlash, xususan, uchinchi shaxslar tomonidan ulardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik, autentifikatsiya ma'lumotlariga, ERI-ga kirishni oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish. Maxfiylik buzilganligi to'g'risida darhol Bankka xabar berish. Mijozdan maxfiylik buzilganligi to'g'risida bildirishnomada olishdan oldin, uchinchi shaxslarning noqonuniy/ firibgar xatti-harakatlari, Mijozga bunday harakatlarni natijasida yetkazilgan to'g'ridan-to'g'ri va/yoki bilvosita zarar uchun, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, Autentifikatsiya ma'lumotlariga, ERI-ga noqonuniy kirish huquqini olgan vakolatlanmagan shaxslar tomonidan Bankka yuborilgan va Bank ijro etishga qabul qilgan, Bank tomonidan Mijozning hisobvarag'ida bajarilgan topshiriqlar uchun Bank Mijoz oldida javobgar bo'lmaydi.
- 4.3.11. Xizmatga qabul qilishdan oldin yoki operatsiya amalga oshirilishidan oldin mustaqil ravishda naf oluvchi haqida, ya'ni Mijoz uning foyda olishi uchun harakat qilayotgan shaxs haqida, shu jumladan agentlik shartnomasi, topshiriq shartnomalari, komissiya va ishonchli boshqaruv asosida, pul mablag'lari va boshqa mol-mulk bilan operatsiyalarini amalga oshirishda, qonun hujjalarda va Bankda tomonidan nazarda tutilgan hajm va tartibda xabar berish. Naf oluvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni Bankka taqdim etmaslik Mijozning bunday ma'lumotlarning yo'qligi to'g'risidagi xabari hisoblanadi.
- 4.3.12. Benefitsiar mulkdor, ya'ni oxir-oqibat egalik huquqiga ega bo'ladigan yoki Mijozni haqiqatan nazorat qiladigan va manfaatlari uchun pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan operatsiya amalga oshiriladigan shaxs to'g'risida xabar berish.
- 4.3.13. 3 (uch) ish kuni mobaynida Mijoz tomonidan Naf oluvchilar va Benefitsiar mulkdorlar to'g'risida bildirilgan ma'lumotlarga taalluqli barcha o'zgarishlar to'g'risida Bankni yozma ravishda xabardor qilish, shuningdek taqdim etilgan ma'lumotlarning haqiqiyligini yiliga kamida 1 (bir) marta tasdiqlash. Naf oluvchilar va Benefitsiar mulkdorlar to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilgan kundan e'tiboran bir yil va keyingi har bir yil o'tgach Mijozdan yozma xabarnomaning yo'qligi Mijoz tomonidan ilgari Bankka taqdim etilgan ma'lumotlarning haqiqiyligi va dolzarbli tasdiqlanganligini anglatadi.
- 4.3.14. Mijoz birinchi Hisob-kitob hisobvarag'ini ochishda Bankka AQSh soliq to'lovchisining maqomi to'g'risida ma'lumot berishi, shuningdek, maqomi o'zgargan kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kun ichida AQSh soliq to'lovchisining maqomi mayjudligi yoki o'zgarganligi to'g'risida ma'lumot berishi shart.
- 4.3.15. Bankning talabiga binoan, Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi va/yoki Universal shartnomada belgilangan shartlar, qoidalar va talablarni bajarmaganligi/buzganligi sababli Bankka yetkazilgan zararlarni qoplash.
- 4.3.16. Autentifikatsiya ma'lumotlari va ERI kalitlarini yaratadigan va (yoki) ishlatajigan Mijoz/Mijozning vakolatlari shaxslari bunday ma'lumotlar va kalitlarning maxfiyligini saqlashlari shart.
- 4.3.17. 15 (o'n besh) kalendar kun ichida Bankka dolzarb hujjalarni taqdim etgan holda, Mijozning, Naf oluvchilarning va/yoki ularni bevosita yoki bilvosita nazorat qiluvchi shaxslarning soliq rezidenti maqomiga ta'sir ko'rsatuvchi hujjalarni va ma'lumotlar va/yoki holatlar o'zgarganligi to'g'risida Bankni darhol xabardor qilish.

4.4. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- 4.4.1. Mijozni, Mijoz vakilini, Naf oluvchini, Benefitsiar mulkdorni identifikatsiyalashda va ular to'g'risida ma'lumotlarni yangilashda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalarda, Universal shartnomada nazarda tutilgan hujjalarni Mijozdan, Mijoz vakilidan taqdim etishini talab qilish va Mijozdan, Mijoz vakilidan ularni olish.
- 4.4.2. Universal shartnomani tuzish va bajarish uchun Mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjalarni va

ma'lumotlarni, shu jumladan uchinchi shaxslarni jalg qilgan holda tekshirish. Shu bilan Mijoz unga nisbatan uchinchi shaxslardan, shu jumladan soliq organlari, statistika organlari, kredit byurolari va boshqalardan ma'lumotlarni olishga rozilik beradi.

- 4.4.3. Universal shartnomada belgilangan vazifalarni bajarishga uchinchi shaxslarni jalg qilish.
- 4.4.4. Shartnomalar tuzishda, shuningdek Mijozning Bankka boshqa murojaatida kuzatuv, suratga olish, audio va video yozuvlarni, shu jumladan telefon suhbatlarini yozib olishni Mijozni (uning vakillarini) bunday yozuv to'g'risida xabardor qilib yoki xabardor qilmasdan amalga oshirish. Mijoz Bank bunday yozuvlarni Mijoz bilan munosabatlar tugagan kundan boshlab 5 (besh) yil davomida saqlashga, shuningdek Universal shartnomaga va/yoki Shartnomalar bilan bog'liq har qanday tekshiruvlarda ulardan foydalanishga haqli ekanligiga rozi bo'ladi.
- 4.4.5. Mijozdan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Universal shartnomaga shartlarida (Umumiy shartlarga muvofiq alohida Shartnomalar) nazarda tutilgan hollarda hujjatlar va ma'lumotlarni, shu jumladan Mijozning soliq rezidentligi, Benefitsiar mulkdorlari va ularni bevosita yoki bilvosita nazorat qiluvchi shaxslar to'g'risidagi, pul mablag'lari bilan bog'liq operatsiyalar, Bank bilan ishbilarmonlik munosabatlarini o'rnatish va ularning ko'zlangan tabiatni, moliyaviy-xo'jalik faoliyatning maqsadlari, moliyaviy ahvoli, ishbilarmonlik obro'si, Mijozning pul mablag'lari va/yoki boshqa mol-mulk manbalari to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni va/yoki o'tkazilgan pul mablag'larini olishning asoslanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni Mijozdan so'rab olish.
- 4.4.6. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha, shuningdek ushbu Universal shartnomaga va/yoki Bankning ichki hujjatlariga muvofiq har qanday shaxsga Universal shartnomaga/Buyurtmanomaga qo'shilish to'g'risidagi Arizani ko'rib chiqishni rad etish huquqini saqlab qolish.
- 4.4.7. Bankning ichki hujjatlariga muvofiq va O'zR qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollarda Mijoz bilan Universal shartnomani bekor qilish.
- 4.4.8. Mijozning hujjatlar taqdim etilmagan, shu jumladan Mijozni lozim darajada tekshirish maqsadida, shuningdek Bankning ichki hujjatlariga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda operatsiyani amalga oshirish to'g'risidagi farmoyish bajarilishini rad etish.
- 4.4.9. Mijozni ogohlantirmasdan noto'g'ri operatsiyalarni bekor qilish.
- 4.4.10. Noto'g'ri operatsiyalar bekor qilinganda, noto'g'ri operatsiya ko'rib chiqilgan kundan boshlab uni bekor qilishgacha bo'lgan davr uchun foizlarni hisoblamaslik (Tariflarda shartlar mayjud bo'lsa).
- 4.4.11. Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini ijro etish, jumladan Mijozni lozim darajada tekshirish maqsadida Bank tomonidan so'rangan hujjatlar va ma'lumotlar Bankka taqdim etilmagan taqdirda Korporativ kartani blokirovka qilish va/yoki Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalanishni cheklash.
- 4.4.12. Bank global Internet tarmog'ida va boshqa qonuniy usulda, shu jumladan: taqdimotlarda, broshyuralarda, bukletlarda, varaqalarda Mijozning Bankning mijozи ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatish/joylashtirish orqali Mijozning savdo belgilari/xizmat ko'rsatish belgilari, firma nomi va boshqa belgilaridan foydalanish huquqiga ega.
- 4.4.13. Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida Mijozdan Mijozni identifikatsiya qilish imkonini beradigan va hisobvaraq bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi axborot va hujjatlarni taqdim etishni talab qilish. Bank tomonidan quyidagilar aniqlangan kunda Universal shartnomaga bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bir tomonlama tartibda to'liq yoki qisman voz kechish:

- jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida Korporativ kartadan, boshqa operatsiyalar Hisobvarag'idan foydalanganlikka asosli gumonlar bo'lganda;
- jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy

qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida operatsiyalarini o'tkazish uchun shubhali (gumonli) operatsiyalar takroran o'tkazilganligiga yoki Kartadan foydalanilganligiga asosli gumonlar bo'lganda.

- 4.4.14. Mijoz va/yoki uchinchi shaxs tomonidan to'lov rekvizitlari ko'rsatilganda ular tomonidan yo'1 qo'yilgan xatolar aniqlanganda yoxud Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlarida belgilangan hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish bo'yicha talablar buzilgan taqdirda Mijozning farmoyishini bir tomonlama tartibda bajarmaslik.
- 4.4.15. Agar Universal shartnomani (boshqa Shartnomalarni) tuzishning maqsadi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida operatsiyalarini amalga oshirish degan shubha bo'lsa, Universal shartnomani (boshqa Shartnomalarni) tuzishda qonun hujjatlari talablari asosida bir tomonlama rad etish.
- 4.4.16. Agar Bank operatsiya jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (qonuniylashtirish), terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarning tarqalishini moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilayotganiga shubha qilsa, Mijozning operatsiyani amalga oshirish bo'yicha Topshiriqlarini bajarishni (jismoniy shaxsning hisobvarag'iga tushgan mablag'larni hisobga olish operatsiyasidan tashqari) qonunchilik talablariga muvofiq bir tomonlama tartibda rad etish.
- 4.4.17. Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali shubhali va/yoki gumonli operatsiyalarini amalga oshirish xavfini kamaytirish uchun bir tomonlama:
 - shubhali operatsiyalar amalga oshirilgan Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali xizmatlar ko'rsatishni uch kun muddatga yoki qonun hujjatlarida belgilangan boshqa muddatga to'xtatib turish;
 - Masofaviy xizmat ko'rsatish servislaridan foydalangan holda Mijoz tomonidan amalga oshirilgan shubhali operatsiyalar aniqlangan taqdirda, Mijoz tomonidan operatsiyalar qonuniy ekanligi to'g'risida yozma tushuntirish olingunga qadar Mijozga Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali xizmatlarni taqdim etishni to'xtatib turish yoki rad etish;
 - Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalangan holda shubhali operatsiyalar amalga oshirilganligiga shubha tug'ilganda, Mijozni uning manzili bo'yicha o'rghanish, shu jumladan operatsiya bevosita Mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan jarayonni o'rghanish uchun;
 - jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini moliyalashtirish maqsadida Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalanilayotganligiga asosli shubhalar bo'lgan taqdirda Universal shartnomani to'liq yoki qisman bajarishdan bosh tortish.
- 4.4.18. Qonun hujjatlarida, shu jumladan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha sohasida nazarda utilgan hollarda va tartibda Mijozning tegishli operatsiyalarini bir tomonlama to'xtatib turish (hisobvarag'iga tushgan pul mablag'larni hisobga olish operatsiyalari bundan mustasno) yoki Mijozning hisobvarag'idagi pul mablag'larni blokirovka qilish (muzlatish).
- 4.4.19. Tegishli operatsiyalarini bajarish uchun Mijozda litsenziyalar/guvohnomalar va boshqa ruxsatnomalar bo'lishi talab qilinadigan hollarda, Mijoz o'z kuchini yo'qotgan hujjatlarning o'rniga yangi ruxsat beruvchi hujjatlarni taqdim etgunga qadar alohida operatsiyalarga kirishni bir tomonlama ravishda blokirovka qilish (topshiriqlarni bajarishni rad etish).
- 4.4.20. Universal shartnomani to'liq yoki qisman va qonun hujjatlarida va ushbu Universal shartnomada nazarda utilgan muddatlarda bajarishdan bir tomonlama voz kechish:
 - jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy

qirg'in qurolini moliyalashtirish maqsadida Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalanilayotganligiga asosli shubhalar bo'lgan taqdirda;

- Mijoz - AQSh soliq rezidenti uni chet el soliq to'lovchisi sifatida aniqlash identifikatsiya qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etmagan hollarda va/yoki IRS-ga (AQSh soliq organlari) ma'lumot uzatishga rozilik bermagan (rozilik berishdan bosh tortgan) hollarda.

4.5. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

- 4.5.1. Mijoz shartlariga qo'shilgan Universal shartnoma asosida keyingi hisobvaraqlarni ochish va/yoki Bankning boshqa mahsulotlariga Buyurtmanoma qoldirish, tegishli Buyurtmanomani Internet-bank/Mobil bank va/yoki boshqa Masofaviy xizmat ko'rsatish kanalidan foydalangan holda yuborish orqali.

- 4.5.2. Bankka murojaat qilib, autentifikatsiya ma'lumotlarini o'zgartirish.

- 4.5.3. Qo'shimcha xizmatlarni (agar Bankda bunday xizmat mavjud bo'lsa) ulash/o'chirish yoki Tarif rejasi doirasida ulangan xizmatlardan voz kechish orqali belgilangan Tarif rejalarini doirasida keng qamrovli Bank xizmatlari shartlarini tanlash.

- 4.6. **Universal shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning xodimlari amaldagi qonunchilikka muvofiq korrupsiyaga oid deb topilgan harakatlarni, shu jumladan pora berish, pora olish, poraxo'rlikka vositachilik qilish, mansab yoki vakolatni suiiste'mol qilish, tijoriy yo'l bilan og'dirish kabi harakatlarini amalga oshirmaydi, o'zlarini yoki uchinchi shaxslar uchun har qanday noqonuniy imtiyoz va foyda olish maqsadida har qanday shaxslarga ushbu shaxslarning harakatlariga yoki qarorlariga ta'sir ko'rsatish uchun qandaydir pul mablag'larini, shu jumladan sovg'a, huquq berish, xizmat ko'rsatish, mol-mulk ko'rinishida bevosita yoki bilvosita, har qanday shaklda to'lamaydi, to'lashni taklif qilmaydi yoki to'lashga yoki qiymatliklarni berishga ruxsat bermaydi.**

5. MASOFAVIY XIZMAT KO'RSATISH TARTIBI

5.1. Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallariga quyidagilar kiradi:

- 5.1.1. Telefon orqali xizmat ko'rsatadigan Bank Aloqa markazi;
5.1.2. Internet-bank, Mobil bank va Internetdagagi boshqa xizmat ko'rsatish kanallari, shu jumladan Hamkorlarning Internetdagagi saytlarida joylashtirilgan ilovalar va xabarlarni uzatish xizmatlari;
5.1.3. operatsiyalar to'g'risida xabardor qilish, oglantirish.
- 5.2. Masofaviy xizmat ko'rsatish doirasida Bank Mijozga Universal shartnoma bo'yicha ma'lumot beradi, uni Universal shartnomaga/Buyurtmanomaga qo'shilish to'g'risidagi Arizada ko'rsatilgan va/yoki keyinchalik Mijoz tomonidan Bankka Universal shartnomada nazarda tutilgan tartibda taqdim etilgan Mijozning aloqa ma'lumotlari bo'yicha yuboradi.

- 5.3. Mijoz Autentifikatsiya ma'lumotlari yordamida amalga oshirilgan operatsiyalar Mijoz tomonidan amalga oshirilgan deb tan olinishiga va da'vo qilinmasligiga rozi bo'ladi, bevosita qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

- 5.4. Bank texnik imkoniyat mavjud bo'lмаган, ruxsatsiz shaxslarning Mijozning pul mablag'lari va axborotiga kirishiga shubha qilish uchun asoslar mavjud bo'lган taqdirda, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida, Universal shartnomada va Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali taqdim etiladigan xizmatlarning ko'rsatilishiga cheklovlari qo'yishga haqli.

- 5.5. Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalanish uchun Mijoz mustaqil ravishda elektron, jumladan, ko'chma aloqa kanallariga ulanishni ta'minlaydi va/yoki o'z qurilmalarida (telefon, smartfon, planshet, kompyuter va boshqalar) va o'z operatorida zarur funksiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

- 5.6. Mijoz tomonidan, jumladan Bank hamkorlari tomonidan operatsiyalar amalga oshirilishi va xizmatlar ko'rsatilishi uchun Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali qo'lда qo'yilgan imzoning analogi bo'lган Autentifikatsiya ma'lumotlari va/yoki ERI ishlataladi. Mijoz tomonidan Autentifikatsiya ma'lumotlarini, ERI-ni to'g'ri kiritgandan va/yoki Bankka va/yoki Bank vakiliga,

shu jumladan Bankning aloqa markaziga taqdim etgandan (xabar bergandan) keyin Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali sodir etiladigan harakatlari Mijozning o'zi amalga oshirgan harakatlar deb tan olinadi. Shu o'rinda, Autentifikatsiya ma'lumotlarini va/yoki Kirish kodlarini va/yoki ERI-ni to'g'ri kiritgandan va/yoki taqdim etgandan (xabar qilgandan) so'ng Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali hujjatlarni shakllantirish va yuborish ham bunday elektron hujjatlar Mijoz tomonidan imzolangan deb tan olinadi. Mijoz tomonidan Autentifikatsiya ma'lumotlari va/yoki Kirish kodlari va/yoki ERI orqali imzolangan elektron hujjatni yaratish, imzolash va Bankka yuborish fakti, shuningdek ERI-ni tekshirish va Bank va Mijozning boshqa harakatlari Bank tomonidan qayd etiladi va elektron jurnallarda saqlanadi. Elektron jurnallardan ko'chirma va log-fayllar (ya'ni Bankning dasturiy-texnik vositalari tomonidan yaratilgan hisobotlar, unda Mijoz tomonidan Masofiy xizmat ko'rsatish orqali sodir etilgan harakatlar va hodisalar qayd etiladi), shu jumladan nizoli vaziyatlarni hal qilishda davlat va sud organlariga, shuningdek boshqa tashkilotlarga taqdim etish uchun yetarli va joiz hisoblanadi, Mijozga bir martalik kod va/yoki Kirish kodi berilganligining, Mijoz tomonidan ERI yordamida elektron hujjat imzolanganligining, shuningdek elektron hujjat tarkibining isboti hisoblanadi.

5.7. Bank tomonidan taqdim etish uchun belgilangan muddatlar o'tib ketganida Bank Mijozga Bankning so'rovi bo'yicha Mijoz tomonidan yuborilgan ma'lumotlar va hujjatlarni, shu jumladan Hisob-kitob hisobvarag'i, Omonat hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish bo'yicha topshiriqlarni Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali qabul qilishni rad etishi mumkin. Bunday hollarda, Bankning so'rovi bo'yicha hujjatlar va ma'lumotlarni va/yoki hisob-kitob hujjatlarini ular tegishli tarzda qog'ozda bajarilgan taqdirda taqdim etish mumkin.

5.8. Mijoz aloqa uskunalari va/yoki aloqa tarmoqlarining ishlashidagi buzilishlar va shu tufayli yuzaga kelgan yo'qotishlar bilan bog'liq Masofaviy xizmatdagi nosozliklar va rad etishlar uchun Bank javobgar emasligiga rozi bo'ladi.

Aloqa markazining telefoni bo'yicha xizmat ko'rsatish.

5.9.1. Mijoz Universal shartnomasi bo'yicha ma'lumotlarni, shuningdek Bank tomonidan taqdim etiladigan boshqa xizmatlarni olish uchun mijozlarga telefon orqali xizmat ko'rsatish bo'yicha Bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin.

5.9.2. Mijoz kirish Kodlaridan foydalanish Mijozning to'g'ri va yetarli identifikatsiya ekanligiga va Mijoz vakolatli shaxsining qo'lida qo'yilgan imzosining analogi ekanligiga rozi bo'ladi.

5.9.3. Mijoz telefon liniyalari xavfsiz ma'lumot uzatish kanali emasligini anglagan holda telefon orqali ma'lumot uzatishga rozi bo'ladi.

Internet orqali xizmat ko'rsatish.

5.10.1. Xizmat ko'rsatish shartlariga muvofiqlik ma'lumot olish va operatsiyalarni amalga oshirish uchun Mijoz Internet-bank, Mobil bank va boshqa Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali Bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin.

5.10.2. Reglamentda nazarda tutilgan hollarda va tartibda Mijoz autentifikatsiya ma'lumotlarini o'zgartirishi shart.

5.10.3. Autentifikatsiya ma'lumotlaridan, shu jumladan Mijozga Abonent raqamiga yuboriladigan Bank tomonidan yaratilgan noyob kodlardan foydalanish Mijozning vakolatli shaxslarining tegishli va yetarli autentifikatsiyasi, Internet orqali operatsiyalarni amalga oshirish huquqining tasdig'i va Mijozning vakolatli shaxslarining o'z qo'li bilan qo'yilgan imzosining ekvivalenti ekanligiga Mijoz rozi bo'ladi.

Operatsiyalar to'g'risida xabardor qilish, ogohlantirish.

5.11.1. Operatsiyalar to'g'risida ogohlantirish - Mijozga ulanadigan va Mijozga Universal shartnomasi bo'yicha moliyaviy harakatlarni amalga oshirilganligi to'g'risidagi va Bankning xohishiga ko'ra real vaqt rejimida boshqa ma'lumotlarni olishga imkon beradigan Bank xizmati.

5.11.2. Xabardor qilish - Mijozga ulanadigan va Mijozga Shartnomasi bo'yicha ma'lumot olishga imkon beradigan Bank xizmati:

- ✓ Shartnomasi, Buyurtmanoma maqomini o'zgartirish to'g'risida;
- ✓ Shartnomasi bo'yicha moliyaviy bo'limgan harakatlarni amalga oshirish to'g'risida;

- ✓ Korporativ kartani chiqarish/maqomini o'zgartirish to'g'risida;
 - ✓ Bankning xohishiga ko'ra boshqa ma'lumotlar.
- 5.11.3. Xizmatlardan foydalanish uchun Mijoz mustaqil ravishda abonent qurilmasida (telefon, smartfon, planshet va boshqalar) va uyali aloqa operatorida SMS funksiyalari qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi.
- ## 6. UNIVERSAL SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI
- 6.1.** Universal shartnomaga ommaviy shartnomaga ekanligini va Bank va bir martalik xizmatlarning qiymati barcha Mijozlar uchun bir xil tarzda belgilanishini hisobga olib (O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi ayrim toifadagi Mijozlar uchun yoxud alohida korporativ Mijozlar uchun Bank xizmatining maxsus shartlari bo'yicha imtiyozlar beriladigan hollar bundan mustasno), Universal shartnomaga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar, shu jumladan, uning Ilovalari, Ilovalarining soni va tarkibi hamda alohida Shartnomalar va Bank Tariflari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 382-moddasi 1-qismiga muvofiq faqat Bank tomonidan tashabbuslanishi mumkin.
- 6.2.** O'zgartirilgan va/yoki to'ldirilgan Universal shartnomaga bilan Mijozning roziligi Mijozning operatsiyalarni amalga oshirishi/Universal shartnomaga/Bank tariflariga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kuchga kirgandan keyin ariza topshirishi bilan qo'shimcha tasdiqlanadi.
- 6.3.** O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalari va/yoki To'lov tizimlari qoidalari o'zgarishi va/yoki Bank tomonidan yangi mahsulotlar/xizmatlar taqdim etilishi va/yoki Bankning xohishiga ko'ra Bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyasi o'zgarishi tufayli Bank Umumiyligi shartlarga va Bank tariflariga muvofiq, Universal shartnomaga, shu jumladan Universal shartnomaning Ilovalariga, alohida Shartnomalarga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritishga haqli ekanligiga Tomonlar kelishib oldilar.
- 6.4.** Bank quyidagi usullardan biri orqali (Bankning tanlovi bo'yicha) Mijozga Universal shartnomaning, Universal shartnomaga Ilovalarining ("Umumiyligi shartlar") va Bank Tariflarining yangi (o'zgartirilgan) tahriri to'g'risida kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin xabarnoma yuborish orqali o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritadi, amaldagi qonunchilikning o'zgarishi yoki yangi Bank mahsulotini joriy etish yoxud xabar berish muddati kamida 1 (bir) kalendar kunni tashkil etadigan Bank nomi yoki yuridik/pochta manzilidagi o'zgartirishlar natijasida kelib chiqadigan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritish hollari bundan mustasno:
- Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali, shu jumladan tegishli elektron ogohlantirishni yuborish orqali;
 - Bankning Internetdagagi www.anorbank.uz saytida tegishli e'lonni va Universal shartnomaning yangi tahririni (o'zgartirish/qo'shimchalarni) joylashtirish yo'li bilan.
- 6.5.** Agar Universal shartnomaga shartlariga kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kuchga kirgunga qadar Bank Mijozdan Universal shartnomani bekor qilish to'g'risida yozma ariza olmagan bo'lsa, unda bu holat Mijozning kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar bilan so'zsiz va to'liq roziligini anglatadi. Bunda Universal shartnomani o'zgartirish va/yoki qo'shimcha qilish to'g'risidagi bitimning yozma shakli O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 366-moddasiga muvofiq bajarilgan hisoblanadi.
- 6.6.** Mijoz tomonidan Universal shartnomani bekor qilish Bankka ushbu Shartnomani bir tomonlama suddan tashqari bekor qilish huquqini beradi.
- 6.7.** Universal shartnomaga (Umumiyligi shartlarga muvofiq individual Shartnomalarga) kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, shu jumladan Bank tomonidan tasdiqlangan Universal shartnomaga, Umumiyligi shartlar va/yoki Tariflarning yangi tahriri, ular kuchga kirgan kundan boshlab Universal shartnomaga, Umumiyligi shartlarga qo'shilgan barcha shaxslarga, jumladan, Universal

- shartnomaga, Umumiy shartlarga ular kuchga kirish sanasidan oldin qo'shilgan shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi.
- 6.8.** Mijoz istalgan vaqtida bir tomonlama suddan tashqari tartibda Universal shartnomani bekor qilishga haqli, shu jumladan Mijozning Universal shartnomaga kiritilgan o'zgarishlarga rozi emasligi sababli.
- 6.9.** Universal shartnomani bekor qilish Mijozning Bankda ochilgan Hisob-kitob hisobvaraqlarini, Mijozning Omonatlar hisobvaraqlarini, shu jumladan Korporativ kartaga xizmat ko'rsatish uchun ochilgan Hisob-kitob hisobvaraqlarini yopish uchun asos bo'ladi.
- 6.10.** Universal shartnomani bekor qilish uchun Mijoz Universal shartnomani bekor qilish to'g'risida Bankka Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali oddiy elektron xabar shaklida ariza yuboradi. Mijoz Universal shartnomani bekor qilish to'g'risida ariza yuborgan kuni, shuningdek, Mijozning vakolatli shaxsining elektron raqamli imzosini o'z ichiga olgan arizani, Bankda ochilgan barcha Hisob-kitob hisobvaraqlarini, Omonat hisobvaraqlarini yopish to'g'risida, shuningdek Korporativ kartalarga xizmat ko'rsatish uchun ochilgan Hisob-kitob hisobvaraqlarini yopish to'g'risida arizani Bankka yuboradi. Agar Bankda yuqoridagi arizalar Mijozdan kelib chiqmaganligi boraisda shubha tug'ilsa, Bank Mijozdan arizani Bankning ofisida qog'ozga yozilgan shaklda taqdim etishni so'rashga haqli, Mijoz esa taqdim etishi shart. Mijozning korporativ kartalari Bank tomonidan bloklanadi va bank Universal shartnomani bekor qilish to'g'risida ariza olgan sanada haqiqiy emas deb e'lon qilinadi.
- 6.11.** Mijozning oxirgi hisobvarag'i yopilgan paytdan boshlab Universal shartnomaning amal qilishi to'xtaydi. Agar Mijozning oxirgi hisobvarag'i yopilgunga qadar Universal shartnoma bo'yicha bank oldida to'lanmagan qarzdorligi bo'lsa, Universal shartnomaning amal qilish muddati Mijoz bunday qarzni to'liq to'laganidan keyin tugatiladi. Shartnoma bekor qilingan va/yoki joriy Hisob raqam yopilgan taqdirda, Mijozning xizmatlar uchun oldindan to'langan to'lovlari Bank tomonidan qaytarilmaydi.
- 6.12.** Quyidagi holatlarda Bank suddan tashqari bir tomonlama tartibda Universal shartnomani bekor qilishga haqli, unga Mijoz rozilik beradi:
- 6.12.1. jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini moliyalashtirish maqsadida Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalanilayotganligiga asosli shubhalar bo'lgan taqdirda. Bunday holda, Universal shartnoma Bank tomonidan Mijozga Bank tashabbusi bilan Universal shartnomani bekor qilish to'g'risida bildirishnoma yuborilgan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kundan keyin bekor qilingan deb hisoblanadi;
 - 6.12.2. 12 (o'n ikki) kalendar oy ichida Hisob-kitob hisobvarag'ida pul mablag'lari va/yoki Hisob-kitob hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar bo'lmasa va/yoki Tariflarga muvofiq muntazam to'lovlarni to'lash uchun hisobvaraqa mablag' yetarli bo'lmasa, Bank Universal shartnomani bekor qilishga haqli. Shunda, agar Mijoz yuqorida ko'rsatilgan muddatda Hisob-kitob hisobvarag'iga qarzni to'lash uchun yetarli miqdorda mablag' kiritmasa va/yoki Hisob-kitob hisobvarag'i bo'yicha kamida bitta operatsiyani bajarmasa, Bank tomonidan Mijozga Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali ogohlantirish yuborilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kundan keyin Universal shartnoma bekor qilingan deb hisoblanadi, Hisob-kitob hisobvarag'i esa yopilgan deb hisoblanadi;
 - 6.12.3. ushbu Universal shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan Ilovalarda ko'rsatilgan Umumiy shartlarda belgilangan boshqa hollarda.

7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 7.1.** Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Universal shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik (lozim darajada bajarmaganlik) uchun javob beradilar.
- 7.2.** Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bajarmaslik yengilmas kuch holatlarining natijasi bo'lsa, ya'ni Universal shartnoma kuchga kirgandan keyin yuzaga kelgan favqulodda va muqarrar holatlarda.

- Yengilmas kuch holatlarining ta'sirini Tomonlar vakolatlari organlarning hujjatlari bilan tasdiqlashi kerak. Yengilmas kuch holatlarining boshlanishi to'g'risida Tomonlar ushbu voqealar boshlanishidan 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay bir-birlarini xabardor qilish majburiyatini oladi.
- 7.3.** Yengilmas kuch holatlariga quyidagilar kiradi: Tomonlarning irodasi va harakatlardan holi bo'lgan, Tomonlar qabul qilingan majburiylarni bajara olmaydigan tabiiy hodisalar (zilzilalar, ko'chkilar, bo'ronlar, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, blokadalar, davlat manfaatlari uchun import va eksport taqiqlari va boshqalar) sababli yuzaga kelgan, favqulodda, muqarrar va ushbu sharoitlarda kutilmagan holatlar.
- 7.4.** Ushbu Universal shartnomaning 7-qismida ko'rsatilgan yengilmas kuch holatlari to'g'risida Bank o'z vaqtida yoki to'liq xabardor qilinmagan taqdirda, Mijoz ushbu holatlarning mumkin bo'lgan salbiy oqibatlari uchun javobgar bo'ladi.
- 7.5.** Bank Mijozning vakolatlanmagan shaxslari tomonidan berilgan topshiriqni bajarish natijasida Mijozgan yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi.
- 7.6.** Tomonlar API ma'lumotlarini uzatish va almashish kanallarining xavfsizligini, ma'lumotlarning xavfsizligi, yaxlitligi va ishonchlilagini, shuningdek Bank sirlari va mijozlarning shaxsiy ma'lumotlariga qat'iy rioya qilinishini ta'minlaydi.
- 7.7.** Agar Bankning korrespondent hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilmasa yoki ularning bajarilishi Bankning vakillik hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar bajarilishini ta'minlaydigan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Korrespondent banklar, To'lov tizimlari va shu kabilarning harakatlari (harakatsizligi) natijasida kechiktirilsa, Shartnoma bo'yicha Mijozning topshiriqlari o'z vaqtida bajarilmaganligi uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

8. NIZOLARNI HAL QILISH

- 8.1.** Mijoz va Bank o'rtasida Universal shartnomadan kelib chiqadigan yoki u (ular) bilan bog'liq bo'lgan barcha nizolar muzokaralar va da'vo xatlarini yuborish yo'li bilan hal qilinishi kerak. Agar Umumiyligi shartlarga muvofiq alohida Shartnomalarda boshqacha tartib va muddat belgilanmagan bo'lsa, da'vo xatini olgan tomon uni olgan kundan boshlab 7 (yetti) kun ichida asosli javobni yuborishi shart.
- 8.2.** Shartnomadan kelib chiqishi mumkin bo'lgan yoki u tufayli kelib chiqqan yoki vujudga kelgan, jumladan uni tuzish, o'zgartirish, bajarish, buzish, bekor qilish, to'xtatish, haqiqiy emas deb topish, tuzmaslik yoki (to'liq va/yoki qisman) ta'minlanishini talab etishga taalluqli nizolar, tortishuvlar, talablar yoki shikoyatlarni tinchlik yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lмаган taqdirda, da'vogarning ixtiyori bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida, yoki "CONSILIO" mas'uliyati cheklangan jamiyat qoshidagi Hakamlik sudida uning reglamenti va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etilishi kerak. Nizoni ko'rib chiqish sud Majlisi bayonnomasini tuzmasdan, rus tilida yakka tartibdagi hakamlik sudyasi tomonidan amalga oshiriladi. Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga yoki hakamlik sudiga murojaat qilish huquqi da'vogarda qoladi.
- 8.3.** Universal shartnomaning 8.2-bandida ko'rsatilganlarga qaramasdan, Mijoz O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda o'z huquqlari va manfaatlarini himoya qilish uchun har qanday suldarga murojaat qilishga haqli.

9. MAXFIYLIK

- 9.1.** Tomonlar ushbu Universal shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarni bajarish uchun har bir tomon uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni almashadilar. Ushbu Universal shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga tegishli bo'lgan, bir Tomon qonunlar bilan cheklangan kirish rejimi qo'llaniladigan boshqa Tomonga taqdim etadigan barcha ma'lumotlar, yoki ma'lumot uzatayotgan Tomon boshqa Tomonga bunday ma'lumotlarning maxfiyligi to'g'risida aniq xabar bergan ma'lumotlar maxfiy deb tan olinadi va mazkur bilan maxfiy ma'lumot deb belgilanadi ("Maxfiy ma'lumot").

- Maxfiy ma'lumotlarga, shu jumladan tijorat, kasbiy, rasmiy ma'lumotlarni tashkil etuvchi shaxsiy ma'lumotlar, shuningdek qonun hujjatlarida boshqa turdag'i sirlar deb belgilangan ma'lumotlar, buxgalterlik va moliyaviy ma'lumotlar, to'lov operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar, axborot, telekommunikatsiya va to'lov tizimlarini sozlash bo'yicha boshqaruv ma'lumotlari kiradi. Maxfiy ma'lumotlar unga ruxsatsiz kirishdan himoya qilinishi, uning yaxlitligi, xavfsizligi va o'z vaqtida taqdim etilishi ta'minlanishi kerak.
- 9.2.** Qabul qiluvchi tomon Maxfiy ma'lumotning yoki uning qismini oshkor qilganlik uchun, agar u bunday maxfiy ma'lumotlar (i) uni qabul qilish vaqtida ommaviy mulk hisoblanganligini yoki keyinchalik Qabul qiluvchi tomonning aybisiz shunday bo'lib qolganligini; (ii) Qabul qiluvchi tomonga ma'lum bo'lganligini yoki uni olgunga qadar uning tasarrufida bo'lganligini; (iii) Qabul qiluvchi tomonga Maxfiy ma'lumot saqlanishini ta'minlash bo'yicha majburiyatlar buzilishi mavjud bo'lmasligida Topshiruvchi tomon bo'lib hisoblanmagan manbadan ma'lum bo'lib qolganligini isbotlab bersa, javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
- 9.3.** Mazkur shartga muvofiq Maxfiy ma'lumotlarni olayotgan tomon ("Qabul qiluvchi tomon") bunday ma'lumotlarni taqdim etuvchi tomonning roziligini olmasdan ("Topshiruvchi tomon"), (i) mazkur shartlar bilan ko'zda tutilmagan maqsadlar uchun Maxfiy ma'lumotning biron bir qismini qo'llamaydi, (ii) ushbu shartda nazarda tutilgan maqsadlar uchun Maxfiy ma'lumotdan foydalanish huquqiga ega bo'lishi kerak bo'lga va Maxfiy ma'lumotning xavfsizligini ta'minlashga rozi bo'lga Qabul qiluvchi tomonning (shuningdek subpudratchilar) xodimlariga va maslahatchilariga tegishli bo'lman har qanday shaxs yoki tashkilotlarga, agar ular mazkur shart bo'yicha tomon hisoblangan taqdirda ham, Maxfiy ma'lumotlarni yoki uning bir qismini taqdim etmaydi, (iii) Maxfiy ma'lumotlarning noqonuniy qo'llanilishiga yo'l qo'ymaydi.
- 9.4.** Agar Qabul qiluvchi tomon qonun bo'yicha bunday Maxfiy Ma'lumotlar oshkor etilishini talab qiluvchi davlat hokimiyyati organlariga, qonunchilik bilan vakolatlangan vakillarga biron bir Maxfiy Ma'lumotlarni oshkor etishga majbur bo'lsa, bunday Tomon ushbu dalil haqida Topshiruvchi tomonni zudlik bilan yozma xabardor qilishga majbur. Bunda, Topshiruvchi tomonning o'rnatilgan tarzda xabardor etilishi holatida, mazkur band bilan muvofiqlikda Maxfiy Ma'lumotlarni oshkor etuvchi Qabul qiluvchi tomon o'zining Maxfiy Ma'lumotlarni oshkor etmaslik haqidagi majburiyatini buzmagan deb hisoblanadi. Bunday oshkor qilingan taqdirda, Qabul qiluvchi tomon Maxfiy ma'lumotlarni himoya qilishni ta'minlash uchun unga bog'liq bo'lga hamma narsani qilish majburiyatini oladi.
- 9.5.** Maxfiy ma'lumot Topshiruvchi tomonning mulki bo'lib qoladi, va oxirgini talabi bo'yicha mazkur shart bilan ko'zda tutilgan maqsadlar uchun u kerak bo'lmay qolgandan keyin, bunday Tomonga zudlik bilan qaytariladi yoki ushbu bo'limning shartiga muvofiq Qabul qiluvchi tomon taqdim etgan bunday Maxfiy ma'lumot Qabul qiluvchi tomon yoki biron bir boshqa tomon bilan qilingan barcha nusxalari bilan birgalikda yo'q qilinadi.

10. YAKUNIY QOIDALAR

- 10.1.** Mijoz tomonidan boshqa kredit tashkilotlaridan naqd pulsiz pul o'tkazmasi amalga oshirilgan taqdirda, ushbu mablag'larni qabul qilishda Bankning aybi bo'lman deb holda kechikishi bilan bog'liq barcha xatarlarni Mijoz o'z zimmasiga oladi. Shu bilan Mijoz Bank uchinchi shaxslardan pul mablag'larini qabul qilish vaqtini nazorat qilish yoki tartibga solish imkoniyatiga ega emasligini tushunadi va qabul qiladi.
- 10.2.** Universal shartnomani (Umumi shartlarga muvofiq alohida Sharhnomalarni) o'zgartirish yoki bekor qilish Mijozni va/yoki Bankni bunday o'zgartirish yoki bekor qilish paytigacha yuzaga kelgan Universal shartnomasi (Umumi shartlarga muvofiq alohida Sharhnomalar) bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.
- 10.3.** Universal shartnomasi (Umumi shartlarga muvofiq alohida Sharhnomalar) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq talqin qilinishi lozim. Agar Universal shartnomanining (Umumi shartlarga muvofiq alohida Sharhnomalarning) har qanday qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq noqonuniy,

haqiqiy emas deb topilsa yoki sud himoyasidan foydalanmayotgan bo'lsa, Universal shartnomaning (Umumi shartlarga muvofiq alohida Shartnomalarning) bunday qoidalari Bank va Mijoz o'rtaсидаги munosabatlarda qo'llanilmaydi.
Universal shartnomaning (Umumi shartlarga muvofiq alohida Shartnomalarning) qolgan qoidalari to'liq kuchini va amal qilishini saqlab qoladi.

11. BANK MANZILI VA REKVIZITLARI

"ANOR BANK" aksiyadorlik jamiyatি

Manzili (joylashish joyi): O'zbekiston Respublikasi, 100170, Toshkent shahri, Sayram 5-tor ko'chasi, 4-uy.

Ma'lumot uchun telefonlar (Bankning Aloqa markazi): (+998 55) 503-00-00

Ishonch telefoni: (+998 71) 205-82-23

Bankning Internet tarmog'idagi rasmiy sayti: www.anorbank.uz E-mail: info@anorbank.uz



"ANOR BANK" AJda

yuridik shaxslar
va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks
bank xizmatlari ko'rsatishning Universal
shartnomasiga 1-ilova

ARIZA

- yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish, hamda korporativ kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishning Umumiy shartlariga muvofiq **hisobvaraqlarini ochish uchun «ANOR BANK» AJda (keyingi o'rnlarda «Bank») yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga majmuaviy bank xizmatlarini ko'rsatishning Universal shartnomasiga qo'shilish to'g'risida.**

Mijozning nomi:

STIR:

Mazkur bilan Mijoz:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360, 367, 369 va 370-moddalarida ko'zda tutilgan tartibda «ANOR BANK» AJda yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga majmuaviy bank xizmatlarini ko'rsatishning Universal shartnomasiga (keyingi o'rnlarda "Universal shartnomma") qo'shilishi haqida BAYONOT BERADI,
- 2) Bankda amalda bo'lган Universal shartnomma tahririyatining barcha qoidalari/shartlari unga to'liq hajmda (shu jumladan ularga barcha ilovalar va qo'shimchalar, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi, ma'lumotlarni e'lon qilish tartibi, Bankning javobgarligi va Tariflari) ma'lum va tushuntirilganligini tasdiqlaydi, buning asosida:

1. Bankning Masofaviy bank xizmati (MBX) tizimiga ulanishni so'raydi;
2. Milliy/xorijiy valyutada talab qilib olinadigan asosiy/ikkilamchi depozit hisobvarag'ini, ish haqi loyihasi uchun tranzit hisobvarag'ini (**keraklisi chizilsin**) ochishni so'raydi;
3. Quyidagilar uchun bir martalik parol yordamida tasdiqlash vositasini ularshni so'raydi:
Rahbarning to'liq ismi _____ Ushbu tel.raqamiga SMS
Bosh buxgalterning to'liq ismi: _____ Ushbu tel.raqamiga SMS
4. Mijoz Bankning bank xizmatlari bo'yicha Komission mukofot tariflari bilan tanishligini va roziligini tasdiqlaydi.
5. Mazkur bilan Mijoz Bankka quyidagilarni taqdim etadi:
 - ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq Bankda ochilgan Mijozning hisobvarag'idan qo'shimcha buyruqlarsiz (akseptsiz) hisobdan chiqarish huquqini;
 - Mijoz tomonidan tanlangan bank/moliyaviy xizmatlarni taqdim etishda uning shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishslash, shuningdek ularni uchinchi shaxslarga ("YaUPM" MChJ, "Milliy banklararo protsessing markazi" MChJ, kredit tarixlar byurosi, DSQ, va ma'lumotlarni olish uchun Bankning va davlat organlari hamkorlarining boshqa integratsiya qilingan bazalari) topshirish va ular tomonidan qayta ishslash huquqini.
6. Mijoz MBX orqali Buyurtmanomalar yordamida qolgan bank xizmatlari/mahsulotlaridan foydalanishga/ularga ulanishga o'z roziligini tasdiqlaydi/beradi.

Rahbar _____ / _____ /
F.I.O. _____ imzo _____

Bosh buxgalter _____ / _____ /
M.O.: _____ F.I.O.: _____ imzo _____
(muhr mayjud bo 'lsa) _____ «____» 20 ____ y.

Bank belgilari:

IMZO NAMUNALARI VA MUHR IZI KARTOCHKASI BILAN SOLISHTIRILDI:

Arizalarni qabul qildi: _____ / _____ /
F.I.O. _____ imzo _____

Mijoz MBX tizimiga ulangan:

ABT-da sozlamalar qo'yib chiqildi: / /20 y. ISB xodimi _____ / _____ / /20 ____ y.
F.I.O. _____ imzo _____

**Yuridik shaxslar va yakka tartibdagи tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish,
shuningdek Korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishning**

UMUMIY SHARTLARI

Atamalar va ta'riflar

Avtorizatsiya- Bank tomonidan korporativ karta va/yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish uchun beriladigan ruxsat.

Valyuta operatsiyasi- chet el valyutasini sotib olish va sotish, chet el valyutasini to'lov vositasini sifatida ishlatalish, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda milliy valyutadan foydalanish, chet eldan olib kirish va chet elga olib chiqish, valyuta boyliklarini yuborish, shu jumladan norezident ishtirokidagi operatsiyalar bilan bog'liq operatsiyalar.

Egalik qiluvchi- Mijozning Bank tomonidan nomiga Karta chiqarilgan xodimi.

Kartochka - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan imzolar va muhr izlari namunalari tushirilgan karta.

Onlayn operatsiyalar- TT yoki Bank qoidalariga muvofiq to'g'ridan-to'g'ri avtorizatsiya vaqtida qayta ishlanadigan korporativ karta va/yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan operatsiyalar.

To'lov limiti - Hisob-kitob hisobvarag'i bo'yicha, shu jumladan Korporativ karta va/yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish uchun Egalik qiluvchiga erishimli bo'lган, Hisob-kitob hisobvarag'idagi pul qoldig'i summasiga teng bo'lган pul mablag'lari summasi, shu jumladan hisob-kitoblari hali Bank tomonidan tugallanmagan operatsiyalar summasini chegirgan holda foydalanilmagan Overdraft limiti.

Hisob-kitob davri- Hisob-kitob hisobvarag'i ochilgan kundan boshlab/Tarif rejasি o'zgargan kundan boshlab keyingi kalendar oyining xuddi shu sanagasicha bir kun chegirilgan holda belgilanadigan bir oyga teng xizmatlar ko'rsatish davri. Ulanadigan xizmatlari/paketlar uchun Hisob-kitob davrining dastlabki sanasi xizmat paketning ularish sanasi hisoblanadi. Tarif rejasи o'zgartirilganda, Tarif rejasini o'zgartirish sanasiga ulangan xizmatlar/paketlar uchun hisob-kitob davri Tarif rejasи o'zgartirilgan sanadan boshlab belgilanadi.

Operatsiyalar reyestri - Korporativ karta va/yoki uning rekvizitlaridan foydalanib yoki to'lov hujjati bo'yicha ma'lum davr uchun reyestrni ilova qilgan holda amalga oshiriladigan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjat yoki hujjatlar to'plami.

I. Umumiy qoidalar

1.1. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagи tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatishning ushbu Umumiy shartlari, shuningdek Korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish (bundan buyon matnda "umumiy shartlar" deb yuritiladi) Bank tomonidan belgilanadi va

- Mijozlarning Hisob-kitob hisobvaraqlarini ochish, yuritish va yopish tartibini belgilaydi, shu tufayli Mijoz va Bank o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi (bundan buyon birgalikda zikr qilinishida "Tomonlar" deb yuritiladi), shuningdek Korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish tartibini tartibga soladi. Hisobvaraq ochish uchun Bank tomonidan qabul qilingan ariza bilan birgalikda Umumiy shartlar **Hisob-kitob xizmati shartnomasini** tuzadi.
- 1.2. Bank O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlariga va Universal shartnoma shartlariga muvofiq Mijozlarga xizmat ko'rsatadi va Kartalarga xizmat ko'rsatadi.
- 1.3. Mijozga xizmat ko'rsatish majburiyati Bankda hisob-kitob xizmati Shartnomasi tuzilgan paytdan boshlab paydo bo'ladi.
- 1.4. Bank Mijozga Bank shaklida tuzilgan va Mijoz tomonidan Internet-bank/Mobil bankdagi shaxsiy kabinet funksionali yoki boshqa Masofaviy xizmat ko'rsatish kanali orqali yuborilgan tegishli ariza asosida, shu jumladan Bankka barcha zarur hujjatlarni taqdim etish sharti bilan Mijoz Universal shartnomaga qo'shilgan paytda Hisob-kitob hisobvarag'ini ochishi mumkin.
- 1.5. Mijoz Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali Bank bilan kelishilgan holda Tarif rejasini o'zgartirish imkoniyatiga ega. Tarif rejasini o'zgartirishda, oldingi Tarif rejasining shartlari yangi Tarif rejasiga o'tkazilmaydi, ko'zda tutilgan xizmatlar/paketlar yangi Tarif rejasiga muvofiq haq undirilgan holda yangi Tarif rejasini asosida taqdim etildi.
Xizmatlar/paketlar uchun to'lov joriy Tarif rejasiga nisbatan kamroq bo'lgan Tarif rejasiga o'tishda, shuningdek amaldagi Tarif rejasiga nisbatan kattaroq to'lovga (shu jumladan xizmat haqiga) ega bo'lgan Tarif rejasiga o'tishda yangi Tarif rejasini bo'yicha to'lov Tarif rejasini o'zgartirishdan oldin amalda bo'lgan Tarif rejasini bo'yicha tegishli to'lovni chegirmsandan olinadi. Oldingi tarif rejasini bo'yicha 12 (o'n ikki) Hisob-kitob davri uchun xizmatlar/paketlar to'langan taqdirda, yangi Tarif rejasiga muvofiq xizmat/paket uchun to'lov Tarif rejasini o'zgartirilgan kundan boshlab belgilangan 12 (o'n ikki) Hisob-kitob davri uchun olinadi. Xizmat haqi joriy tarif rejasiga qaraganda kamroq bo'lgan Tarif rejasiga o'tishda xizmat haqining farqi qaytarilmaydi. Tarif rejasini bir kalendar oyiga belgilanadi va kalendar oyi o'tgandan keyin Mijoz avtomatik ravishda Bankdagi xizmatlarning "standart shartlari"ga o'tkaziladi. Kalendar oyi tugaganidan so'ng, Mijoz keyingi kalendar oyi boshida Bankning amaldagi Tarif rejalaridan birini tanlash imkoniyatiga ega.
- 1.6. Topshiriqnomalarni Bank Mijozdan elektron shaklda Mijozning shaxsiy kabinetining Internet-bank/Mobil bankdagi funksionali orqali qabul qiladi. Mijozning Topshiriqnomalarida Mijozning ERIsi bo'lishi shart.
- 1.7. Internet-bank/Mobil bankda Mijozning shaxsiy kabinetining funksionali orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlarida nazarda tutilgan hisob-kitoblarga yo'l qo'yiladi.
- 1.8. Mijozlarga xizmat ko'rsatish Operatsion kun davomida amalga oshiriladi.
- 1.9. Topshiriqnomalarni qaytarib olish Mijozning Bank shakli bo'yicha tuzilgan va Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali Bankka yuborilgan arizasi asosida amalga oshiriladi. Buyurtmanomani bekor qilish to'g'risidagi arizada Mijozning ERIsi bo'lishi yoki autentifikatsiya ma'lumotlari bilan tasdiqlanishi kerak.
- 1.10. Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali amalga oshiriladigan har qanday harakatlar faqat Mijoz tegishli vakolatlarni bergen shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.
- 1.11. Ushbu hisob-kitob xizmati Shartnomasi joriy Hisob-kitob davrining oxirgi kunigacha tuziladi. Agar Tomonlarning hech biri Shartnomani uzaytirishni rad etmasa, Shartnoma har bir keyingi Hisob-kitob davriga uzaytiriladi. Uzaytirish bir necha bor amalga oshirilishi mumkin.
- 1.12. Bank Hisob-kitob hisobvarag'ida amalga oshirilayotgan operatsiyada Mijozning roziligesiz pul o'tkazish belgilarini aniqlangda Hisob-kitob hisobvarag'ida operatsiya o'tkazilishini va/yoki Mijoz tomonidan Karta va/yoki Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalanishni 2 (ikki) ish kunidan ko'p bo'lмаган muddatga to'xtatib turish huquqiga ega, shuningdek Bank uchun erishimli bo'lgan har qanday usulda, shu jumladan Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali darhol Mijozdan uning buyrug'ining ijrosi tiklanishini tasdiqlashni so'raydi. Bank ushbu bandda nazarda tutilgan muddat tugaganidan keyin yoki Mijozdan ko'rsatilgan tasdiqni olgandan keyin Mijozning

buyrug'ini bajarishni va/yoki Mijoz karta va/yoki Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalanishini tiklaydi.

- 1.13.** Bank Mijoz tomonidan noaniq, to'liq bo'lmanan yoki noto'g'ri rasmiylashtirilgan hujjatlar natijasida yuzaga kelgan kechikishlar, xatolar, hujjatlarni noto'g'ri tushunish uchun javobgar bo'lmaydi.

II. Hisob-kitob hisobvarag'ini ochish va yuritish

- 2.1.** Hisob-kitob hisobvarag'ini ochish va yuritish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, shuningdek Hisob-kitob xizmati ko'rsatish shartnomasi shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.
- 2.2.** Bank bank hisobvarag'i, hisobvaraqlar operatsiyalari va Mijoz to'g'risidagi ma'lumotlarni sir saqlashi shart. Mijozning operatsiyalari va Hisob-kitob hisobvaraqlari bo'yicha uchinchi shaxslarga ma'lumotlar, shuningdek Mijoz to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan Mijoz tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlar, Mijozning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar faqat O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda taqdim etilishi mumkin.
- 2.3.** Bank quyidagi shartlarda Mijozga Hisob-kitob hisobvarag'ini ochadi:
- Mijoz Bank tomonidan Mijozning hujjatlariga qo'yilgan talablarni bajarganda;
 - Bankda vakolatli davlat organlari va boshqa organlarning Hisob-kitob hisobvarag'ini ochishga to'sqinlik qiluvchi joriy qarorlari bo'limganda.
- 2.4.** Hisob-kitob hisobvarag'i Bank tomonidan Mijozning arizasida nazarda tutilgan valyutada va Mijoz tanlagan tarif rejasiga muvofiq ochiladi.
- 2.5.** Mijoz nomidan, shu jumladan Bank tomonidan tan olingan ERI yordamida Hisob-kitob hisobvarag'ini tasarruf etish bo'yicha harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning vakolatlari, bunday vakolatlarni uzaytirish kabi, Bankka bunday shaxslarning vakolatlarini (vakolatlarini uzaytirishni) tasdiqlovchi barcha zarur hujjatlarni taqdim etish orqali tasdiqlanadi.
- 2.6.** Mijoz nomidan Hisob-kitob hisobvarag'ini tasarruf etish bo'yicha harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning vakolatlarini (vakolatlarini uzaytirishini) tasdiqlovchi hujjatlar, shu jumladan Karta (bankning so'roviga binoan) Mijoz tomonidan Universal shartnomaga qo'shilish va hisobvaraqlarini ochish to'g'risidagi Arizalar Bankka yuborilgan paytda taqdim etilishi kerak.
- 2.7.** Mijoz Hisob-kitob hisobvarag'ida mavjud bo'lgan pul mablag'lari qoldig'i doirasida pul mablag'larini cheklarsiz tasarruf etadi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan Hisob-kitob hisobvaraqdagi pul mablag'larini tasarruf etish bo'yicha chekash choralar qo'llanilgan hollar bundan mustasno.
- 2.8.** Mijozning topshiriqlari, shuningdek boshqa shaxslarning farmoyishlari bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va ketma-ketlikda bajariladi.
- 2.9.** Operatsiya kuni davomida Bankka kelib tushgan Mijozning topshiriqlari va boshqa shaxslarning farmoyishlari Bank tomonidan ijroga joriy ish kunida qabul qilinadi, Operatsiya kuni tugaganidan keyin kelib tushgan buyurtmalar esa Bank tomonidan keyingi ish kuni/Operatsiya kuni ijro etish uchun qabul qilinadi.
- 2.10.** Hisob-kitob hisobvarag'iga pul mablag'larini kiritish Bank tomonidan belgilangan tartibda, bankka pul tushgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.
- 2.11.** Agar Bankka kelib tushgan hujjatlardan Mijoz pul mablag'larini oluvchi sifatida aniq belgilanishi mumkin bo'lmasa (masalan, hujjatda Mijozning nomi, Hisob-kitob hisobvarag'ining raqami va boshqalarning xato yoki noto'g'ri ko'rsatilishi), pul mablag'lari Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking normativ hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda pul mablag'larini oluvchini aniqlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilgandan so'ng Hisob-kitob hisobvarag'iga o'tkaziladi.

- 2.12. Operatsiyalarni aks ettirish Hisob-kitob hisobvarag“ining valyutasida amalga oshiriladi.
- 2.13. Hisob-kitob hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari qoldig‘i bo'yicha foizlarni hisoblash, agar Tarif rejasida nazarda tutilgan bo'lsa, Umumiy shartlarga 1-ilovaga muvofiq ariza berish orqali Mijozning roziliqi bilan amalga oshiriladi.
- 2.13.1. Hisob-kitob hisobvarag‘idagi naqd pul qoldig‘iga foizlarni hisoblash minimal miqdorni cheklamasdan amalga oshiriladi;
- 2.13.2. Bank Universal shartnomaning ajralmas qismi bo‘lgan Foizlarni hisoblash shartnomasining shartlarida nazarda tutilgan shartlarda va tartiblarda pul mablag‘larini qabul qiladi va mablag‘larni qaytarish va ular bo'yicha foizlarni to'lash majburiyatini oladi.
Foizlarni hisoblash shartnomasi shartlarida nomi, turi, valyutasi, muddati va foiz stavkasi, foizlarni to'lash tartibi, Shartnomani muddatidan oldin yopish shartlari va boshqa shartlar ko'ssatiladi.
- 2.13.3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 764-moddasiga muvofiq foizlarni hisoblash Bankning Hisob-kitob hisobvarag‘i bo'yicha Tariflariga muvofiq amalga oshiriladi - aslida Mijozning Bankdagi Hisob-kitob hisobvarag‘ida bo‘lgan pul mablag‘lari summasiga.
Bunday holda, foizlarni hisoblash haqiqiy kunlar soni va 365 kundan iborat kalendar yili asosida amalga oshiriladi.
- 2.13.4. Foizlarni to'lash har oyda (har 25-sanada) foizlarni Mijozning Hisob-kitob hisobvarag‘iga o'tkazish yo'l bilan amalga oshiriladi.
- 2.13.5. Agar foizlarni to'lash kuni dam olish yoki bayram kuniga to'g'ri kelsa, foizlarni to'lash dam olish kunlaridan keyingi birinchi ish kuniga o'tkaziladi.
- 2.13.6. Foizlarni hisoblashdan olingan daromadlarni soliqqa tortish O‘zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi.
- 2.13.7. Mijozning hisobvaraqlarida turgan pul mablag‘lari hibsga olingan yoki O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda Mijozning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar to'xtatilgan taqdirda foizlarni hisoblash cheklovlar olib tashlangan paytgacha to'xtatiladi.
- 2.13.8. Foizlarni hisoblash xizmati shartlari to'g'risidagi ma'lumotlar Tankning rasmiy saytida quyidagi manzilda joylashtiriladi: www.anorbank.uz.

III. Korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish tartibi

- 3.1. Korporativ kartani chiqarish uchun (bundan buyon matnda Karta deb yuritiladi) Mijoz Bankka Umumiy shartlardagi 2-ilovaga muvofiq Bank shaklida Korporativ kartani chiqarish/qayta chiqarish uchun ariza beradi.
- 3.2. Bank Mijozga Kartani Bank va To'lov tizimi qoidalariга muvofiq tegishli ravishda rasmiylashtirilgan hujjatlar to'plamini taqdim etgan holda chiqarishi mumkin.
- 3.3. Karta Bankning mulki hisoblanadi. Kartani chiqarish tartibi va uning amal qilish muddati Bankning ichki hujjatlari bilan belgilanadi.
- 3.4. Karta raqami Bank yoki To'lov tizimi tomonidan belgilanadi.
- 3.5. Karta kartaning old tomonida ko'rsatilgan yildagi kalendar oyining oxirgi kunigacha amal qiladi. Karta amal qilish muddatining tugashi Universal/Hisob-kitob hisobvarag‘i shartnomasining bekor qilinishiga olib kelmaydi.
- 3.6. Amal qilish muddati tugagandan so'ng, Karta Bankning xohishiga ko'ra yangi muddatga qayta chiqarish uchun ariza (Umumiy shartlarga 2-ilova) taqdim etish orqali yangi muddatga chiqariladi.
- 3.7. Kartani muddatidan oldin qayta chiqarish yo'qotilgan/o'g'irlangan, buzilgan, ruxsatsiz foydalananligan, egasining ismi va/yoki familiyasi o'zgartirilgan hollarda Mijozning Bankka Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali yuborilgan yozma arizasi asosida amalga oshiriladi.
- 3.8. Karta qabul qilish va topshirish dalolatnomasi bo'yicha (ushbu Umumiy shartlarga 3-ilova) faollashtirilgan holda Mijozning vakolatli vakiliga shaxsan yoki Kartani Mijozning vakolatli vakili shaxsan olganligini aniq belgilashga imkon beradigan boshqa yo'l bilan beriladi.
- 3.9. Kartadan foydalangan holda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlarida va Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan operatsiyalar amalga oshiriladi.
- 3.10. Kartadan ish haqi va boshqa ijtimoiy to'lovlarni to'lash, naqd pul olish va hokazolar uchun

- foydalinish taqiqlanadi.
- 3.11.** Karta va/yoki uning rekvizitlari yordamida operatsiyani amalga oshirish sanasi uning Bank tomonidan qayta ishlangan sanasiga to'g'ri kelmasligi mumkin. Komissiyalar Tarif rejasiga muvofiq, joriy Hisob-kitob davrida qayta ishlanib bo'lingan operatsiyalarni hisobga olgan holda Bank tomonidan operatsiyani qayta ishlash vaqtida hisoblanadi.
- 3.12.** Kartadan operatsiyalarni amalga oshirishda Egalik qiluvchini Autentifikatsiya qilish maqsadida Egalik qiluvchiga PIN-kod beriladi. PIN-kod Egalik qiluvchining qo'lida qo'yilgan imzosining analogi hisoblanadi, Mijoz/Egalik qiluvchi Karta va to'g'ri PIN-koddan foydalinish Karta Egasining to'g'ri va yetarli autentifikatsiyasi ekanligiga rozi bo'ladi.
- 3.13.** Egasi bo'limgan shaxs tomonidan Karta va/yoki uning rekvizitlaridan foydalinish taqiqlanadi.
- 3.14.** Karta va/yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish uchun Bank Tarif rejasiga muvofiq haq oladi.
- 3.15.** Mijoz Karta Egasini ushbu Umumiy shartlar va Tariflar bilan tanishtirish va Kartadan foydalangan holda Bankka qilingan barcha xarajatlarni to'lash majburiyatini oladi.
- 3.16.** Bank 18 yoshga to'limgan shaxslar nomiga Kartani chiqarmaydi, emansipatsiya hollari bundan mustasno.
- 3.17.** Mijoz Karta bo'yicha amalga oshiriladigan barcha operatsiyalarni nazorat qilishi shart, buning uchun Mijoz karta operatsiyalari va/yoki karta va/yoki uning rekvizitlari bilan bog'liq barcha to'lov hujjatlarini saqlashi va bahsli masalalar yuzaga kelganda ularni Bank talabiga binoan taqdim etishi shart.

IV. Komprometatsiya

- 4.1.** Agar Karta yo'qolgan, o'g'irlangan yoki buzilgan bo'lsa va/yoki Karta yoki uning rekvizitlari, shuningdek PIN-kod, Autentifikatsiya ma'lumotlari yo'qolgan yoki o'g'irlangan bo'lishi mumkin degan shubha tug'ilsa va Karta har qanday savdo va xizmat ko'rsatish korxonasida olib qo'yilgan bo'lsa va Egasining ismi yoki familiyasi o'zgargan bo'lsa, Mijoz darhol Bankni xabardor qilishi, shu jumladan +998 55 503-00-00 (tunu-kun) telefonlari orqali va Kartani va/yoki Internet-bankni va/yoki Mobil bankni blokirovka qilishi, shuningdek Kartani muddatidan oldin qayta chiqarish to'g'risida ariza berishi shart. Aloqa markazi orqali og'zaki ariza berilgandanda, Bank faqat Kartani va/yoki Internet-bankni va/yoki Mobil bankni blokirovka qilish choralarini ko'radi.
- 4.2.** Agar ilgari yo'qolgan deb e'lon qilingan Karta topilsa, egasi uni Bankka qaytarishi shart. Kelajakda ushbu Kartadan foydalinish taqiqlanadi.
- 4.3.** Agar karta yoki uning rekvizitlari yoki Internet-bank, Mobil bank Mijoz/Egalik qiluvchining roziligidan keyin darhol, lekin amalga oshirilgan operatsiya to'g'risida Bankdan xabarnoma olingan kunning keyingi kunidan kechiktirmay, barcha kerakli hujjatlarni ilova qilib buyurtma pochta (topshirilganligi to'g'risida xabar berish va ilovalarning xatlovi bilan) yoki kuryerlik xizmati orqali Bankka yozma ravishda xabarnoma yuborishi shart.

V. Ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish va sotish tartibi

- 5.1.** Chet el valyutasini sotib olish/sotish uchun Buyurtmanomalar (keyingi o'rinnarda "Buyurtmanoma" deb yuritiladi) Mijozlar tomonidan O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalariga muvofiq (O'R AVda 31.08.2020-yilda 3281-sun bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) Bank tomonidan belgilangan shaklda MBX kanallari orqali taqdim etiladi. Buyurtmanomadagi nomuvofiqliklar (xatolar) Bank tomonidan operatsiyani rad etish uchun asos bo'lishi mumkin.
- 5.2.** Oddiy tartibda ko'rib chiqiladigan buyurtmanomalar:
- Bankka ish kunida 13:00 gacha taqdim etilgan buyurtmanomalar Bank tomonidan keyingi ish kunida ko'rib chiqiladi;
 - 13:00 dan keyin Bankka taqdim etilgan buyurtmanomalar Bank tomonidan Buyurtmanoma

berilgan kundan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida ko'rib chiqiladi.

- 5.3. Tezkor tartibda ko'rib chiqiladigan buyurtmanomalar:
- soat 13-00 gacha taqdim etilganlar Bankka kelib tushgan kuni ko'rib chiqiladi;
 - soat 13-00 dan keyin Bankka taqdim etilganlar Bankka Buyurtmanoma kelib tushganidan keyingi Bank kunida ko'rib chiqiladi.
- 5.4. Mijoz bankka Buyurtmanoma berish orqali chet el valyutasini sotib olish/sotish bo'yicha bitim tuzilgan paytda tegishli hisobvaraqa arizada ko'rsatilgan operatsiyani bajarish uchun yetarli miqdordagi mablag' mavjudligini tasdiqlaydi.
- 5.5. O'zRVB-da belgilangan kurs Mijozning Buyurtmanomasida ko'rsatilgan minimal sotish/maksimal sotib olish kursi doirasida bo'limguncha, ariza qoniqtirilmaydi. Mijoz Buyurtmanomani bekor qilish va Bankka valyutani minimal sotish/maksimal sotib olish kursining yangi chegarasi bilan yangi Buyurtmanoma berish orqali minimal sotish/maksimal sotib olish kursi hajmini o'zgartirishga haqli.
- 5.6. Komissiya to'lovi Tarif rejasiga muvofiq Mijozdan akseptsiz tartibda undiriladi.
- 5.7. Konvertatsiya qilingan valyuta mablag'lari xorijiy valyutani sotib olish uchun Buyurtmanoma berishdan oldin ochilishi kerak bo'lgan 22614 (balans hisobvarag'i raqami) maxsus valyuta hisobvarag'iga o'tkaziladi. Maxsus valyuta hisobvaraqlariga kiritilgan mablag'lar Mijoz tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq tuzilgan shartnomalar va boshqa hujjatlarga muvofiq qat'iy belgilangan maqsadda foydalaniladi.
- 5.8. Mijoz tomonidan sotib olingan, Mijozning maxsus valyuta hisobvarag'iga kiritilgan kundan boshlab yetti bank kuni ichida foydalanilmagan valyuta mablag'lari, ushbu muddat tugaganidan keyingi keyingi bank kunidan kechiktirmay yana Bankka sotilishi kerak.
- 5.9. Ilgari maxsus valyuta hisobvarag'idan hisobdan chiqarilgan va foydalanilmagan, shuningdek boshqa sabablarga ko'ra qaytarilgan chet el valyutasi uch bank kuni ichida Bankka qayta sotilishi yoki Buyurtmanomada ko'rsatilgan maqsadlarga qayta o'tkazilishi kerak. Shu bilan birga, chet el valyutasini qayta sotish savdo kuni uchun O'zRVB kursi bo'yicha oldindan akseptlanmasdan amalga oshiriladi.
- 5.10. O'zR AV tomonidan 23.05.2017 yili 2886-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga" muvofiq, shuningdek, Eron, Shimoliy Koreya va boshqa davlatlarga qarshi qo'yilgan iqtisodiy sanksiyalarni hisobga olgan holda, Bank kelib tushgan so'rovlarga muvofiq, mijozlardan qo'shimcha hujjatlarni so'rashga haqli.
- 5.11. Bank chet el banklari tomonidan talab qilingan qo'shimcha hujjatlarni ko'rib chiqish davri uchun javobgar bo'lmaydi.

VI. Tomonlarning huquq va majburiyatları

- 6.1. **Bank quyidagi huquqlarga ega:**
- 6.1.1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida hamda Bankning ichki qoidalari va normativ hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda Hisob-kitob hisobvarag'ini ochishdan bosh tortish;
- 6.1.2. Mijozga/Egalik qiluvchiga Kartani chiqarishni, uni faollashtirishni va/yoki almashtirishni rad etish, Mijozga va/yoki bitta Egalik qiluvchining nomiga chiqariladigan Kartalar sonini cheklash, shuningdek, Mijozning kartadan foydalanishni buzganligi va Kartadan foydalanish shartlariga zid bo'lgan operatsiyalarni amalga oshirganligi/amalga oshirishga uringanligi to'g'risida taxmin qilish uchun obyektiv sabablar mavjud bo'lganda Kartaning amal qilishini to'xtatib turish/to'xtatish;
- 6.1.3. Mijoz bilan kelishilgan holda Mijozga Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali Hisob-kitob hisobvarag'i/Karta bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun to'lov limitini belgilash;
- 6.1.4. Mijozga/Egalik qiluvchiga operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish /uning Hisob-kitob hisobvarag'ida o'tkazilishini cheklash va/yoki Mijozni (Egalik qiluvchini) oldindan

ogohlantirmasdan Karta, Internet-bank, Mobil bank faoliyatini blokirovka qilish, shuningdek Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali operatsiyalar o'tkazilishiga cheklovlar qo'yish, agar:

- operatsiya summasi to'lov limitidan oshsa, shu jumladan ushbu operatsiya uchun Bank tomonidan undiriladigan komissiya to'lovini hisobga olgan holda;
- Bankka operatsiya o'tkazish uchun zarur bo'lgan va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjat kelib tushmasa;
- Topshiriqnomalar Mijozdan yoki Mijozning vakilidan yoki Karta Egasidan kelib tushganligiga Bank shubha qilsa;
- operatsiya O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga yoki ushbu Umumi shartlarga zid bo'lsa;
- amalga oshirilayotgan operatsiya Mijoz/Mijoz vakili/Egalik qiluvchi tomonidan noqonuniy tadbirkorlik faoliyati olib borilishi bilan bog'liq degan shubha Bankda paydo bo'lsa;
- Mijozning Hisob-kitob hisobvarag'i/Kartadagi pul mablag'larini tasarruf etish huquqi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida, Universal shartnomada va mazkur umumi shartlarda nazarda tutilgan tartibda va hollarda cheklansa;
- Mijoz/Egalik qiluvchi Universal shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni, ushbu Umumi shartlarni bajarmagan taqdirda, shu jumladan Mijoz/Egalik qiluvchi Universal shartnomada va/yoki Bank so'rovida belgilangan muddatlarda ma'lumot/hujjatlar/tushuntirishlarni taqdim etmagan taqdirda;
- Hisob-kitob hisobvarag'i/Korporativ kartadan ruxsatsiz foydalanishga shubha bo'lgan taqdirda;
- Bank tomonidan Mijozning rozilgisiz pul o'tkazmalarini amalga oshirish belgilariga mos keladigan operatsiyalar aniqlanganda;
- Universal shartnomada va Bankning ichki qoidalarida belgilangan boshqa hollarda.

- 6.1.5. Mijozdan olingen tegishli topshiriq asosida Mijoz nomidan hisob-kitob hujjatlarini tuzish;
- 6.1.6. Mijozning yozma arizasi va zarur hujjatlar olingen kundan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha 30 (o'ttiz) kun ichida operatsiyalarga nisbatan e'tirozlar bo'yicha da'volarini ko'rib chiqish;
- Agar da'vo quyidagi tartibda taqdim etilsa, uni ko'rib chiqishni rad etish:
- Bank xabarnoma yuborgan kundan boshlab 1 (bir) kun tugaganidan keyin amalga oshirilgan operatsiyaga;
 - hisob-kitob qilingan (hisobdan chiqarilgan) kundan boshlab 3 (uch) yil tugaganidan keyin Bank tomonidan hisoblangan komissiya (mukofot, jarima)ga;
- 6.1.7. Mijozdan pul mablag'lari bilan operatsiyalar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni va amalga oshirilayotgan operatsiyalarning tabiatи Hisob-kitob hisobvarag'i rejimiga mosligini tasdiqlovchi yozma tushuntirishlarni so'rash;
- 6.1.8. Mijozning operatsiyani amalga oshirish to'g'risidagi buyrug'ini bajarishdan bosh tortish, operatsiya to'g'risidagi axborotni qayd etish uchun zarur bo'lgan hujjatlar taqdim etilmagan (Hisob-kitob xizmati shartnomasida yoki Bank so'rovida belgilangan muddatda) Mijozning Hisob-kitob hisobvarag'iga tushgan pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha operatsiyalar, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida Bank ichki nazorati

qidalarida nazarda tutilgan hollar va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Agar pul o'tkazish (yoki operatsiya o'tkazish) vaqtida texnik imkoniyat bo'lmasa yoki Mijozning pul mablag'lariga uchinchi shaxslarning ruxsatsiz kirishiga shubha qilish uchun asos bo'lsa, Mijozga Hisob-kitob hisobvarag'idan pul mablag'larini o'tkazishni rad etish;

- 6.1.9. to'lov topshirig'i, SWIFT-xabarlar rekvizitlarida nomuvofiqliklar mavjud bo'lsa, Bankning vakillik hisobvarag'iga tushgan summalarini Mijozning Hisob-kitob hisobvarag'iga o'tkazmaslik;
- 6.1.10. to'lov hujjatlari tafsilotlariga shubha tug'ilganda, Mijozning Hisob-kitob hisobvarag'iga mablag' o'tkazmaslik;
- 6.1.11. asoslovchi hujjatlar, valyuta nazorati hujjatlari taqdim etilmagan yoki lozim darajada rasmiylashtirilmagan hujjatlar taqdim etilgan taqdirda Valyuta operatsiyasini o'tkazishni rad etish. Soliq yoki boshqa vakolatli organning taqdimnomasini bajarish uchun Mijozning roziliginisiz O'zRVBga valyuta mablag'larini sotish kunidagi kurs bo'yicha budget yoki boshqa organ oldidagi qarzni to'lash uchun zarur bo'lgan hajmlarda sotish va budget yoki boshqa organ bilan keyingi hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun pul ekvivalentini Mijozning talab qilib olinguncha depozit hisob raqamiga o'tkazish.

Zarur bo'lganda, Mijozdan Bank tomonidan valyutani sotib olish asoslarini (maqsadli foydalanishni) tasdiqlash uchun zarur deb belgilanadigan har qanday hujjatlarni qo'shimcha ravishda taqdim etishni talab qilish.

Valyutani sotib olish yoki sotish bo'yicha operatsiyani ularning qonuniyligi aniqlangunga qadar kechiktirish, agar ularni amalga oshirish asoslari shubha tug'dirsa.

- 6.1.12. Hisob-kitob xizmati ko'rsatishning ushbu Shartnomasida belgilangan hollarda Bank tomonidan pul mablag'larini hisobdan chiqarish uchun hisobvaraqa pul mablag'lari yetarli bo'limgan taqdirda, Mijoz bankka qo'shimcha farmoyishlarsiz ko'rsatib o'tilgan pul mablag'larini Mijozning boshqa hisobvaraqlaridan milliy valyutada hisobdan chiqarish huquqini beradi. Agar Mijozning hisobvaraqlaridan majburiyat belgilangan valyutadan boshqa valyutada pul mablag'larini hisobdan chiqarish zarur bo'lsa, Mijoz Bankka Bankdagi hisobvaraqlarida joylashtirilgan valyutani operatsiya amalga oshirilgan sanada konversiya operatsiyalarini amalga oshirish uchun Bank tomonidan Shartnomaga muvofiq qarzdorlikni so'ndirish hisobiga belgilangan kurs va shartlarda konvertatsiya qilish topshirig'ini taqdim etadi.

6.2. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- 6.2.1. Mijozga Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali ma'lumot berish yo'li bilan Hisob-kitob xizmati shartnomasi bo'yicha har bir operatsiya to'g'risida xabar berish;
- 6.2.2. Mijozning (Egalik qiluvchining) arizasi olingandan so'ng, Korporativ karta va/yoki PIN-kod va/yoki Abonent qurilmasi yo'qolganligi sababli yoki PIN-kod va/yoki Korporativ karta tafsilotlari va/yoki kirish kodlari va/yoki Autentifikatsiya ma'lumotlari uchinchi shaxsga ma'lum bo'lganligi sababli Korporativ kartani va/yoki Internet-bankni va/yoki Mobil bankni blokirovka qilish;
- 6.2.3. Hisob-kitob hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq ushbu umumi shartlarda belgilangan muddatlarda va tartibda o'tkazish;
- 6.2.4. pul mablag'lari kelib tushganidan keyingi ish kunidan kechiktirmay chet el valyutasidagi tushumlarning tranzit valyuta hisobvaraqlariga o'tkazilganligi to'g'risida Mijozni Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali xabardor qilish;
- 6.2.5. ushbu umumi shartlarning 1.13-bandiga binoan Mijozni Bank tomonidan amalga oshirilgan harakatlar to'g'risida Bank uchun erishimli bo'lgan har qanday usulda, shu jumladan Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali xabardor qilish;
- 6.2.6. Mijozga tavsiyalarni Universal shartnomada belgilangan tartibda joylashtirish orqali Mijozning roziliginisiz pul o'tkazmalarini qayta amalga oshirish xavfini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar berish.

6.3. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

- 6.3.1. Universal shartnomada shartlariga qo'shilgandan so'ng istalgan vaqtida Bankka Internet-bank/Mobil bankda yoki tizimning boshqa kanalidagi Mijozning shaxsiy kabinetining funksional imkoniyatlari orqali zarur Hisob-kitob hisobvaraqlarini ochish uchun Buyurtmanoma yuborish;
- 6.3.2. istalgan vaqtida ushbu Umumi shartlarga qo'shilishni rad etish. Bunday holda, Mijoz tegishli arizani yozma ravishda yoki Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali Bankka topshirishi,

shuningdek ushbu ariza topshirilgan kuni Bankka barcha Korporativ kartalarni qaytarishi va Bankka Hisob-kitob xizmati shartnomasi bo'yicha qarzdor bo'lgan barcha summalarini to'lashi shart;

- 6.3.3. Bank tomonidan qabul qilingan topshiriqlar bajarilgunga qadar ularni qaytarib olishi shart.

Mijozning majburiyatları:

- 6.4.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki normativ hujjatlarining talablariga binoan, jumladan, Internet-bankda/Mobil bankda yoki boshqa Masofaviy xizmat ko'rsatish kanalida Mijozni identifikatsiyalash maqsadida taqdim etiladigan, Bank tomonidan tan olingan ERI yordamida Mijoz nomidan Hisob-kitob hisobvarag'i bo'yicha tasarruf etish harakatlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan ma'lumotlar o'zgarganligi to'g'risida Bankni xabardor qilish, shuningdek ko'rsatilgan ma'lumotlarning o'zgarganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (asli/kerakli tarzda tasdiqlangan nusxalari yoki Hisob-kitob shartnomasiga muvofiq boshqacha usulda) ular tasdiqlangan (berilgan yoki ro'yxatga olingan) kundan boshlab 3 (uch) ish kunidan kechiktirmsandan taqdim etish. Mijoz tomonidan ko'rsatilgan shaxslarda tegishli vakolatlar borligini tasdiqlovchi hujjatlarni Bankka taqdim etilgunga qadar Bank vakolatlari Bank tomonidan tasdiqlanmagan shaxslar tomonidan tasdiqlangan to'lov hujjatlarini qabul qilmaslik huquqiga ega.
- 6.4.2. bekor qilinayotgan ishonchnomaning tafsilotlari, shuningdek Bankka bekor qilinayotgan ishonchnomada ko'rsatilgan Mijozning vakilini aniqlashga imkon beradigan ma'lumotlar ko'rsatilgan holda berilgan ishonchnomalarining bekor qilinishi to'g'risida darhol Bankka xabar berish. Ishonchnomani bekor qilish to'g'risida Bankni o'z vaqtida xabardor qilmaslik yoki belgilangan bildirishnoma tartibini buzish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar va boshqa salbiy oqibatlar xavfi Mijoz tomonidan qoplanadi;
- 6.4.3. vakolatlari tugatilgan shaxs nomiga chiqarilgan ERIni bekor qilish;
- 6.4.4. Sud tomonidan Mijoz bankrot deb topilganligi to'g'risida qaror chiqarilgan paytdan e'tiboran 10 (o'n) kalendar kun ichida, sud Mijozga nisbatan bankrotlik tartib-taomilini joriy etish to'g'risida qaror chiqarganda esa -bunday qaror chiqarilgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida Bankka Mijozni bankrot deb tan olish to'g'risida xabarnoma yuborish 2 ;
- 6.4.5. Hisob-kitob hisobvarag'ida Universal shartnomaga shartlariga muvofiq zarur to'lovlarni amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan pul mablag'larini saqlash;
- 6.4.6. Mijozning ERIsini o'z ichiga olgan elektron hujjat shaklida yoki Tomonlar o'rtaida kelishilgan boshqa usulda Internet-bank/Mobil bankdagi Mijoz shaxsiy kabinetining funksionali orqali Bankning bildirishnomalar, so'rovlar va boshqa axborot xabarlariga javoblarni taqdim etish;
- 6.4.7. Valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda, har kuni yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlardan kechikmay, Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali Bankdan, operatsiya bo'yicha barcha qo'shimcha hujjatlarni, shuningdek valyuta nazorati hujjatlarini olish va jo'natish. Mijoz ushbu hujjatlarni o'z vaqtida qabul qilmasligi yoki Mijoz o'z vaqtida yuborilmasligi tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining paydo bo'lish xavfi Mijozga yuklatiladi;
- 6.4.8. Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlar, shuningdek taqdim etish talabi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlarida belgilangan valyuta nazorati bo'yicha hujjatlar Mijoz tomonidan Bankka elektron shaklda yoki Universal shartnomada belgilangan tartibda va shartlarda qog'ozda taqdim etiladi.

VII. Hisob-kitob hisobvarag'i bo'yicha ko'chirmalarni tayyorlash va taqdim etish

- 7.1. Amalga oshirilgan operatsiyalarni tasdiqlovchi ko'chirmalar va hujjatlar Masofaviy xizmat ko'rsatish funksionali orqali elektron hujjat shaklida taqdim etiladi.
- 7.2. Mijoz joriy yilning 30 (o'ttizinchchi) yanvarigacha Internet-bankdagi Mijoz shaxsiy kabinetining funksionali orqali 1 (birinchi) yanvar holatiga ko'ra Hisob-kitob hisobvarag'ida mablag' qoldiqlari borligini tasdiqlovchi hujjatni Bankka yuborishi shart. Agar Bank belgilangan muddatda bunday tasdiqni olmasa, Hisob-kitob hisobvarag'idagi qoldiq Mijoz tomonidan tasdiqlangan deb

hisoblanadi.

7.3. Ko'chirmalar Mijozga tegishli yozma so'rov bo'yicha qog'oz shaklida taqdim etilishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur harakat bilan Mijoz ko'chirmalarni qog'ozda taqdim etish uchun amaldagi Tariflar bilan tanishganligini tasdiqlaydi. Bank xodimi yangi yilning birinchi ish kunida Internet-bank/Mobil bankdagi Mijoz shaxsiy kabinet funksionali yordamida joriy yilning 1 yanvar holatiga ko'ra Mijozning Hisob-kitob hisobvaraqsida mablag'lar qoldig'ini tasdiqlovchi Bank ABTsidan shakllantirilgan tasdiqnomani yuboradi.

VIII. Hisob-kitob hisobvaraqsida yopish

- 8.1.** Tomonlar quyidagi hollarda Hisob-kitob xizmati ko'rsatish shartnomasi bekor qilinishi, Hisob-kitob hisobvaraqsida esa suddan tashqari tartibda yopilishi mumkinligiga kelishib oldilar:
- Internet-bankdagi shaxsiy kabinet funksionali orqali Bankka yuborilgan Mijozning arizasiga binoan;
 - Universal shartnomani Universal shartnomada belgilangan tartibda va shartlarda bekor qilish;
 - Mijoz tomonidan Universal shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzilganda;
 - hisobvaraqa saqlanadigan pul miqdori Hisob-kitob xizmati shartnomasida yoki Bankning ichki qoidalarida (va/yoki tariflarda) nazarda tutilgan minimal miqdordan past bo'lganda;
 - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va/yoki Bankning ichki qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.
- 8.2.** Bank quyidagi hollarda sud orqali Universal shartnomani (va hisob-kitob xizmati shartnomasini) bekor qilishni talab qilishga haqlidir:
- 3 (uch) oy davomida hisobvaraqlar da operatsiyalar bo'limgan taqdirda;
 - agar hisobvaraqa saqlanayotgan pul mablag'lari summasi Hisob-kitob xizmati ko'rsatish shartnomasida yoki Bankning ichki qoidalarida (va/yoki tariflarda) nazarda tutilgan eng kam miqdordan past bo'lsa va Bank ogohlantirilgan kundan boshlab bir oy muddatda Mijoz tomonidan tiklanmasa.
Universal shartnomani (va Bank hisobvaraqsida shartnomasini) bekor qilish hisobvaraqlar ni yopish uchun asos bo'ladi.
- 8.3.** Bank va Mijoz o'rtaсидаги молиявий маҷбуриятларни ҳал қилиш муддати quyidagilardan 30 (o'ttiz) kalendar kunni tashkil qiladi:
- Hisob-kitob hisobvaraqsida chiqarilgan barcha Kartalarning amal qilish muddati to'xtatilgan kundan boshlab;
 - Hisob-kitob hisobvaraqsida chiqarilgan barcha Kartalarning amal qilish muddati tugagan kundan boshlab.
- ### **IX. Tomonlarning javobgarligi**
- 9.1.** Agar Universal shartnoma (Hisob-kitob hisobvaraqsida shartnomasi) shartlarida nazarda tutilgan protseduralardan foydalangan holda Bank topshiriqlar vakolatlanmagan shaxslar tomonidan berilgan faktini aniqlay olmasa, Bank vakolatlanmagan shaxslar tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish oqibatlari uchun javobgar bo'lmaydi.
- 9.2.** Bank ushbu Umumi shartlarda belgilangan hollarda Mijozning topshiriqlarini bajarmaganligi va Mijozning Hisob-kitob hisobvaraqsida bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yanligi, shu jumladan

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari belgilangan holatlarda pul mablag’larini blokirovka qilganligi, pul o’tkazmalarini amalga oshirmaganligi, Bankning vakillik banklari va boshqa banklar, kredit/moliya tashkilotlari tomonidan Mijozning topshiriqlari doirasida pul mablag’larini qaytarib bermaganligi uchun javobgar bo‘lmaydi.

- 9.3. Mijoz mustaqil ravishda tuzilgan to’lov hujjatlarining to‘g’ri rasmiylashtirilganligi, shuningdek Internet-Bankdagi shaxsiy kabinetda ma’lumotlar va rekvizitlar to‘g’ri ko’rsatilganligi uchun javobgar bo‘ladi.
- 9.4. Mijoz Universal shartnoma shartlariga qo’shilish, shu jumladan Hisob-kitob hisobvarag‘ini ochish, shuningdek xizmat ko’rsatish jarayonida Bankka taqdim etilgan hujjatlarda mavjud bo’lgan ma’lumotlarning ishonchliligi uchun javobgar bo‘ladi.
- 9.5. Tomonlar Universal shartnoma (Hisob-kitob xizmati ko’rsatish shartnomasi) shartlarida belgilangan o’z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javob beradilar.

X. Boshqa shartlar

- 10.1. Ushbu Umumiylar shartlardan kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklar Universal shartnomada nazarda tutilgan tartibda hal qilinadi.
- 10.2. Ushbu Umumiylar shartlarda nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar Universal shartnomaning qoidalariga amal qilishadi.



**Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish,
shuningdek korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishning umumiy
shartlariga 1-ilova**

Ariza

Shu bilan biz "Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatishning umumiy shartlari, shuningdek korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishning umumiy shartlari", Tariflar bilan tanishishimizni, ular tushunarli bo'lganligini tasdiqlaymiz.

Tanlangan tarif rejasiga ko'ra talab qilib olinguncha _____-sonli depozit hisobvarag'idagi qoldiqlarga foizlarni hisoblash xizmatini yoqishingizni so'raymiz.

**Yuridik shaxslar va yakka tartibdag
tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat
ko'rsatish, shuningdek korporativ
kartalarni chiqarish va ularga xizmat
ko'rsatishning umumiy shartlariga 2-ilova**

HUMO/UZCARD so'm korporativ plastik kartasini chiqarish uchun

ARIZA

Tashkilot: _____

Tashkilot nomini ko'rsating

Korxona rahbarining lavozimi va to'liq ismi

Sizdan **HUMO** **UZCARD** korporativ plastik kartasini

CHIQARISH **QAYTA CHIQARISH** **YOPISH** -ni So'rayman

Kartani qayta chiqarish sababi * * Yaroqsiz/Yo'qolgan Muddati tugagan Boshqasi

Qayta chiqariladigan/yopiladigan

Kartaning raqami ** _____

KORXONA REKVIZITLARI:

Yuridik manzili*: _____

Korxonaning yuridik manzilini ko'rsating

Pochta manzili*: _____

Korxonaning pochta manzilini ko'rsating

Aloqa telefonlari*: _____

E-mail:

KOD SO'ZI:

Bank xodimlari Sizning kartangizga xizmat ko'rsatish bo'yicha telefon suhbatlarida sizni aniqlay oladigan kod so'zini kiriting:

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

NAZORAT MA'LUMOTLARI


Ushbu Arizada keltirilgan ma'lumotlarning ishonchliligini tasdiqlaymiz. Bank quyidagilar egaligiga rozimiz:

- ushbu Arizada keltirilgan ma'lumotlarni tekshirish huquqiga ega
- sababini tushuntirmasdan plastik kartani chiqarishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

«ANOR BANK» AJda amaldagi Tariflar va HUMO/UZCARD korporativ kartalaridan foydalanish qoidalari bilan tanishib chiqdik va ularni bajarishga va'da beramiz.

**Rahbarning
imzosi**

**Bosh buxgalterning
imzosi**



M.O'.

Sana:

* - kartalarni chiqarishda va/yoki qo'shimcha xizmatlarni ularsha to'ldirish shart

** - faqat kartalarni qayta chiqarishda yoki yopishda to'ldirilishi shart

*** - faqat birinchi marta chiqarilishida to'ldirilishi shart

**Chiqarilgan korporativ plastik kartalarni
qabul qilish va topshirish dalolatnomasi**

«ANOR BANK» aksiyadorlik jamiyati nomidan _____ asosida harakat qiluvchi _____, bir tomondan keyinchalik "Bank" deb ataladi va _____

nomidan _____ asosida harakat qiluvchi _____, keyinchalik "Mijoz" deb ataladi, boshqa tomondan, quyidagilar to'g'risida ushbu DALOLATNOMANIни tuzdilar:

1. «_____» 20____ yildagi -sonli Hisob-kitob xizmati shartnomasiga muvofiq Bank korporativ plastik kartalarni topshiradi, Mijoz esa qabul qiladi:

No	Karta raqami	ABT-dagi karta hisobvarag'i raqami
1		
2		
3		
...		
.		

2. Mijoz tomonidan qabul qilingan korporativ plastik kartalar Shartnoma talablariga javob beradi. Kartalar Shartnomada belgilangan muddatlarda yetkazib berildi. Mijozda qabul qilingan plastik kartalar bo'yicha hech qanday shikoyat yo'q.

3. Ushbu DALOLATNOMA Tomonlarning xohish-irodasi bilan rus tilida teng yuridik kuchga ega bo'lган ikki nusxada, Tomonlarning har biri uchun bittadan nusxada tuzilgan va Tomonlar o'rtaсидаги yuqorida ko'rsatilgan Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

**Bank:
Topshirdi**

**Mijoz:
Qabul qild**

**Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar
xodimlariga pul mablag'lari o'tkazmalarining
UMUMIY SHARTLARI**

Atamalar va ta'riflar

Ish haqi loyihasi shartnomasi - Bank va Mijoz o'rtasida ish haqi loyihasi doirasida xodimlarning karta hisobvarag'iga kiritish uchun pul mablag'larini o'tkazish to'g'risida tuzilgan, shu jumladan ushbu Umumiylariga pul mablag'lari o'tkazmalarining UMUMIY SHARTLARI

Karta hisobvarag'i- ish haqi loyihasi doirasida Karta va/yoki uning rekvizitlari va/yoki Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish uchun Bankdagi jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomasi doirasida uchinchi tomon kredit tashkiloti yoki Bank tomonidan ochiladigan Xodimning bank hisobvarag'i.

Xodim- Mijoz bilan mehnat munosabatlarda bo'lgan, shu jumladan Bank bilan jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomasi tuzgan shaxs.

Hisob-kitob kartasi- Bank tomonidan chiqarilgan va Bankda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomasi doirasida Xodimga berilgan bank kartasi.

Reyestr- Tijoz tomonidan to'lov topshiriqnomasiga ilova sifatida taqdim etiladigan va Xodimlarning karta hisobvaraqlariga mablag' kiritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan elektron hujjat ko'rinishidagi qaydnama. Reyestr Bank shakli bo'yicha rasmiylashtiriladi.

Ro'yxat- Mijoz tomonidan taqdim etiladigan va Xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan elektron hujjat ko'rinishidagi qaydnama. Ro'yxat Bank shakli bo'yicha rasmiylashtiriladi.

Hisobvaraq- Mijozning milliy valyutadagi joriy hisobvarag'i bo'lib, undan keyinchalik Bankda yoki boshqa bankda ochilgan Xodimlarning karta hisobvarag'iga tushirish uchun pul o'tkazmalari amalga oshiriladi.

I. Asosiy qoidalar

- 1.1. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning Xodimlariga pul mablag'larini o'tkazishning ushbu Umumiylariga pul mablag'larini o'tkazishda Tomonlarning o'zaro hamkorligi tartibini va ish haqi loyihasi Shartnomasini (Shartnomasi) tuzishni tartibga soladi.
- 1.2. Bank O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi doirasida vujudga keladigan pul mablag'larini o'tkazishni, shuningdek, ish haqi loyihasi doirasida Reyestrda muvofiq Mijoz tomonidan sanab o'tilgan, Mijoz tomonidan Reyestrda ko'rsatilgan Xodimlarning Karta hisobvaraqlariga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ijtimoiy va boshqa to'lovlarni o'tkazishni amalga oshiradi.
- 1.3. Ish haqi loyihasi Shartnomasini tuzish uchun Mijoz Universal shartnomanining 1-ilovasiga muvofiq

Ariza tuzadi. Mijoz Bankka tashkilot (korxona) Xodimlarining, shu jumladan Bankda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnoma tuzish istagini bildirgan yoki tuzgan shaxslarning ma'lumotlari bo'lgan Ro'yxatni taqdim etadi.

Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va jismoniy shaxslarga bankda xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomaga muvofiq belgilangan ro'yxatga muvofiq Mijoz Xodimlariga Karta hisobvaraqlarini ochish uchun barcha zarur hujjatlar Mijozning Xodimi tomonidan Bank Xodimlariga topshiriladi. Mijoz Xodimlarining ma'lumotlari bilan ro'yxat Bank shaklida taqdim etiladi.

1.4. Bank Mijoz Xodimlari tomonidan tegishli tarzda rasmiylashtirilib, taqdim etilgan hujjatlar asosida hamda Mijozning Xodimini identifikatsiyalash jarayoni yakunlangandan so'ng, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari va Bankning ichki qoidalariga muvofiq, Universal Shartnoma va Bankda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Shartnomaga asosan Karta hisobvaraqlarini ochadi va Kartalarni chiqaradi.

1.5. Boshqa bankda ochilgan Mijoz Xodimlarining Karta hisobvaraqlariga pul mablag'larini kiritish uchun Mijoz, shu jumladan, Xodimning uchinchi tomon kredit tashkilotida ochilgan hisobvarag'i rekvizitlarini taqdim etadi:

Xodimning to'liq ismi;

Xodimning tug'ilgan sanasi; Xodimning hisobvarag'i;

Xodimning hisobvarag'i ochilgan bankning nomi, MFO, hisobvaraq raqami.

1.6. Xodimlarning boshqa bankda ochilgan Karta hisobvaraqlariga pul o'tkazish uchun Tomonlar yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirdorlarning hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatishning Umumiylar shartlari, shuningdek Bankda Korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish qoidalariga amal qiladilar.

1.7. Bank Reyestrda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riliqini tekshirmaydi. Ushbu tekshirish Mijoz tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

1.8. Pul mablag'lari (pul mablag'larini o'tkazish to'g'risidagi buyruq) kelib tushganda va Reyestr mavjud bo'limganda, Bank mijozdan pul mablag'lari kelib tushgan kundan boshlab beshinchi ish kunidan kechiktirmay pul mablag'larini Mijozning Hisob-kitob hisobvarag'iga to'liq qaytaradi.

1.9. Reyestr kelib tushgan bo'lsa va mablag' (pul mablag'larini o'tkazish to'g'risidagi buyruq) bo'lmasa, Bank Mijozdan Reyestr kelib tushgan kundan boshlab beshinchi ish kunidan kechiktirmay Reyestrni rad etadi.

1.10. Agar olingan pul mablag'larini summasi Reyestrda qatorlar summaga to'g'ri kelmasa, u holda Karta hisobvarag'iga pul tushirilmaydi, Reyestr esa rad etiladi. Agar besh ish kuni ichida to'g'ri Reyestr kelib tushmasa, pul mablag'lari Mijozning pul mablag'lari kelib tushgan Hisob-kitob hisobvarag'iga qaytariladi.

1.11. Agar Reyestrda pul mablag'larining yakuniy summasi Reyestrda qatorlar summaga to'g'ri kelmasa, u holda Karta hisobvarag'iga pul tushirilmaydi, Reyestr esa rad etiladi. Agar besh ish kuni ichida to'g'ri Reyestr kelib tushmasa, pul mablag'lari Mijozning pul mablag'lari kelib tushgan Hisob-kitob hisobvarag'iga qaytariladi.

1.12. Agar olingan pul mablag'larining (buyruqlarning) summasi Reyestrda qatorlar summaga mos kelsa, lekin Reyestrni qayta ishlashda quyidagi xatolar aniqlansa:

➤ "*qabul qiluvchining Karta hisobvarag'i topilmadi (ochiq emas, yopiq);*

➤ "*hisobvaraq raqami va hisobvaraq egasining ismi mos kelmaydi.*"

Bank Xodimlarning Karta hisobvarag'iga xatolarni o'z ichiga olmaydigan satrlar bo'yicha pul mablag'lari kiritadi, xatolar bo'lgan satrlar bo'yicha pul mablag'lari esa Mijozning pul mablag'lari kelib tushgan Hisob-kitob hisobvarag'iga qaytaradi.

II. Tomonlarning huquq va majburiyatları

2.1. Mijozning huquq va majburiyatları:

- 2.1.1. Ro'yxati Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, Universal shartnomaga va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq belgilanadigan zarur hujjatlarni Bankka taqdim etish.
- 2.1.2. Bankda Karta hisobvaraqlarini ochish va Bankdan Hisob-kitob kartalarini olish imkoniyati to'g'risida xodimlarni xabardor qilish.
- 2.1.3. Mukofotni Bankka o'z vaqtida, belgilangan Tariflar miqdori va tartibida o'tkazish.
- 2.1.4. Mijozning Xodimi ishdan bo'shatilgan taqdirda, bunday Xodimning ma'lumotlari ro'yxatini Bankka mehnat shartnomasi bekor qilingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay topshirish.
- 2.1.5. Universal shartnoma va ish haqi loyihasi Shartnomasida belgilangan tartibda imzolangan Reyestrlarni Bankka taqdim etish.
- 2.1.6. Bankka pul mablag'larini o'tkazishdan oldin soliqlar va yig'imlar bo'yicha barcha hisob-kitoblarni mustaqil ravishda amalga oshirish.
- 2.1.7. Ish haqi loyihasi Shartnomasini bajarish faktidagi noaniqliklar/nomuvofiqqliklarni hal qilish uchun Bankka yangi Reyestr va/ yoki qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etish.
- 2.1.8. So'rov bo'yicha va Bank tomonidan belgilangan muddatda Ro'yxatdagi Xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni Bankka taqdim etish.
- 2.1.9. Internet-bankda Ro'yxatning o'z vaqtida mavjudligini ta'minlash.
- 2.1.10. Mijoz ish haqi loyihasi Shartnomasiga muvofiq Mijoz tomonidan Reyestrda ko'rsatilgan rekvizitlar bo'yicha Xodimning pul mablag'larini o'tkazish to'g'risidagi arizasi mavjudligini kafolatlaydi.

2.2. Bankning huquq va majburiyatları:

- 2.2.1. Mijozning Xodimiga Karta hisobvarag'ini ochish va Kartani Bankda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnoma shartlariga va ish haqi loyihasi Shartnomasiga muvofiq taqdim etish.
- 2.2.2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, Bankning ichki qoidalariga va jismoniy shaxslarga Bankda xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomaga muvofiq Mijozning Xodimiga karta chiqarishni va karta hisobvarag'ini ochishni rad etish.
- 2.2.3. Rasmiylashtirilgan bank kartalarini Mijozning xodimlariga topshirish. Shu bilan birga, bank kartalarini xodimlarga faollashtirilmagan xolda topshiradi. Mijozning xodimi Bankda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomaga muvofiq kartalarini mustaqil ravishda faollashtiradi.
Ushbu Umumi shartlarda belgilangan tartibda Reyestrda muvofiq Xodimlarning Karta hisobvaraqlariga pul mablag'larini kiritish.
- 2.2.4. Bank vakillik hisobvarag'iga pul mablag'lari kelib tushgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay va Bank Reyestr bilan buyruq olgan va Mijoz tomonidan Tariflar bilan belgilangan haq to'langan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay Xodimlarning Karta hisobvaraqlariga pul mablag'larini kiritish.
- 2.2.5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Universal shartnomada nazarda tutilgan hollarda ish haqi loyihasi Shartnomasini bir tomonlama tartibda bekor qilish.
- 2.2.6. Internet-bankka kirishni blokirovka qilish yoki cheklash, xizmatlar tarkibini o'zgartirish va Mijozga oldindan xabar bermasdan ish haqi loyihasi shartnomasi doirasida ko'rsatiladigan xizmatlarni taqdim etishga cheklovlar qo'yish.
- 2.2.7. Bank operatsiya O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lgan taqdirda, shuningdek farmoyish va/yoki reyestr lozim darajada rasmiylashtirilmagan hollarda ijro uchun farmoyishni qabul qilmaslikka haqli.

III. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 3.1. Agar Universal shartnoma shartlarida nazarda tutilgan protseduralardan foydalangan holda Bank topshiriqlar vakolatlanmagan shaxslar tomonidan berilganlik faktini aniqlay olmasa, Bank vakolatlanmagan shaxslar tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish oqibatlari uchun javobgar

- bo‘lmaydi.
- 3.2.** Agar kechikish Mijoz tomonidan bankka taqdim etilgan hujjatlardagi noaniqliklar yoki Reyestrning kechikishi, Reyestrda xatolar va boshqalar tufayli yuzaga kelgan bo’lsa, Bank Mijoz va Xodimlar oldida Xodimlarning Karta hisobvaraqlariga summalarini kiritish muddatlarini buzganlik uchun javobgar bo‘lmaydi.
- 3.3.** Bank Mijoz va Xodimlar o’tasidagi nizolar va kelishmovchiliklar uchun Mijoz tomonidan Mijoz Xodimlarning Karta hisobvaraqlariga tushirish uchun taqdim etilgan summalar bo'yicha javobgar bo‘lmaydi. Ish haqi loyihasi shartnomasi joriy yilning oxirgi kalendar kunigacha tuziladi. Agar Tomonlarning hech biri Shartnomani uzaytirishni rad etmasa, Shartnomaning amal qilish muddati keyingi har bir yilga uzaytiriladi. Uzaytirish bir necha bor amalga oshirilishi mumkin.
- 3.4.** Ish haqi loyihasi Shartnomasi har ikki Tomon tarafidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi mumkin, bunda boshqa Tomon tarafidan Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish to‘g’risida bildirishnomada olingan kundan boshlab 30 (o’ttiz) kalendar kundan keyin Shartnomada bekor qilingan deb hisoblanadi.
- 3.5.** Mijoz tomonidan Universal shartnomada shartlari va/yoki ushbu Umumi shartlar buzilgan taqdirda, Bank Mijozni kutilayotgan bekor qilish sanasidan 1 (bir) ish kuni oldin xabardor qilib, istalgan vaqtida ish haqi loyihasi Shartnomasini bir tomonlama ravishda bekor qilishga haqli.

IV. O'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi

- 4.1.** Ish haqi loyihasi Shartnomasiga va uning ilovalariga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar/o'zgartirishlar kiritish, shu jumladan Bank tomonidan yangilarini, Tariflarni, Arizalarni tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Universal shartnomada va/yoki Umumi shartlarda belgilangan xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

V. Boshqa shartlar

- 5.1.** Shaxsiy ma'lumotlari Bank Mijozdan oladigan hujjatlarning tarkibida bo‘lishi mumkin bo‘lgan jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini O‘zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlar to‘g’risidagi qonuniga muvofiq Mijoz shakli va mazmuni bo'yicha qayta ishlashga jismoniy shaxslarning (keyingi o‘rinlarda "shaxsiy ma'lumotlarning subyekti") rozilagini olganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Mijoz, o‘z navbatida, ish haqi loyihasi Shartnomasini bajarish uchun Bankka ushbu shaxsiy ma'lumotlar subyektlarining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga o‘z rozilagini va tegishli huquqini beradi.
- 5.2.** 5.1-bandni bajarish maqsadida, shaxsiy ma'lumotlarni "qayta ishlash", boshqa narsalar qatori, ularni to'plash, yozib olish, tizimlashtirish, yig‘ish, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), chiqarib olish, ishlatish, uzatish, shu jumladan, bunday shaxsiy ma'lumotlarni affillangan yoki Bank bilan bog'liq bo‘lgan shaxslarga, shuningdek, ko‘rsatilgan shaxslarning afillangan yoki ular bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslariga (chunki ushbu shaxslar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi belgilangan) transchegaraviy uzatish (tarqatish, taqdim etish, kirishga ruxsat berish), shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida ularning maxfiyligi va xavfsizligi ta'minlanishi sharti bilan ularni shaxssizlashtirish, blokirovka qilish, olib tashlash, yo‘q qilishni anglatadi.

- 5.3.** Shaxsiy ma'lumotlar subyektining shaxsiy ma'lumotlari Bank tomonidan avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalardan foydalanmasdan qayta ishlanishi mumkin (aralash ishlov berish). Ish haqi loyihasi Shartnomasiga muvofiq shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashning maqsadi Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Shartnoma, Bankning ichki qoidalari va Mijozlarni lozim darajada tekshirish qoidalari talablarini bajarish bilan bog'liq har qanday huquq va majburiyatlarni amalga oshirish hisoblanadi. Bank tomonidan qayta ishlanadigan shaxsiy ma'lumotlar subyektlarining shaxsiy ma'lumotlari, agar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ko'rsatib o'tilgan ishlov berish maqsadlariga erishilganda yoki ushbu maqsadlarga erishish zaruriyat yo'qotilgan taqdirda yo'q qilinadi yoki shaxssizlashtiriladi.
- 5.4.** Ushbu Umumiylar shartlardan kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklar Universal shartnomada nazarda tutilgan tartibda hal qilinadi.
- 5.5.** Ushbu Umumiylar shartlarda nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar Universal shartnomaning qoidalariaga amal qilishadi.

**Bank omonatlarini ochish, ularga xizmat ko'rsatish va yopishning
UMUMIY SHARTLARI**

Atamalar va ta'riflar

Bank omonatlarini ochish, ularga xizmat ko'rsatish va yopishning ushbu Umumiyl shartlarida (bundan buyon matnda "Umumiyl shartlar" deb yuritiladi) quyidagi tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

Bank hisobvarag'i - Bank va Mijoz o'rtasida bank hisobvarag'i Shartnomasini tuzish natijasida yuzaga keladigan munosabatlarni amalga oshirish vositasi bo'lib, unga ko'ra Bank Mijozning hisobvarag'iga tushgan mablag'larni qabul qilish va tushirish, Mijozning hisobvarag'idan tegishli summalarini o'tkazish va berish bo'yicha topshiriqlarini bajarish va hisobvaraq bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

Omonatchi - ushbu Umumiyl shartlarga muvofiq bo'sh pul mablag'larini Bankka joylashtiradigan yuridik shaxs yoki yakka tartibdag'i tadbirkor;

Talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i – Mijozning birinchi talabiga ko'ra beriladigan yoki o'tkaziladigan mablag'lari hisobga olinadigan hisobvarag'i;

Tomonlar - Bank va Mijoz/Omonatchi;

Bayram va/yoki ishlamaydigan (dam olish kunlari) kunlar- Bank o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan kalendar kunlar;

I. Asosiy qoidalar

- 1.1.** Bank omonatlarini ochish, ularga xizmat ko'rsatish va yopishning ushbu Umumiyl shartlari Bankda ochilgan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ining egalari bo'lgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdag'i tadbirkor bilan Bank omonati Shartnomasining umumiyl shartlarini belgilaydigan hujjat hisoblanadi.
- 1.2.** Bank omonati shartnomasini tuzish Bank tomonidan Mijozning elektron xabar shaklida berilgan arizasini (ushbu Umumiyl shartlarga 1-ilova) akseptlash yo'li bilan amalga oshiriladi, uning matnida Mijozning ushbu Umumiyl shartlar va Bank tariflari bilan roziligi mavjud.
- 1.3.** Omonatchi omonat miqdorini belgilaydigan va o'z Bank hisobvarag'idan (hisob-kitob hisobvarag'idan) omonatga pul mablag'larni hisobdan chiqarish to'g'risida buyruq beradigan Ariza tizim tomonidan shakllantiriladi.
- 1.4.** Mijoz tizimda tanlaydigan omonat shartlari, shuningdek, Ariza va Bank omonati Shartnomasining ajralmas qismi hisoblanadi.
- 1.5.** Omonatga pul mablag'larni o'tkazish faqat ochiladigan Omonat valyutasiga mos keladigan depozit hisobvarag'idan amalga oshiriladi.
- 1.6.** Bank depozit shartnomasi Omonatga pul mablag'lari tushgan paytdan boshlab Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan hisoblanadi.
- 1.7.** Bank omonati Shartnomasi tuzilganligini va Omonatga pul mablag'lari kiritilishini tasdiqlovchi hujjat bo'lib Tizim tomonidan tuzilgan tasdiq hisoblanadi. Omonatchi Tizimda Omonat ochilishi

to'g'risida Tizimda ro'yxatdan o'tgan mobil telefon raqamiga kod shaklida tasdiqllovchi SMS-xabarni oladi.

II. Shartnoma predmeti

- 2.1.** Omonatchi kiritadi, Bank esa omonatga pul mablag'larini Omonatchining bank hisobvarag'idan o'tkazish yo'li bilan qabul qilib oladi va Bank omonati Shartnomasining ajralmas qismi bo'lgan Omonat shartlarida nazarda tutilgan shartlarda va tartibda omonatni qaytarish va foizlarni to'lash majburiyatini oladi. Omonat shartlarida Omonatning nomi, turi (muddatli/jamg'arma) va valyutasi, Omonat muddati, foiz stavkasi, Omonatning minimal miqdori, foizlarni to'lash tartibi, Omonatni muddatidan oldin yopish shartlari va boshqa shartlar ko'rsatiladi.
- 2.2.** Omonatni hisobga olish bo'yicha depozit hisobvarag'ining rekvizitlari Tizimning "Depozitlar" bo'limida keltiriladi va Omonat bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: Omonat nomi, Omonat turi va valyutasi, Omonat ochilgan bank nomi, Omonat ochilgan sana va qaytariladigan sana, Omonatning dastlabki summasi, Omonat bo'yicha yillik foiz stavkasi, Omonatning joriy summasi, joriy hisoblangan foizlar, Bank hisob raqami, foizlarni hisoblash uchun hisobvaraq, Omonatni yopish muddatigacha qolgan kunlar soni.

III. Foizlarni hisoblash va to'lash tartibi

- 3.1.** O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 764-moddasiga muvofiq, Bank bank omonati Shartnomasida belgilangan foizlarni Bankka depozit omonati kelib tushgan kundan keyingi kundan boshlab Omonatchiga depozit omonati qaytarilishidan yoki boshqa sabablarga ko'ra Omonatchining hisobvarag'idan hisobdan chiqarilishidan oldingi kungacha hisoblab chiqadi.
- 3.2.** To'lovga foizlar summasini hisoblash O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Foizlarni to'lash har oyning 25-kunida har oyda amalga oshiriladi. Agar foizlarni to'lash kuni dam olish yoki bayram kuniga to'g'ri kelsa, foizlarni to'lash dam olish kunlaridan keyingi birinchi ish kuniga o'tkaziladi:
 - 3.2.1.** Omonat muddatidan oldin yopilgan taqdirda foizlarni qayta hisoblash Omonat shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.
 - 3.3.** Omonatdan (depozitdan) olingan daromadlarni soliqqa tortish O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi.
 - 3.4.** Omonatchining hisobvaraqlarida Omonatda turgan pul mablag'lari hibsga olingan yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda Omonatchining hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar to'xtatilgan taqdirda foizlarni hisoblash cheklovlar olib tashlangan paytgacha to'xtatiladi.
- 3.5.** Omonat shartlari to'g'risidagi ma'lumotlar Bankning saytida joylashtiriladi: www.anorbank.uz.

IV. Tomonlarning huquq va majburiyatları

- 4.1.** Omonatchi quyidagi huquqlarga ega:
 - 4.1.1.** bir nechta Omonatlarni joylashtirish;
 - 4.1.2.** Bankning roziliqi bilan, Masofaviy xizmat ko'rsatish vositalaridan foydalangan holda bank omonati Shartnomasiga qo'shimcha bitim tuzish yo'li bilan Omonat (depozit) muddatini uzaytirish, asosiy hisobvaraqa ko'rsatilgan talablarni qondirish uchun Omonatchida mablag'lar yetishmasligi, hibsga olishlar mavjudligi va qonun hujjatlarida belgilangan Omonatlarni joylashtirishga qo'yiladigan boshqa cheklovlar tufayli 2-sonli Kartoteka shakllantirilgan hollar bundan mustasno;
 - 4.1.3.** Omonatning barcha miqdorini muddatidan oldin qaytarib olish. Shu bilan birga, agar Omonatchi Omonatni omonat muddati tugashidan oldin qaytarishni talab qilmoqchi bo'lsa, u Omonatni chiqarib olishning kutilgan sanasidan kamida 1 (bir) oy oldin Bankka o'z niyati to'g'risida xabar berishi shart. Xabarnoma Tizim tomonidan belgilangan harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan Tizim orqali Bankka yuborilishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 762-

moddasi 5-qismi).

- 4.2. Bank O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq o'z maqsadlarini ta'minlash uchun bank omonati Shartnomasining amal qilish muddati davomida Omonatchining pul mablag'larini tasarruf etish huquqiga ega.
- 4.3. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:
- 4.3.1. Omonatchining pul mablag'larini omonatga qabul qilish va o'z majburiyatlarini ushbu Umumi shartlar va amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq bajarish;
- 4.3.2. Bank omonati Shartnomasi shartlariga va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq foizlarni o'z vaqtida va to'liq hisoblab chiqish;
- 4.3.3. depozit muddati tugagan kuni Omonatchining hisob-kitob hisobvarag'iga Omonatning to'liq summasini va tegishli foizlar summasini o'tkazish. Agar Omonat muddati tugashi tufayli, uni qaytarish muddati dam olish kunlari yoki bayram kunlariga (ishlamaydigan kunlarga) to'g'ri kelsa, Omonat dam olish kunlari yoki bayram kunlaridan (ishlamaydigan kunlardan) keyingi birinchi ish kunida qaytariladi;
- 4.3.4. Omonatchidan Tizimda Omonatni muddatidan oldin qaytarish to'g'risida bildirishnomalar olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida Omonat summasini qaytarish;
- 4.3.5. bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning maxfiyligini kafolatlash. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollarda taqdim etilishi mumkin.
- 4.4. Omonatchi arizada ko'rsatilgan Omonat summasini Buyurtmanoma topshirilgandan keyin 3 (uch) bank kuni ichida o'tkazish majburiyatini oladi.
- 4.5. Tomonlarning har biri Tomonlarning bank omonati Shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan zarur ma'lumotlarni olish huquqiga ega.
- 4.6. Tomonlar bank omonati Shartnomasi shartlariga va agar mavjud bo'lsa, keyingi barcha o'zgarishlarga rioya qilish majburiyatini oladilar.
- 4.7. Omonat summasi Omonatchi tomonidan talab qilib olingan yoki Omonat summasi yoki uning bir qismi davlat yoki boshqa organlar tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda undirilgan taqdirda, bank omonati Shartnomasi avtomatik ravishda bekor qilingan deb hisoblanadi. Bunday holda, foizlar Omonat shartlaridan kelib chiqib hisoblanadi.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 5.1. Bank omonati Shartnomasi shartlariga muvofiq Bank Omonatchiga beradigan to'lovlarning muddatini kechiktirgan taqdirda, Bank Omonatchiga kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tgan summaning 0,1% miqdorida jarima to'laydi, ammo muddati o'tgan summaning 10% dan oshmaydi.
- 5.2. Jarimalarni to'lash Tomonlarni bank omonati Shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

VI. Boshqa shartlar

- 6.1. Bank omonati Shartnomasi Mijozdan Omonatga pul mablag'lari tushgan kundan boshlab kuchga kiradi va Omonatchiga Tizimda ko'rsatilgan hisobvaraqdan Omonatning butun summasi berilgan paytdan boshlab o'z amalini to'xtatadi. Bank omonati Shartnomasi bekor qilinganda, Tizimda ko'rsatilgan omonat hisobvarag'i yopiladi.
- 6.2. Hujjatning elektron versiyasi Bank bazasida saqlanadi.
- 6.3. Bank omonati Shartnomasida nazarda tutilmagan boshqa barcha holatlarda Tomonlar Universal shartnomasi qoidalari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladilar.
- 6.4. Mijoz bank omonati Shartnomalarini tuzish uchun qonuniy vakolatlarga ega ekanligiga va bank omonati Shartnomasini imzolagan shaxslar ushbu harakatlarni amalga oshirish uchun barcha huquq va ruxsatnomalarga ega ekanligiga ishontiradi va kafolatlaydi.

- 6.5.** Ushbu Umumiy shartlardan kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklar Universal shartnomada nazarda tutilgan tartibda hal qilinadi.
- 6.6.** Ushbu Umumiy shartlarda nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar Universal shartnomaning qoidalariga amal qilishadi.



**bank omonatlarini ochish, ularga xizmat ko'rsatish
va yopishning Umumiy shartlariga
1-ilova**

Depozitni joylashtirish uchun

ARIZA

Shu bilan "Bank omonatlarini ochish, ularga xizmat ko'rsatish va yopishning umumiy shartlari" va tariflari bilan tanishib chiqqanligimizni va ularga rozi ekanligimizni tasdiqlaymiz.

Milliy valyutada muddatli/jamg'arma depozit hisobvarag'ini ochishingizni so'raymiz. Omonat

nomi: _____

turi: _____

omonat valyutasi: so'm

omonat summasi: _____

omonat bo'yicha yillik foiz stavkasi: _____

omonat muddati: _____

**e-POS terminali orqali xizmat ko'rsatish va milliy valyutada to'lovlarni qabul qilishning
(Internet-ekvayring)
UMUMIY SHARTLARI**

Atamalar va ta'riflar

Ushbu e-POS terminali orqali xizmat ko'rsatish va milliy valyutada to'lovlarni qabul qilishning (Internet-ekvayring) Umumiyl shartlarida (keyingi o'rnlarda "Umumiyl shartlar" deb yuritiladi) quyidagi tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

Bank (plastik) kartasi- O'zbekiston Respublikasi banki tomonidan chiqarilgan va uning egasiga bank hisobvarag'i (karta-hisobvarag'i) bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini ta'minlaydigan onlayn rejimda ishlaydigan to'lov kartasi.

Merchant kabineti- Mijozga to'lov ma'lumotlariga kirish, shuningdek statistikani ko'rish, hisobotlarni tuzish va virtual kassalarni boshqarish imkonini beruvchi veb-ilova.

Mijoz - O'zbekiston Respublikasi to'lov tizimlarining bank plastik kartalari orqali elektron to'lovlarni u sotadigan tovarlar, xizmatlar, ishlar, raqamli/elektron kontent uchun qabul qilishga texnik va yuridik jihatdan imkon beradigan axborot resursiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt.

"Anorbank" Mobil ilovasi - jismoniy shaxslar (Mijoz) uchun bank xizmatlarini ko'rsatuvchi dasturiy ta'minot, ma'lum bir platforma (iOS va Android) uchun mo'ljallangan smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalarda ishlashga mo'ljallangan.

To'lovchi- Mijoz tomonidan realizatsiya qilinadigan tovarlar, xizmatlar, ishlar, raqamli/elektron kontent uchun to'lovlarni amalga oshiradigan qobiliyatli jismoniy shaxs, shu jumladan bank plastik kartasi egasi.

Servis - Internet-ekvayring xizmatlarini ko'rsatish, xususan, Mijozning tovarlari, xizmatlari, ishlari, raqamli/elektron kontenti uchun foydalanuvchining bank kartasidan amalga oshiriladigan to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishslashni tashkil etish uchun mo'ljallangan.

Savdo ma'lumotlari parametrlari- bu foydalanuvchining bank plastik kartasidan elektron to'lovlarni qayta ishslash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar. **e-POS Terminali**- Mijozning (tovarlar va xizmatlar/ishlarni yetkazib beruvchining) ABT bank tizimida (avtomatlashtirilgan bank tizimi) ro'yxatdan o'tkaziladigan virtual terminali.

QR-kod (Quick Response) - mobil telefonda kamera yordamida tanib olish uchun Mijozning Hisob-kitob hisobvarag'iga to'lovlarni amalga oshirish uchun ma'lumot beruvchi ikki o'lchovli shtrix-kod.

I. Asosiy qoidalar

1.1. e-POS terminali orqali xizmat ko'rsatish va milliy valyutada to'lovlarni qabul qilishning (Internet-

ekvayring) ushbu Umumiy shartlari (keyingi o'rirlarda "Umumiy shartlar" deb yuritiladi) quyidagilar orqali elektron to'lovlar bo'yicha axborotni qayta ishlashda Tomonlarning o'zaro hamkorligi taomilini tartibga soladi:

- bank kartalari;
- tezkor to'lash terminallari orqali to'lovlar;
- QR-kodlar (faqat Anorbank ilovasi orqali);
- IOS va Android ilovalari;
- WEB-Ilovalar;

shuningdek, e-POS terminali **orqali elektron to'lovlar bo'yicha axborotlarni qabul qilish va qayta ishlash bo'yicha shartnoma tuzish (keyingi o'rirlarda "Shartnoma" deb ataladi)**;

1.2. Mijoz tomonidan to'langan taqdirda Bank quyidagi xizmatlarni (keyingi o'rirlarda "Xizmatlar" deb ataladi) ko'rsatishni o'z zimmasiga oladi:

- Mijozning tovarlar va xizmatlari/ishlari uchun To'lovchining bank kartasidan elektron to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash uchun Mijozni xizmatda ro'yxatdan o'tkazish;
 - Xizmatlarni ko'rsatish uchun ochilgan Mijozning e-POS-ini ro'yxatdan o'tkazish va unga xizmat ko'rsatish;
 - Mijozning Hisob-kitob hisobvarag'iga mablag'larning o'z vaqtida va to'liq tushishini ta'minlash.
- 1.3.** Servisda ro'yxatdan o'tish uchun Mijoz masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali ariza taqdim etadi, shuningdek ushbu umumiy shartlarga 1-ilovaga muvofiq tizim orqali "Korxona anketasi" ma'lumotlarini to'ldiradi va taqdim etadi.
- 1.4.** Xizmatlarning qiymati Bank tomonidan e-POS to'lov terminali orqali muvaffaqiyatli qayta ishlangan va Mijozning Hisob-kitob hisobvarag'iga o'tkazilishi kerak bo'lgan har bir summadan ushlab qolinadi.

II. Tomonlarning huquq va majburiyatları

2.1. Bankning majburiyatları:

- 2.1.1. identifikatsiya protsedurasidan o'tgandan keyin Mijozni Xizmatda 1 (bir) ish kunidan ko'p bo'lмаган муддатда ro'yxatdan o'tkazish. Shu bilan birga, Mijozning texnik integratsiyasi davri uskunaning texnik imkoniyatlari (qurilmalar, billing, DT va boshqa texnik vositalar) bilan belgilanadi.;
- 2.1.2. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish maqsadida e-POS terminali bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish va xizmat ko'rsatishni ta'minlash;
- 2.1.3. to'lovlarini qabul qilish uchun Mijozning rekvizitlari bilan QR kodini yaratish va Mijozga Merchant kabineti, veb-sayt, elektron pochta orqali taqdim etish, shuningdek Mijozning Internet-bankida joylashtirish;
- 2.1.4. To'lovchilardan Mijoz foydasiga olingan pul mablag'larning o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini ta'minlash;
- 2.1.5. Shartnoma doirasida olingan savdo ma'lumotlari parametrlarining maxfiyligini saqlash;
- 2.1.6. axborot uzatish kanallarining xavfsizligini, axborot xavfsizligi, yaxlitligi va ishonchlilagini ta'minlash;
- 2.1.7. Tomonlar o'zaro aloqasining texnik parametrlari to'g'risida ularish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish. Mijozga barcha to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni uzatish;

- 2.1.8. To'lovchilardan pul mablag'larini qabul qilish tizimi va xizmatlariga kecha-kunduz kirishni, shuningdek elektron xabarlarni uzatishni va To'lovchilardan to'lovlar bo'yicha axborot almashish bilan bog'liq boshqa harakatlarni amalga oshirishni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan to'lovlar to'g'risidagi axborotni qabul qilish va uzatishni ta'minlash, rejali va rejadan tashqari profilaktika ishlarini o'tkazish davrlari bundan mustasno;
- 2.1.9. tizim uchun aloqa xizmatlarini ta'minlovchi tizim va kommunikatsiyalardagi har qanday nosozliklar to'g'risida Mijozni xabardor qilish;
- 2.1.10. Mijozga beriladigan to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarning muvofiqligi, shuningdek hisobvaraqdagi ma'lumotlarning identikligi uchun javobgar bo'lish;
- 2.1.11. to'lovlar to'g'risidagi axborot ular amalga oshirilgan kundan e'tiboran kamida 3 (uch) yil davomida saqlanishini ta'minlash;
- 2.1.12. agar Mijoz ushbu umumiylar xizmat ko'rsatish shartlarini buzgan bo'lsa yoki favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq sabablarga ko'ra, shuningdek Shartnomada doirasida Mijozning manfaatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan barcha faktlar to'g'risida Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari, elektron pochta yoki rasmiy xabar orqali Mijozni xizmatlarni to'xtatib turish to'g'risida ogohlantirish.

2.2. Mijozning majburiyatları:

- 2.2.1. majburiyatlarni bajarish, Shartnomada nazarda tutilgan tartib va shartlarga rioya qilish;
- 2.2.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, shu jumladan elektron tijorat sohasidagi talablariga qat'iy muvofiqlikda harakat qilish;
- 2.2.3. QR-kodni, shuningdek ABT tizimidan foydalangan holda tovarlar va xizmatlarni to'lash uchun to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati to'g'risidagi ma'lumotni o'zining Internet-saytida joylashtirish;
- 2.2.4. uch kunlik muddat ichida Tomonlar Shartnomani bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday o'zgarishlar, shu jumladan: nomi, yuridik manzili, haqiqiy manzili, Internet-sayt manzilidagi o'zgarishlar, shuningdek rekvizitlardagi boshqa o'zgarishlar to'g'risida Bankka yozma ravishda xabar berish;
- 2.2.5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, elektron tijoratni amalga oshirishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, savdo qoidalari, xizmatlar ko'rsatish qoidalari, shuningdek iste'molchilar huquqlarini himoya qiluvchi qoidalari talablarini bajarish;
- 2.2.6. Shartnomaga muvofiq Mijozga ma'lumot taqdim etilgan to'lovlar summalarini bilan To'lovchining o'z korxona hisobvarag'iga o'tkazilgan summalaridagi farqlarning sabablarini aniqlashda ishtirok etishni talab qilish;
- 2.2.7. hisobot davri doirasida amalga oshirilgan To'lovchidan tushgan to'lovni bekor qilish (qaytarish);
- 2.2.8. Shartnomada bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarning qat'iy bajarilishini talab qilish.

2.3. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- 2.3.1. Mijoz Shartnomada shartlarini buzgan taqdirda Xizmatlar ko'rsatishni bir tomonlama to'xtatib turish;
- 2.3.2. Quyidagi hollarda Mijozga xizmat ko'rsatishni rad etish:
 - Mijozning g'ayrioddiy operatsiyalar belgilariiga ega bo'lgan yoki Bank obro'siga putur yetkazish va/yoki moliyaviy xavflarini o'z ichiga olgan operatsiyalari aniqlanganda;
 - amaldagi qonunchilik talablari, shu jumladan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha qoidalari buzilganligi faktlari aniqlanganda.
- 2.3.3. Mijozning faoliyatida, Bankning fikriga ko'ra, katta yo'qotishlarga olib kelishi yoki bank uchun obro'-e'tibor xatarlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlar aniqlangan taqdirda, Mijoz ushbu Shartnomada bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlariga to'g'ri keladigan faktlar aniqlangan hollarda Mijozga keyingi kalender kunidan boshlab operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risida elektron pochta orqali xabarnoma yuborib, aniqlangan

- holatlar Mijoz tomonidan bartaraf etilgunga qadar Tomonlar o'rtasida axborot va texnologik o'zaro hamkorlikni amalga oshirishni to'xtatib turish. Shu bilan birga, To'lovchining to'xtatib turilgunga qadar qabul qilingan Mijoz foydasiga to'lovlar to'g'risidagi buyrug'i amalda qoladi, agar bu amaldagi qonunchilikka zid bo'lmasa;
- 2.3.4. Mijoz Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmagan va/yoki texnik xizmat tomonidan rejalashtirilgan profilaktik ishlari amalga oshirilgan holatlarda, kamida 1 (bir) ish kuni oldin Mijozni oldindan yozma ravishda xabardor qilgan holda tizimning tegishli modullariga kirishni cheklash va to'xtatib turish;
- 2.3.5. Mijozga Bank mulki bo'lgan va Mijoz tomonidan Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarishi uchun zarur bo'lgan mavjud axborot-ma'lumotnomalarini va reklama materiallarining elektron namunalarini taqdim etish.
- 2.4. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:**
- 2.4.1. O'zbekiston Respublikasi ijro etuvchi, sud yoki qonun chiqaruvchi hokimiyati organlari tomonidan qo'yiladigan mumkin bo'lgan cheklovlarini hisobga olgan holda ushbu Umumi shartlarda nazarda tutilgan sifatli va uzlusiz xizmatlardan foydalanish;
- 2.4.2. Servis huquqi egasini majburiy ravishda eslatib o'tish sharti bilan, o'z savdo hajmlarini oshirish uchun Bank xizmatlari yoki Servisni reklama qilish.

III. Tomonlarning javobgarligi va nizolarni hal qilish tartibi

- 3.1. O'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi muvofiq javobgar bo'ladilar.
- 3.2. Agar bajarmaganlik uchinchi shaxslarning aybi bilan sodir bo'lsa, Tomonlar Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganlik uchun javobgar bo'lmaydilar. Bunday holda, Tomonlar, agar mavjud bo'lsa, uchinchi shaxslar bilan shartnomaviy munosabatlardan foydalangan holda, xizmatlarni taqdim etishning uzilish sabablarini bartaraf etish uchun maksimal kuch sarflashga majburiyatini oladilar.
- 3.3. Bankning javobgarlik zonasini faqat ushbu Umumi shartlarda aks ettirilgan majburiyatlar bilan cheklangan. Bank Servisdagi texnik nosozliklar, shuningdek uchinchi tomonning aybi bilan xizmatlarni vaqtincha yoki to'liq to'xtatishga olib keladigan qonunchilik va boshqa cheklovlar uchun javobgar bo'lmaydi.
- 3.4. Tomon ushbu Umumi shart bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda jarimani to'lash va zararni qoplash Tomonni Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.
- 3.5. Ushbu Umumi shartlar va Shartnomadan kelib chiqishi mumkin bo'lgan yoki kelib chiqqan, shu jumladan uni tuzish, o'zgartirish, bajarish, buzish, bekor qilish, to'xtatish, amal qilmasligi yoki tuzilmasligi (to'liq va/yoki qisman) bilan bog'liq bo'lgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar yoki da'volar Universal shartnomada belgilangan tartibda hal qilinishi lozim.

IV. Yakuniy qoidalar

- 4.1. Ushbu Umumi shartlarda nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar Universal shartnomaning qoidalariga amal qilishadi.



e-POS terminali orqali
xizmat ko‘rsatish va milliy valyutada
to’lovlarni qabul qilishning Umumiy shartlariga 1-ilova

KORXONA ANKETASI

Nomi
korxona

Yuridik manzili:

Mo‘ljal:

Rahbarning
to‘liq ismi

Rahbarning aloqa
telefoni

Buxgalterning to‘liq ismi

Buxgalterning
aloqa telefoni

Korxona
Bank hisobvarag‘ining
rekvizitlari

Faoliyat
sohasi:

**POS terminali orqali xizmat ko'rsatish va milliy valyutadagi to'lovlarni qabul qilishning
UMUMIY SHARTLARI**

Atamalar va ta'riflar

Ushbu POS terminali orqali xizmat ko'rsatish va milliy valyutada to'lovlarni qabul qilishning Umumiyl shartlarida (keyingi o'rnlarda "Umumiyl shartlar" deb yuritiladi) quyidagi tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

Karta – Bank yoki O'zbekiston Respublikasining boshqa tijorat banki - Bank bilan kartalarga o'zaro xizmat ko'rsatish bo'yicha tegishli kelishuvlarga ega bo'lgan BTT ishtirokchisi tomonidan chiqarilgan amaldagi bank kartasi (shu jumladan korporativ karta).

Karta egasi - Kartani to'lov vositasi sifatida taqdim etadigan shaxs. Egasining ismi (yoki korporativ Karta uchun korxona nomi) kartaning old tomonida ko'rsatilgan.

POS terminali - Bank tomonidan Mijozga Karta Egalariga xizmat ko'rsatish uchun taqdim etiladigan texnik vositalar (bundan buyon matnda "Uskuna" deb yuritiladi):

- ✓ savdo terminali - Kartaning to'lov qobiliyatini tekshirishga, Kartalar bo'yicha ma'lumotlarni elektron to'plashga va keyinchalik qayta ishlash uchun kommunikatsiyalar orqali Bankka elektron shaklda uzatishga qodir qurilma.
- ✓ masofaviy klaviatura - Karta Egasi PIN-kodni kiritish orqali Kartaning to'lov qobiliyatini tasdiqlaydigan qurilma.

Tranzaksiya- Mijozning xodimi tomonidan Uskuna va taqdim etilgan Karta yordamida amalga oshiriladigan to'lov. Tranzaksiya Karta Egasi tomonidan PIN-kod yordamida tasdiqlanadi.

To'lovlarni qaytarish- Mijoz tomonidan bajarilgan Tranzaksiyaga nisbatan karta hisobvarag'iga pul mablag'larini qaytarish

Qog'oz nusxalari-barcha Tranzaksiyalar bo'yicha Uskuna tomonidan bosib chiqarilgan cheklar, nazorat tasmasi va jami solishtirish hisobotining yoki ularning hisobot davrida o'tkazilgan umumiyl summasining nusxalari.

Inkassatsiya (natijalarni solishtirish) – Tranzaksiyalarni qayta ishlash uchun Bankka yuborish tartibi. Ushbu protsedura Mijoz tomonidan kuniga kamida bir marta amalga oshiriladi.

Stop varaqasi - Karta Egasining tashabbusi bilan, shuningdek BTT qoidalarida nazarda tutilgan boshqa sabablarga ko'ra xizmat ko'rsatish taqilangan bank kartalari ro'yxati.

BTT - UzCard yoki HUMO banklararo to'lov tizimi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritadigan, O'zbekiston Respublikasi hududida kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish qoidalarini belgilaydigan boshqa to'lov tizimlari.

I. Asosiy qoidalar

- 1.1. POS terminali orqali xizmat ko'rsatish va milliy valyutada to'lovlarni qabul qilishning ushbu Umumi shartlari (keyingi o'rnlarda "Umumi shartlar" deb ataladi) bank kartalaridagi to'lovlar bo'yicha axborotni qayta ishslashda Tomonlarning o'zaro hamkorligi tartibini hamda POS terminali orqali elektron to'lovlar bo'yicha axborotni qabul qilish va qayta ishslash bo'yicha Shartnoma (keyingi o'rnlarda "Shartnoma" deb ataladi) tuzishni tartibga soladi;
- 1.2. Mijoz Bank tomonidan taqdim etilgan uskunalardan foydalangan holda tovarlar yoki xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish maqsadida Kartalarni qabul qiladi.
- 1.3. Shartnoma bo'yicha o'zaro hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi. Mijoz Uskunadan foydalanganlik uchun Bankka ijara haqini va Bank tariflariga muvofiq tranzaksiyalarni qayta ishslash uchun komissiyalarni to'lash majburiyatini oladi. Shartnoma muddati tugagandan so'ng, Bankdan olingan uskunani qaytariladi.

II. Tomonlarning huquq va majburiyatları

- 2.1. **Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:**
 - 2.1.1. Karta Egalariga xizmat ko'rsatish uchun qabul qilish va topshirish Dalolatnomasi bo'yicha Mijozga Uskunani ijaraga berish (ushbu Umumi shartlarga 1-ilova);
 - 2.1.2. ikki bank kuni mobaynida Mijozga joriy operatsion bank kuni davomida inkassatsiya qilingan Tranzaksiyalar summasini Mijozning hisobvarag'iga, Tarifga muvofiq Bank komissiyasini chegirib olgan holda o'tkazish;
 - 2.1.3. Mijozga amalga oshirilgan barcha Tranzaksiyalar bo'yicha hisobotlarni berish;
 - 2.1.4. Karta Egalariga xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan texnologik uskunalarning ishslashini ta'minlash uchun barcha choralarini ko'rish.
- 2.2. **Bank quyidagi huquqlarga ega:**
 - 2.2.1. agar Mijoz ushbu Umumi shartlarning 4.2.2-bandidagi ko'rsatmalarini buzgan bo'lsa yoki bir oy ichida Mijoz Tranzaksiyalarini amalga oshirmsa yoki Mijoz tomonidan amalga oshirilgan Tranzaksiyalar ichki nazoratning amaldagi qoidalariga muvofiq shubhali yoki gumanli xarakterga ega bo'lsa, Mijozni 10 (o'n kun) oldin xabardor qilish orqali Shartnomani bir tomonlama ravishda bekor qilish;
 - 2.2.2. quyidagi hollarda Mijozga pul mablag'larini o'tkazishni to'xtatib qo'yish:
 - Tranzaksiya bo'yicha ma'lumotlari noto'g'ri yoki lozim bo'lмагan tarzda amalga oshirilsa;
 - Karta egasi Tranzaksiyaga nisbatan da'vo arizasi bilan murojaat qilsa va ushbu da'vo qondirilsa;
 - Mijozni o'zgartirish yoki tugatish jarayoni mavjud bo'lsa. Bunday holda, to'lovlar tugatish komissiyasi yoki boshqa vakolatli organlar huquqiy voris masalasini hal qilgunga qadar ushlab turiladi;
 - 2.2.3. ushbu o'zgarishlar kiritilishidan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin Korxonani xabardor qilib, Internet tarmog'idagi Bank saytida bildirishnomalarni joylashtirish orqali tariflarga bir tomonlama o'zgartirishlar kiritish;
 - 2.2.4. agar Mijoz ushbu Umumi shartlardagi 4.2.2 va 4.2.3.-bandlarning qoidalarini buzgan bo'lsa, Bankning amaldagi Tarifiga muvofiq Mijozdan jarima summasini olish;
 - 2.2.5. Uskuna yo'qolgan/buzilgan taqdirda, Bankning amaldagi Tarifiga muvofiq Mijozdan kompensatsiya va jarima summasini olish.
- 2.3. **Mijoz quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:**
 - 2.3.1. naqd pul bilan bir xil shartlarda tovarlar yoki xizmatlar uchun faqat Stop-varaqada bo'lмагan haqiqiy Kartalarni qabul qilish;
 - 2.3.2. Bank tomonidan taqdim etilgan reklama belgilarini yoki boshqa materiallarni o'z binolarida yetarli darajada ko'rsatish va Bank tomonidan tasdiqlangan nomlar yoki rasmlardan faqat Kartalar Mijoz tomonidan to'lov vositasi sifatida qabul qilinganligini ko'rsatish uchun foydalanish;
 - 2.3.3. agar to'lov sifatida taqdim etilgan Karta Stop-varaqada bo'lsa va terminal disleyida tegishli xabar

- olingen bo'lsa, barcha mavjud qonuniy va oqilona vositalar bilan uni ushlab turish;
- 2.3.4. Shartnoma maqsadlari uchun faqat Bank tomonidan taqdim etilgan dasturlardan foydalanish. Bank tomonidan taqdim etilgan Uskunalarga ruxsatsiz kirishni istisno qilish va buning uchun javobgar bo'lish;
- 2.3.5. amalga oshirilgan Tranzaksiyani tasdiqlash uchun chekning chop etilgan nusxasini Karta Egasiga topshirish;
- 2.3.6. Bank xabardor qilinganidan keyin bir bank kuni ichida, Shartnomaga muvofiq, Bank Mijozdan talab qilish huquqiga ega bo'lgan har qanday Tranzaksiya bo'yicha summani Bankka qaytarish;
- 2.3.7. 3 (uch) ish kuni ichida Bankka rekvizitlardagi barcha o'zgarishlarni, shu jumladan: bank/SSP rahbariyati o'zgarganligi to'g'risida keyinchalik tegishli o'zgarishlarni tasdiqlovchi hujjatlarning tegishli tasdiqlangan nusxalarni taqdim etish;
- 2.3.8. Uskunaning texnik yoki dasturiy ta'minotida nosozlik yuzaga kelgan taqdirda, Mijoz bir ish kunidan kechiktirmay Bankni xabardor qilish, Uskunani qaytarish Dalolatnomasi asosida Uskunani Bankka Yetkazib berish/topshirish majburiyatini oladi (ushbu Umumi shartlarga 3-ilova);
- 2.3.9. Uskunaning shikastlanishiga yoki yo'qolishiga yo'l qo'ymaslik. Buzilgan yoki yo'qolgan taqdirda, bu haqda darhol Bankka yozma ravishda xabar berish;
- 2.3.10. Shartnoma muddati tugagandan yoki muddatidan oldin bekor qilingandan so'ng, 3 (uch) kun ichida Uskunani Bankka yaxlit va but holatda qaytarish;
- 2.3.11. ushbu shart bekor qilingan kundan boshlab kartalarga xizmat ko'rsatishni to'xtatish;
- 2.3.12. Bank komissiyalarini Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq to'lash;
- 2.3.13. uskunaga beparvolik bilan munosabatda bo'lgan taqdirda yoki Mijoz 4.2.2-4.2.3-bandlarning qoidalarini buzib, bu natijada Uskunaning keyinchalik ishlamasligiga va undan foydalanib bo'lmasligiga olib kelganda, Bank xabarnomasini olgandan keyin 10 (o'n) ish kuni ichida Bankning amaldagi Tarifiga muvofiq Bankka jarima to'lash;
- 2.3.14. uskunaga beparvolik bilan munosabatda bo'lgan taqdirda yoki Mijoz 4.2.2-4.2.3-bandlarning qoidalarini buzib, buning natijasida Uskunalarning ishlashi va undan foydalanish terminallar va aloqa liniyalarini ta'mirlash (texnik xizmat ko'rsatish) bilan shug'ullanuvchi tashkilot tomonidan tiklanganda, Bank xabarnomasini olgandan keyin 10 (o'n) ish kuni ichida Bankning amaldagi Tarifiga muvofiq Uskunani ta'mirlash qiymati miqdorida jarima to'lash;
- 2.3.15. uskunalar yo'qolgan taqdirda, Bankning amaldagi Tarifiga muvofiq Bankka jarima to'lash;
- 2.3.16. Shartnoma bekor qilingan taqdirda, Uskunani Bankka 3 (uch) ish kuni ichida qaytarish;
- 2.3.17. ushbu Umumi shartlarga 2-ilova bo'lgan Korxona Anketasini to'ldirish.

2.4. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

- 2.4.1. Bankdan amalga oshirilgan Tranzaksiyalar bo'yicha ko'chirmalar so'rash;
- 2.4.2. Mijoz xodimlariga qo'shimcha instruktaj o'tkazish to'g'risida Bankdan so'rash.

2.5. Mijoz haqli emas:

- 2.5.1. to'lovni qaytarilganda naqd pul mablag'larini berish, ya'ni, Egalik qiluvchi tovar yoki xizmatdan voz kechganda, Mijoz mablag'larni naqd pulsiz shaklda Karta Egasining karta hisobvarag'iga o'tkazadi;
- 2.5.2. Stop-listda ko'rsatilgan Kartalarni to'lov vositasi sifatida qabul qilish;
- 2.5.3. Uskunani va Tranzaksiya amalga oshirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni boshqa shaxslar va tashkilotlarga berish, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq nazorat funksiyalariga ega bo'lgan shaxslar bundan mustasno;
- 2.5.4. bitta Tranzaksiya bo'yicha ma'lumotlarni har qanday shaklda qayta taqdim etish;
- 2.5.5. Uskuna korpusini ochish, o'zboshimchalik bilan ta'mirlash, Uskunaning tarkibiy qismlarini o'zgartirish, Bank tomonidan taqdim etilgan dasturlarga o'zgartirishlar kiritish.

III. O'zaro hisob-kitoblar tartibi

- 3.1.** Uskunadan foydalanganlik uchun Mijoz Bankning amaldagi Tarifiga muvofiq Bankka ijara haqini to'laydi.

- 3.2.** Uskuna taqdim etilgan sanadan qat'i nazar, ijara haqi miqdori Bank tomonidan joriy (to'langan) oyning oxirgi bank kunidan kechiktirmay memorial order asosida akseptsiz tartibda hisobdan chiqariladi.
- 3.3.** Bank oldidagi qarzini qoplash uchun Mijozning hisobvaraqlarida mablag' bo'lmasa yoki yetarli bo'lmasa, qarzning to'lanmagan qismi asosiy hisobvarag'iga to'lov talabini qo'yish orqali qoplanadi. Mijoz bunday hisobdan chiqarishga rozilik (aksept) beradi.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Bank quyidagilarga javobgar emas:

4.1.1. Shartnoma shartlariga mos kelmaydigan yoki ularga zid bo'lgan Tranzaksiyalar bo'yicha to'lovlarni ta'minlash uchun.

4.2. Mijoz quyidagilarga to'liq javobgar bo'лади:

4.2.1. Stop-varaqqa ro'yxatida ko'rsatilgan Kartaga xizmat ko'rsatish;

4.2.2. Mijoz tomonidan Shartnoma qoidalari buzilgan taqdirda Bankka yetkazilgan zarar;

4.2.3. Mijozga uzatiladigan Uskunaning butligi va ishlashi.

4.3. O'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

4.4. Bankning javobgarlik zonasini faqat ushbu Umumiy shartlarda aks ettirilgan majburiyatlar bilan cheklangan. Bank Uskunadagi texnik nosozliklar, shuningdek uchinchi tomonning aybi bilan xizmatlarni vaqtincha yoki to'liq to'xtatishga olib keladigan qonunchilik va boshqa cheklovlar uchun javobgar bo'lmaydi.

4.5. Tomon ushbu Umumiy shart bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda jarimani to'lash va zararni qoplash Tomonni Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

V. Yakuniy qoidalar

5.1. Ushbu Umumiy shartlarda nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar Universal shartnomaning qoidalariiga amal qilishadi.



POS terminali yordamida xizmat ko'rsatish
va milliy valyutada to'lovlarni qabul qilish
bo'yicha Umumiy shartlarga 1-ilova

Uskunani qabul qilish va topshirish dalolatnomasi

Toshkent shahri

Ushbu Dalolatnoma plastik karta egalariga xizmat ko'rsatish uchun quyidagi Uskunani **Bank, topshirishi**, Mijoz **esa qabul qilib olishi to'g'risida tuzilgan**:

Uskunanining nomi	Birliklar soni (dona)	Birlikning qiymati (so'm)	Seriya raqami	Inventar raqami

Topshirish paytida mulk soz holatda.

Bank:
Topshirdi

Mijoz:
Qabul qildi



**POS terminali orqali xizmat ko'rsatish va milliy valyutada
to'lovlarni qabul qilish bo'yicha Umumiy shartlarga 2-ilova**

KORXONA ANKETASI

Korxona nomi _____

Yuridik manzili: _____

Mo'ljal: _____

Rahbarning to'liq ismi _____

Rahbarning

aloqa telefoni _____

Buxgalterning to'liq
ismi _____

Buxgalterning aloqa

Telefoni _____

Korxona
Bank hisobvarag'ining
rekvizitlari

Faoliyat sohasi: _____

Agar korxona tovarlar/xizmatlarni sotish uchun bir nechta punktlarga ega bo'lsa va Uskunalarni o'rnatish joylari shahar/tumanning turli qismlarida joylashgan bo'lsa, iltimos, savdo nuqtalari to'g'risidagi aloqa ma'lumotlarini ko'rsating:

<i>Savdo nuqtasining nomi</i>	<i>Aloqa ma'lumotlari</i>
	Manzili: _____ Mo'ljal: _____ Aloqa telefonlari: _____ Aloqa qiluvchi shaxsning F.I.O.: _____

**POS terminali orqali xizmat ko‘rsatish va milliy valyutada
to‘lovlarni qabul qilish bo‘yicha Umumiy shartlarga 3-ilova**

Uskunani qaytarish dalolatnomasi

Toshkent shahri

Ushbu Dalolatnomaga plastik karta egalariga xizmat ko‘rsatish uchun quyidagi Uskunani **Mijoz topshirishi**, Bank **esa qabul qilib olishi to‘g’risida tuzilgan**:

Uskunaning nomi	Birliklar soni	Birliklar qiymati (so‘m)	Seriya raqami	Inventar raqami

* Uskunani qabul qilish va topshirish dalolatnomasiga muvofiq qabul qilingan sanadagi Uskunaning narxi.

Uskunani qaytarish sababi ("zog‘cha" bilan belgilang, tegishli maydonlarni to‘ldiring):

-sonli Shartnomani bekor qilish " " 20 y.dagi

Uskunaning holati:

Uskunaning nosozligi

1. Mijozning aybi bilan, agar shikastlanishning quyidagi belgilaridan biri mavjud bo‘lsa: *Bank tomonidan taqdim etilgan Uskuna korpusini majburan ochish izlarining mavjudligi, Uskunaning kimyoviy moddalar bilan shikastlanishi, yong‘in ta’siri natijasida Uskunaning shikastlanishi, shuningdek Uskunaning tarkibiy qismlari almashtirilganligi, dasturiy ta’milotiga o‘zgartirishlar kiritilganligi izlarining mavjudligi:*

(sababi ko‘rsatilsin)

2. Uskunaning muddatidan oldin eskirishi yoki dasturiy ta’milotning ishdan chiqishi.

**yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlari ko'rsatishning
Universal shartnomasiga 7-ilova****Naqd pul mablag'larini qabul qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning (samonos)
UMUMIY SHARTLARI****Atamalar va ta'riflar**

Kassa - Bankda hisob-kitob hisobvarag'iga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlardan naqd pul va boshqa qiymatliklarni kassa hujjatlari asosida qabul qiluvchi va beruvchi Bank bo'linmasi.

Kassir - mijozlardan naqd pul mablag'larini qabul qilish va berishni amalga oshiradigan, shuningdek qiymatlarni qayta hisoblash, saralash, almashtirish va qadoqlashni amalga oshiradigan Bank kassasining xodimi.

Naqd pulni qabul qilish to'g'risidagi e'lon - yuridik shaxslar tomonidan hisob-kitob hisobvarag'ini to'ldirish uchun Bankka naqd pul mablag'larini kiritishda foydalaniladigan kassa hujjati. E'lon uch qismdan iborat - "E'lon", "Kvitansiya" va "Order".

I. Asosiy qoidalar

- 1.1.** Naqd pul mablag'larini qabul qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning ushbu Umumiyl shartlari (keyingi o'rinnarda "Umumiyl shartlar" deb ataladi) Bank tomonidan Mijozdan O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida naqd pul mablag'larini qabul qilishda tomonlarning o'zaro hamkorligi tartibini va naqd pul mablag'larini qabul qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishga Shartnomma tuzishni (keyingi o'rinnarda "Shartnomma" deb ataladi) tartibga soladi.
- 1.2.** Shartnomma mijoz ANOR BANK AJda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatining Universal shartnomasiga qo'shilgan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi.
- 1.3.** Mijoz naqd pul mablag'larini Bankka mustaqil ravishda yetkazib beradi, Bank esa pul mablag'larini qabul qilish, qayta hisoblash va "ANOR BANK" AJda ochilgan Mijozning hisobvarag'iga o'tkazish uchun kassa xizmatlarini ko'rsatadi.
- 1.4.** Bank tomonidan xizmatlar ko'rsatilganligi uchun Bank Tariflariga muvofiq haq olinishi mumkin.

II. Tomonlarning huquq va majburiyatları**2.2. Bankning majburiyatları:**

- 2.2.1. Mijoz tomonidan taqdim etilgan naqd pul mablag'larini qabul qilish, ularni qayta hisoblash va operatsion kun oxirigacha Mijozning hisobvarag'iga mablag'larni o'z vaqtida, to'liq kiritish;
- 2.2.2. Shartnomma doirasida olingan to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarning yaxlitligi va maxfiyligini saqlash.

2.3. Mijozning majburiyatları:

- 2.3.1. naqd pul tushumini mustaqil ravishda topshirganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni maxfiy saqlash;
- 2.3.2. Shartnomaga muvofiq Mijozga ma'lumot taqdim etilgan to'lovlar summalarini bilan o'zining hisobvarag'iga o'tkazilgan summalardagi farqlarning sabablarini aniqlashda ishtiroy etishni talab qilish;

2.3.3. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga qat’iy muvofiqlikda harakat qilish.

2.4. Bank quyidagi huquqlarga ega:

2.4.1. Mijoz Shartnoma shartlarini buzgan taqdirda Bank Xizmatlarini ko’rsatishni bir tomonlama to’xtatib turish;

2.4.2. Quyidagi hollarda Mijozga xizmat ko’rsatishni rad etish:

➤ Mijozning g’ayrioddiy operatsiyalar belgilariga ega bo‘lgan yoki Bank obro’siga putur yetkazish va/yoki moliyaviy xavflarini o’z ichiga olgan operatsiyalari aniqlanganda;

➤ amaldagi qonunchilik talablari, shu jumladan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qирг’ин qуrolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha qoidalar buzilganligi faktlari aniqlanganda.

2.4.3. Mijozga Bank mulki bo'lgan va Mijoz tomonidan Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarishi uchun zarur bo'lgan mavjud axborot-ma'lumotnomalarini va reklama materiallarining elektron namunalarini taqdim etish.

2.5. Mijoz quyidagilarga haqli:

2.5.1. kassa apparatini ro'yxatdan o'tkazish uchun tegishli tuman Davlat soliq inspeksiyasiga ro'yxatdan o'tkazish uchun tuzilgan ushbu shartnomani taqdim etish;

2.5.2. Servis huquqi egasini majburiy ravishda eslatib o'tish sharti bilan, o‘z savdo hajmlarini oshirish uchun Bank xizmatlarini reklama qilish.

III. Naqd pulni qabul qilish tartibi

3.1. Bank Mijoziarning naqd pul mablag’larini Bank ish kunlarida, soat 9:00 dan 17:00 gacha Mijozdan naqd pul qabul qilish to‘g’risidagi e’lon asosida, ushbu Umumi shartlarga 1-ilovaga muvofiq qabul qiladi. Qabul qilingan naqd pul mablag’larini qayta hisoblash va Mijozning hisobvarag’iga o’tkazish qabul qilingan operatsion (ish) kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

3.2. Kassir Mijozning ishtirokida naqd pulni tekshiradi va qayta hisoblab chiqadi. Mijozdan naqd pul mablag’larini olgandan so’ng, kassir E’lonni rasmiylashtiradi va kvitansiyaning bir qismiga muhr qo'yadi va Mijozga beradi.

3.3. Agar Mijoz tomonidan berilgan naqd pul mablag’lari orasida shubhali, to’lovga layoqatsiz yoki soxta pullar aniqlansa, kassir Mijozga pulni qaytarmaydi, Bank kassasi rahbarini xabardor qiladi va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va normativ hujjalari muvofiq harakat qiladi. Agar Mijoz Bank kassasi xodimlarining qabul qilingan banknotalarining “to’lovga yaroqsiz” yoki “qalbaki” deb bildirilgan fikridan qoniqmasa, Mijozning istagiga ko’ra, uning arizasi asosida (bunday banknotaga hech qanday muhr qo’ymasdan) banknotalar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalari muvofiq ekspertizaga qabul qilinishi mumkin.

IV. Yakuniy qoidalar

4.2. Ushbu Umumi shartlar bo'yicha va Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik va/yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va Universal shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladilar.

4.3. Ushbu Umumi shartlarda nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar Universal shartnomaning qoidalariga amal qilishadi.



Naqd pul mablag'larini qabul

qilish bo'yicha xizmatlarni taqdim etishning umumiylariga (samonos) 1-ilova.

ОБЪЯВЛЕНИЕ	№		
ДАТА			
Ф.И.О. вносителя			
Банка:	Код банк	ДЕБЕТ	СУММА
Получатель:		КРЕДИТ	Код
Сумма прописью:			
Назначение платежа:			
Подпись вносителя средств		Бухгалтер	Кассир
подпись			
КВИТАНЦИЯ	№		
ДАТА			
Ф.И.О. вносителя			
Банка:	Код банк	ДЕБЕТ	СУММА
Получатель:		КРЕДИТ	Код
Сумма прописью:			
Назначение платежа:			
Подпись вносителя средств		Бухгалтер	Кассир
подпись			
ПРИХОДНЫЙ КАССОВЫЙ ОРДЕР		№	
ДАТА			
Ф.И.О. вносителя			
Банка:	Код банк	ДЕБЕТ	СУММА
Получатель:		КРЕДИТ	Код
Сумма прописью:			
Назначение платежа:			
0			
Подпись вносителя средств		Бухгалтер	Кассир
подпись			

**jamg'arma hisobvarag'idagi pul qoldig'iga foizlarni hisoblashning
UMUMIY SHARTLARI**

Atamalar va ta'riflar

Jamg'arma hisobvarag'idagi mablag'lar qoldig'iga foizlarni hisoblashning ushbu Umumiylarida (bundan buyon matnda "Umumiylar" deb yuritiladi) quyidagi tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

"Bank kuni" - Bank hisob-kitob operatsiyalari va mijozlarga xizmat ko'rsatadigan ochiq balansli ish kunlari;

"Kamaytirilmaydigan qoldiq" - pul mablag'larini joylashtirish muddati davomida jamg'arma depozit hisobvarag'ida bo'lishi kerak bo'lgan minimal pul mablag'lari miqdori;

"Jamg'arma hisobvarag'i" - bu mijozning davriy to'ldirishlari asosida shakllantiriladigan va pul mablag'lari talab qilinmaydigan davrda mijoz tomonidan qoshimcha daromad olish uchun saqlanadigan pul mablag'lari hisobi yuritiladigan hisobvaraq.

I. Asosiy qoidalar

- 1.1.** Jamg'arma hisobvarag'idagi pul qoldig'iga foizlarni hisoblashning ushbu Umumiylarida (bundan buyon matnda "Umumiylar" deb yuritiladi) omonat hisobvarag'idagi foizlarni hisoblash Shartnomasi Tomonlarining o'zaro munosabatlari tartibini tartibga soladi va Bankda ochilgan hisobvaraqlarning egalari bo'lgan yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagи tadbirkorlar bilan tuzilgan foizlarni hisoblash Shartnomasining Umumiylarini belgilaydi.
- 1.2.** Foizlarni hisoblash Shartnomasini tuzish Bank tomonidan Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali taqdim etilgan Mijozning arizasini (ushbu Umumiylar 1-ilova) akseptlash yo'li bilan amalgalashiriladi.
- 1.3.** Jamg'arma depozit hisobvarag'idagi kamaytirilmaydigan qoldiq **1000 (ming) so'mni** tashkil etadi.
- 1.4.** Foizlarni hisoblash va mablag'larni hisob-kitob hisobvarag'idan jamg'arma hisobvarag'iga o'tkazish tegishli valyutada amalgalashiriladi.
- 1.5.** **Foizlarni hisoblash Shartnomasi** Bank Mijozdan kelgan arizani akseptlaganidan keyin kuchga kiradi.

II. Mavzu

- 2.1.** "Foizlarni hisoblash" xizmati Mijozning Arizasi asosida (ushbu umumiylar 1-ilova) Jamg'arma hisobvarag'iga taqdim etiladi;
- 2.2.** Foizlarni hisoblash Shartnomasining muhim shartlari:
 - jamg'arma depoziti bo'yicha - operatsion kun oxirida Bank akseptsiz tartibda (mijozning qoshimcha buyrug'isiz, memorial order asosida) talab qilib olinadigan hisob-kitob hisobvarag'idan pul mablag'larini hisobdan chiqaradi va mablag'larni mustaqil ravishda jamg'arma hisobvarag'iga o'tkazadi, bunda mijoz bankka qaytarib bo'lmaydigan va shubhasiz roziliginu (akseptni) beradi;

- pul mablag'larini qaytarish keyingi bank kunida mablag'larni hisob-kitob hisobvarag'iga soat 10:00 gacha jamg'arma depozit hisobvarag'ida qolgan kamaytirilmaydigan qoldiqni hisobga olmaganda, foizlarni hisoblash Shartnomasi bekor qilingunga qadar o'tkazish yo'li bilan amalgalash oshiriladi;
- 2.3.** Bank Universal shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan Foizlarni hisoblash shartnomasining shartlarida nazarda tutilgan shartlarda va tartiblarda pul mablag'larni qabul qiladi va mablag'larni qaytarish va ular bo'yicha foizlarni to'lash majburiyatini oladi. Foizlarni hisoblash Shartnomasi shartlarida nomi, turi, valyutasi, muddati, foiz stavkasi va kamaytirilmaydigan qoldiq, foizlarni to'lash tartibi, Shartnomani muddatidan oldin bajarish shartlari va boshqa shartlar ko'rsatiladi.

III. Foizlarni hisoblash va to'lash tartibi

- 3.1.** O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 764-moddasiga muvofiq foizlarni hisoblash Bankning jamg'arma depozit bo'yicha Tariflariga muvofiq amalga oshiriladi - aslida jamg'arma hisobvarag'ida bo'lgan pul mablag'lari summasiga. Bunday holda, foizlarni hisoblash haqiqiy kunlar soni va 365 kundan iborat kalendar yili asosida amalga oshiriladi.
- 3.2.** Foizlarni to'lash har oyda (har 25-sanada) foizlarni Mijozning hisobvarag'iga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 3.3.** Agar foizlarni to'lash kuni dam olish yoki bayram kuniga to'g'ri kelsa, foizlarni to'lash dam olish kunlaridan keyingi birinchi ish kuniga o'tkaziladi.
- 3.4.** Foizlarni hisoblashdan olingan daromadlarni soliqqa tortish O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi.
- 3.5.** Mijozning hisobvaraqlarida turgan pul mablag'lari hibsga olingan yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda Mijozning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar to'xtatilgan taqdirda foizlarni hisoblash cheklolvar olib tashlangan paytgacha to'xtatiladi.
- 3.6.** Foizlarni hisoblash xizmati shartlari to'g'risidagi ma'lumotlar Tankning rasmiy saytida quyidagi manzilda joylashtiriladi: www.anorbank.uz.

IV. Tomonlarning huquq va majburiyatları

4.1. Mijoz quyidagi lara haqli:

- 4.1.1. foizlarni hisoblash Shartnomasida nazarda tutilgan shartlar asosida foizlarni olish;
- 4.1.2. Bankdan pul mablag'lari bo'yicha amalga oshirilgan barcha operatsiyalar to'g'risida ma'lumot olish, shuningdek hisob-kitob va jamg'arma hisobvaraqlaridan ko'chirma olish;
- 4.1.3. Bankni kutilayotgan tugatish sanasidan oldin yozma ravishda ogohlantirib, foizlarni hisoblash Shartnomasini bajarishdan bosh tortish;
- 4.1.4. Bank tomonidan foizlarni hisoblash Shartnomasining bajarilishini tekshirish, shuningdek Bankdan ko'chirmalar olish;
- 4.1.5. Bankning roziligi bilan, Masofaviy xizmat ko'rsatish vositalaridan foydalangan holda foizlarni hisoblash Shartnomasiga qo'shimcha bitim tuzish yo'li bilan foizlarni hisoblash Shartnomasining muddatini uzaytirish, asosiy hisobvaraqlar ko'rsatilgan talablarni qondirish uchun Mijozda mablag'lar yetishmasligi, hibsga olishlar mavjudligi va qonun hujjatlarida belgilangan pul mablag'larini joylashtirishga qo'yiladigan boshqa cheklolvar tufayli 2-sonli Kartoteka shakllantirilgan hollar bundan mustasno.

4.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- 4.2.1. foizlarni hisoblash Shartnomasini bir tomonlama tartibda bekor qilish yoki quyidagi hollarda uning amal qilishini to'xtatib turish:

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda Mijozning hisobvaraqlarida bo'lgan pul mablag'lari hibsga olinganda yoki Mijozning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar to'xtatib turilganda;

- ✓ "foizlarni hisoblash" shartnomasini tuzish va undan foydalanishning maqsadi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va/yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish degan shubhalar mavjudligida;
 - ✓ Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Mijozni lozim darajada tekshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda (zarurat bo'lganda, O'zR AVda 23.05.2017 yili 2886-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga" muvofiq);
 - ✓ shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidida va foizlarni hisoblash Shartnomasida nazarda tutilgan boshqa sabablarga ko'ra;
- 4.2.2. foizlarni hisoblash Shartnomasining amal qilish muddati davomida Mijozning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hisob-kitob va jamg'arma hisobvaraqlaridagi pul mablag'laridan foydalanish;
- 4.3. Mijoz quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:**
- 4.3.1. foizlarni hisoblash Shartnomasi shartlariga muvofiq o'z vazifalarini bajarish;
- 4.3.2. yuridik manzili yoki bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda 5 (besh) kalendar kun ichida Bankni yuz bergen o'zgarishlar to'g'risida yozma shaklda xabardor qilish.
- 4.4. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:**
- 4.4.1. foizlarni hisoblash Shartnomasi shartlariga va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq foizlarni o'z vaqtida va to'liq hisoblab chiqish;
- 4.4.2. bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning maxfiyligini kafolatlash. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidida nazarda tutilgan hollarda taqdim etilishi mumkin.
- 4.4.3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va Universal shartnomasiga shartlariga muvofiq foizlarni hisoblash Shartnomasi bo'yicha operatsiyalarni lozim darajada bajarmaganligi uchun Mijoz oldida javobgar bo'lish. Mijozning o'zi yoki uchinchi shaxslarning xatolari natijasida depozit operatsiyalari kechiktirilgan taqdirda, shu jumladan yengilmas kuch holatlari yuzaga kelganda, hisob-kitob markazlari yoki banklararo hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlarning aybi bo'lganda Bankning javobgarligi yuzaga kelmaydi;
- 4.4.4. Mijozning hisobvaraqlarida turgan pul mablag'lari hibsga olingan yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda Mijozning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar to'xtatilgan taqdirda pul mablag'lariga foizlarni hisoblash cheklar olib tashlangan paytgacha to'xtatiladi. Shu bilan birga, sabablarini ko'rsatgan holda, bank hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar to'xtatib qo'yilgan yoki barcha hisobvaraqlardagi pul mablag'larini hibsga olingan kundan keyingi ish kundan kechiktirmay Bank Mijozga uning hisobvaraqlari (omonatlari) bo'yicha operatsiyalar to'xtatib qo'yilganligi yoki hisobvaraqlardagi pul mablag'larini hibsga olinganligi to'g'risida yozma xabarnoma (bir vaqtning o'zida elektron pochta, pochta manzili orqali va agar mavjud bo'lsa – mobil telefonga qisqa xabar (SMS) shaklida) yuborish majburiyatini oladi.
- 4.5. Tomonlarning har biri Tomonlarning foizlarni hisoblash Shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarni bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan zarur ma'lumotlarni olish huquqiga ega.
- 4.6. Tomonlar foizlarni hisoblash Shartnomasi shartlariga va agar mavjud bo'lsa, keyingi barcha o'zgarishlarga rioya qilish majburiyatini oladilar.
- 4.7. Mijoz tomonidan pul mablag'larining to'liq summasi yoki bir qismi talab qilib olinganda yoki davlat yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularni undirish belgilanganda, foizlarni hisoblash Shartnomasi avtomatik ravishda bekor qilingan deb hisoblanadi.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 5.1.** Foizlarni hisoblash Shartnomasi bo'yicha Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun Shartnoma shartlarini buzgan Tomon O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi va Universal shartnoma shartlarida belgilangan tartibda javob beradi.
- 5.2.** Agar Shartnoma shartlarini lozim darajada bajarmaslik yengilmas kuch holatlari, ya'ni favqulodda va mazkur sharoitda bartaraf etib bo'lmaydigan holatlar, tabiiy sharoitlar, O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarori asosida majburiyatlar ijrosini kechiktirish (moratoriy), tegishli munosabatlarni tartibga soluvchi qonun yoki boshqa hujjatlarning amal qilishini to'xtatib turish tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, Tomonlar mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

VI. Umumiy shartlarning ta'siri

- 6.1.** Foizlarni hisoblash Shartnomasi Bank tomonidan Ariza akseptlangan kundan boshlab, u imzolangan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va 730 (yetti yuz o'ttiz) kun davomida amal qiladi.
- 6.2.** Tomonlarning har biri boshqa Tomonni kutilayotgan bekor qilish sanasidan kamida 3 (uch) kalender kun oldin yozma ravishda ogohlantirib, u bo'yicha majburiyatlar bo'limgan taqdirda foizlarni hisoblash Shartnomasini bajarishdan bosh tortishga haqli.

VII. Boshqa shartlar

- 7.1.** Foizlarni hisoblash Shartnomasida nazarda tutilmagan boshqa barcha holatlarda Tomonlar Universal shartnoma qoidalari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladilar.
- 7.2.** Mijoz foizlarni hisoblash Shartnomalarini tuzish uchun qonuniy vakolatlarga ega ekanligiga va Shartnomani imzolagan shaxslar ushbu harakatlarni amalga oshirish uchun barcha huquq va ruxsatnomalarga ega ekanligiga ishontiradi va kafolatlaydi.
- 7.3.** Ushbu Umumiy shartlardan kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklar Universal shartnomada nazarda tutilgan tartibda hal qilinadi.
- 7.4.** Ushbu Umumiy shartlarda nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar Universal shartnomaning qoidalariiga amal qilishadi.

**Jamg'arma hisobvarag'iga pul mablag'larini joylashtirish uchun
ARIZA**

Shu bilan "Pul mablag'lar qoldig'iga foizlarni hisoblashning umumiy shartlari" va tariflar bilan tanishganligimizni va roziligidimizni tasdiqlaymiz.
Milliy valyutada jamg'arma depozit hisobvarag'ini ochishingizni so'raymiz.

Xizmat nomi:

"Foizlarni hisoblash"

Mablag'larni joylashtirish turi:

Jamg'arma

Mablag'larni joylashtirish valyutasi:

So'm

Mablag'larni joylashtirish summasi:

_____ so'm

yillik foiz stavkasi:

_____ %

mablag'larni joylashtirish muddati:

730 (yetti yuz o'ttiz) kun

kamaytirilmaydigan qoldiq:

1000 (bir ming) so'm

**To'lov API yordamida e-POS orqali to'lov usulini taqdim etishning
UMUMIY SHARTLARI**

Atamalar va ta'riflar

To'lov API yordamida e-POS orqali to'lov usulini taqdim etishning ushbu Umumiyl shartlarida (bundan buyon matnda "Umumiyl shartlar" deb yuritiladi) quyidagi tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

Hisobot kuni - kalendar kuni (soat 00:00:00 dan 23: 59: 59 gacha), uning davomida Bank To'lovchilarning farmoyishlari bo'yicha to'lovlarini amalgalash oshirgan.

Hisobot davri - Mijozga Universal shartnomaga muvofiq Bank tomonidan xizmatlar ko'rsatilgan yilning kalendar oy.

"Hold" operatsiyalari (Xoldirlash) – bu To'lovchining bank kartasidagi to'lov miqdorini keyinchalik hisobdan chiqarish uchun vaqtincha bron qilish yoki muzlatish.

To'lov API - Mijozlarga (Sotuvchilar/internet-do'konlar, xizmatlarni yetkazib beruvchilar) quyidagilar yordamida Foydalanuvchilardan (xaridorlar, to'lovchilar, iste'molchilar) to'lovlarini qabul qilish imkonini beruvchi dasturiy interfeys:

- ✓ bank kartalari;
- ✓ tezkor to'lash terminallari orqali to'lovlar;
- ✓ IOS va Android ilovalari;
- ✓ veb-interfeys;

Farmoyish - To'lovchi tomonidan tuzilgan va Bank tomonidan tizim orqali olingan va pul o'tkazmasini amalgalash oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan pul o'tkazmasini amalgalash oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga organ elektron hujjat.

Tizim sayti- Internetdagi veb-sayt: <https://merchant.anorbank.uz>, tizim va undan foydalanish shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Tranzaksiya - to'lov operatsiyasi, shuningdek hisob-kitob ishtirokchilarining uni amalgalash oshirish bo'yicha harakatlari, shu jumladan Pul o'tkazish, Pul ko'chirish.

ETV- elektron to'lov vositasi.

Emitent - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq Emitent va To'lovchi o'rtaida tuzilgan shartnomalariga muvofiq To'lovchiga Emitentda bo'lgan pul mablag'lari hisobiga TT doirasida operatsiyalarni amalgalash imkoniyatini bergan yuridik shaxs.

I. MAVZU

- 1.1. Ushbu qoidalar to'lov API-dan foydalangan holda Mijoz doirasida pul o'tkazmalarini amalga oshirish tartibini belgilaydi, To'lov tizimlarining Umumiylar shartlari va qoidalarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda u To'lovchilar tomonidan tovarlar va xizmatlarni veb-interfeys, mobil ilova, messenjerlar va boshqa Internet xizmatlari orqali to'lashda elektron to'lov vositasi sifatida Bank kartalarini qabul qiladi, Bank esa mukofot hisobiga Mijoz Internet tarmog'i yordamida ko'rsatadigan xizmatlarga to'lov qilish hisobiga To'lovchilar tomonidan amalga oshiriladigan Pul o'tkazmalari bo'yicha Mijozga xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi. Pul o'tkazmalari Bank tomonidan Universal shartnomada asosida tizimdan foydalangan holda amalga oshiriladi.
- 1.2. Tomonlarda Universal shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarning paydo bo'lismiga To'lovchi tomonidan Tizim orqali Bankka berilgan va rasmiylashtirilgan farmoyish asos bo'ladi. Bank Farmoyishni qabul qiladi va Emitent Avtorizatsiya berishi shartida Pul o'tkazmasini amalga oshiradi.
- 1.3. Bitta Pul o'tkazmasiga Farmoyish To'lovchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonuni talablarida nazarda tutilgan summaga berilishi mumkin.
- 1.4. Universal shartnomada tuzilgandan va NDA (oshkor qilmaslik to'g'risidagi Bitim) imzolangandan so'ng Mijoz Umumiylar shartlarga qo'shiladi, ushbu Umumiylar shartlarga 2-ilova.

II. TOMONLAR MUNOSABATLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MANBAI

- 2.1. Tomonlar Universal shartnomada, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, TT qoidalari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lмаган qismida TT standartlari va tavsiyalari ularning munosabatlarini huquqiy tartibga solish manbai ekanligiga rozi bo'ladilar.
- 2.2. TT qoidalariga zid bo'lган har qanday shartlar (qabul qilish paytida ma'lum bo'lганlar ham, keyinchalik ishlab chiqilganlar ham) TT qoidalariga muvofiqlashtirilishi kerak, ular muvofiqlashtirilgunga qadar Tomonlar tarafidan TT qoidalariga muvofiq talqin qilinishi va bajarilishi kerak.

III. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. *Bankning majburiyatları:*

- 3.1.1. Bank tizimi bilan ishslash uchun Mijozning veb-interfeysi ishlab chiqish va sozlash uchun Mijozga to'lov API-ni taqdim etish;
- 3.1.2. Tizim orqali To'lovchilardan Farmoyishlarni qabul qilish va Tizimdan Avtorizatsiyaga ijobiy javob olingandan keyin to'lovlarni amalga oshirish va real vaqt rejimida amalga oshirilgan O'tkazmalar to'g'risidagi ma'lumotlarni Mijozga yetkazish;
- 3.1.3. Bank tomonidan belgilangan formatga muvofiq har kuni shakllantirilgan hisob-kitoblar doirasida amalga oshirilgan O'tkazmalar va Ko'chirishlar bo'yicha Mijoz/Merchantni onlayn tarzda xabardor qilish.
- 3.1.4. To'lovchiga quyidagi hollarda Farmoyishni qabul qilishni rad etish:
 - Emitentdan Avtorizatsiyaga salbiy javob olinganda;
 - tovarlar va xizmatlar uchun to'lov hisobiga Pul o'tkazmasi qabul qilinganligi to'g'risida Mijozdan xabar olinmaganda;
 - Farmoyish Umumiylar shartlarning 1.3-bandi talablariga mos kelmaganda ;
- 3.1.5. Universal shartnomada va Tariflarga muvofiq, miqdori Universal shartnomada/Bank Tariflarda belgilangan komission mukofotni chegirgan holda (keyingi o'rinnlarda "Bank komissiyasi" deb yuritiladi), Hamkor-Bankning vakillik hisobvarag'iga to'lovlar bo'yicha pul mablag'larini o'tkazish;
- 3.1.6. Bank kartalari to'g'risidagi ma'lumotlarni TT talablariga va/yoki PCI DSS standartida ko'rsatilgan bank kartalari ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlash talablariga muvofiq xavfsiz qayta ishslash,

uzatish va saqlashni ta'minlash.

3.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- 3.2.1. Mijoz tomonidan Universal shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda, Mijoz mazkur majburiyatlarni bajarishiga qadar, shuningdek o‘z ixtiyoriga ko‘ra boshqa hollarda, Mijozning foydasiga To‘lovchidan Farmoyishni qabul qilish va bajarishni (O‘tkazmani amalga oshirishni) rad etish;
- 3.2.2. Bank Mijozning faoliyati O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq muomalaga taqilangan yoki cheklangan faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq ekanligini aniqlasa, Tizimda to‘lov API xizmatlarini ko‘rsatishni cheklash. Bunday holda, Bank Mijoz tizimiga yoki Merchant kabinetga to‘lov API-ni o‘chirib qo‘yish to‘g‘risida xabarnoma yuboradi.
- 3.2.3. Tegishli Mijozning Tizimi yoki TT orqali yozma yoki elektron farmoyish asosida Avtorizatsiyani to‘xtatib turish yoki to‘xtatish;
- 3.2.4. Agar ETV Tizim yoki Emitentning belgilangan limitlariga va cheklovlari mos kelmasa, ETV yordamida pul o‘tkazmasini amalga oshirishni rad etish;
- 3.2.5. Uchinchi shaxslarga ular bilan tuzilgan shartnomalar asosida Universal shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish huquqini berish, Mijoz oldida ularning harakatlari (harakatsizligi) va Universal shartnoma bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish uchun javobgar bo‘lish;
- 3.2.6. Bankning fikriga ko‘ra, Bank, To‘lovchi yoki Mijoz uchun yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan, Tomonlarning nazorati ostida bo‘lmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda, Mijozni o‘z vaqtida xabardor qilib, bunday holatlarning amal qilish muddati davomida Tizim xizmatlaridan foydalanishni to‘xtatib qo‘yish. Shu bilan birga, Mijozning hisob-kitob hisobvarag‘iga tushgan, Bank tomonidan qabul qilingan summalar bo‘yicha Bank majburiyatlari o‘z kuchida qoladi;
- 3.2.7. To‘lovchilar tomonidan to‘lovlar amalga oshirilganda Bank To‘lovchilar tomonidan to‘langan to‘lovlar bo‘yicha tushumlar summasidan quyidagi summalarini quyida ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha ushlab qolishga haqli:

- ✓ Bank Komissiyasini;
 - ✓ Agar Umumi shartlarda nazarda tutilgan bo‘lsa, buyurtma/tovarni qaytarish/To‘lovchining Mijoz tovarlari va xizmatlaridan voz kechishi operatsiyalari bo‘yicha Bank Mijoziiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan to‘lovlar summasini;
 - ✓ Ushbu Umumi shartlarning 3.2.10-3.2.12-bandlarida nazarda tutilgan hollarda, Bank Mijoziiga o‘tkazilishi kerak bo‘lgan kompensatsiya summalarini;
 - ✓ Universal shartnomada, qonunda va boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan asoslarsiz, Bank tomonidan Mijoza tegishli bo‘lmagan summalar Mijozning foydasiga noto‘g‘ri to‘langan taqdirda, Bankka qaytariladigan pul mablag‘larning summasini;
 - ✓ Emitentlarga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan to‘lovlarni qaytarish bo‘yicha xarajatlar summalarini;
 - ✓ Ushbu Umumi shartlarning 3.3.18-bandida ko‘rsatilgan summalarini;
- 3.2.8. Agar Mijoz ushbu Umumi shartlarning 3.2.7-bandida ko‘rsatilgan summalarini ushbu Umumi shartlarning 3.2.7-bandida nazarda tutilgan tartibda Bankka to‘lay olmasa, ushbu summalarini to‘lash Bank tomonidan hisob-kitob qilingan kundan boshlab 10 (o‘n) ish kuni ichida taqdim etilgan hisob (talab) asosida amalga oshiriladi. Mijoz hisobni o‘z vaqtida to‘lamasa, Mijoz kechiktirilgan har bir kun uchun bankka 1/10 BHM miqdorida jarima to‘lashi shart;
- 3.2.9. To‘lovchilar to‘lovlarni amalga oshirayotganda, Bank ushbu Umumi shartlarning 3.2.10-bandida nazarda tutilgan hollarda Mijoza to‘lovni kechiktirishi hamda amalga oshirilgan to‘lovlar bo‘yicha to‘lovni amalga oshirmasligi mumkin, ko‘rsatilgan o‘tkazmalar (qoplanmalar) Bankka bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra Bankning vakillik hisobvarag‘iga tushmagan taqdirda, ushbu

- pul mablag'larini Bankning vakillik hisobvarag'iga tushgunga qadar Bank to'lovni kechiktirishi mumkin;
- 3.2.10. To'lovchilar tomonidan to'lovlarni amalga oshirishda, agar to'lovlar amalga oshirib bo'lingan bo'lsa, Bank quyidagi hollarda ushbu Umumi shartlarning 3.2.7-bandida nazarda tutilgan tartibda mazkur summalarini ushlab qolishga haqli:
- agar ETV bilan operatsiya Umumi shartlarni buzgan holda amalga oshirilsa;
 - Bank TT, boshqa vakolatli shaxs yoki organning Emitentidan, shu jumladan elektron shaklda, Mijozga to'langan to'lov "Fraud" (firibgarlik) toifasiga kirishi to'g'risida xabar olsa;
 - to'lov amalga oshirilgan bank kartasi operatsiyani amalga oshirish paytida soxta/o'g'irlangan/yo'qotilgan yoki noqonuniy foydalanilayotgan deb tan olinsa;
 - o'tkazma Emitent tomonidan xizmat ko'rsatilmaydigan ETV yordamida amalga oshirilgan bo'lsa.
- 3.2.11. Bank saytda ma'lumot joylashtirish orqali 10 (o'n) kalendar kun oldin Mijozni xabardor qilib, Umumi shartlarni bir tomonlama suddan tashqari tartibda o'zgartirish huquqiga ega.
- 3.2.12. Umumi shartlarda nazarda tutilgan tartibda Mijozdan 3.3.18-bandda ko'rsatilgan summalarini to'lashni talab qilish, shu jumladan Universal shartnoma tugatilgan (bekor qilingan) kundan boshlab 3 (uch) yil davomida.
- 3.3. Mijozning majburiyatları:**
- 3.3.1. Bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun Universal shartnoma Tomonlari va Bank Tariflari bilan kelishilgan miqdorda va tartibda Bank komissiyasini to'lash;
- 3.3.2. To'lovchilar uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni, shu jumladan Mijozning tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridorlari oldidagi majburiyatları va javobgarligi to'g'risidagi ma'lumotlarni Mijozning saytiga (vitrinasiga) joylashtirish;
- 3.3.3. Merchant kabinetida aks ettirilgan to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni har kuni tekshirib turish;
- 3.3.4. Bankni Mijozga ma'lum bo'lgan komprometatsiya holatlari (yoki komprometatsiya haqida shubhalar paydo bo'lishi) to'g'risida, kartalar rekvizitlari to'g'risidagi ma'lumot va ulardan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida darhol xabardor qilish;
- 3.3.5. Mijozning faoliyati, shu jumladan axborotni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish, karta egalari, rekvizitlari va ulardan foydalanish bilan bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlash qismida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga, To'lov tizimlari talablariga muvofiq ekanligini va taqiqlangan xizmatlarni amalga oshirish bilan bog'liq emasligini Bankka kafolatlash. Agar Bank ushbu talablarning buzilishini aniqlasa, Bank darhol to'lov API-ni Bank tizimidan uzib qo'yadi;
- 3.3.6. To'lov API uchun Bank talablarini bajarish (Umumi shartlarga 1-ilova);
- 3.3.7. Mijozning veb-interfeysida TT logotiplari, Bank logotipi (Bank brend bukiga muvofiq), shuningdek Mijozning veb-saytida tovarlar va xizmatlarni sotib olish va to'lash shartlari to'g'risidagi, shuningdek sotib olingan tovarlar va xizmatlarni yetkazib berish/taqdim etish berish shartlari to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni o'z ichiga olgan sahifani joylashtirish;
- 3.3.8. Bank bilan veb-interfeysning to'lov sahifalari dizaynnini, shu jumladan to'lov tizimlari logotiplari bilan reklama stikerlarining elektron variantlarini muvofiqlashtirish;
- 3.3.9. Umumi shartlarga 1-ilovaga muvofiq To'lovchilar/Elektron to'lov vositalari ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash va to'lovlar xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq ma'lumotlarni Mijozning saytiga joylashtirish;
- 3.3.10. Mijozga ma'lum bo'lgan to'lovlar va To'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni maxfiy saqlash. Shu bilan birga, Mijozga mustaqil ravishda, Bank bilan kelishmasdan, To'lovchilar tomonidan Mijozning to'lov API-lariga tovarlar va xizmatlarni to'lash uchun foydalanadigan ETV raqamlari va boshqa rekvizitlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, saqlash va kimgadir topshirish qat'iy man etiladi;
- 3.3.11. Bitimlar summalarini Mijozning joriy tariflari va preyskuranlariga muvofiqligini mustaqil

- ravishda tekshirish;
- 3.3.12. To'lovchilarga bitimlar predmeti bo'lgan tovarlarni mustaqil ravishda yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, To'lovchilarning tegishli da'volarini, shu jumladan Bitim summasi Mijozning amaldagi tariflari va preyskurantlariga mos kelmasligi natijasida kelib chiqadigan da'volarni mustaqil ravishda hal qilish;
 - 3.3.13. Bankni ushbu protseduraga jalb qilmasdan To'lov tizimi va Merchant kabinetidan foydalangan holda olingan to'lovlarini qaytarish to'g'risidagi da'volarni mustaqil ravishda hal qilish;
 - 3.3.14. Mijozga tegishli bo'lмаган mablag'lar Bank tomonidan noto'g'ri to'lov amalga oshirilgan taqdirda, unga noto'g'ri to'lov to'g'risida Bankning yozma yoki elektron xabarnomasi topshirilgan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida ko'rsatilgan mablag'larni Bank hisobvarag'iga qaytarish;
 - 3.3.15. Bankning so'rovi bo'yicha yozma va/yoki elektron shaklda to'lovlar to'g'rsidagi ma'lumotlarni, shuningdek Mijozning veb-interfeysi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlarni va Mijozda ushbu operatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan boshqa ma'lumotlarni (keyingi o'rinnlarda "Hujjatlar" deb ataladi) Mijozga tegishli Bank so'rovi kelib tushgan paytdan boshlab 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay taqdim etish;
 - 3.3.16. 5 (besh) ish kuni ichida Tomonlarning Universal shartnomani bajarishiga ta'sir qiladigan har qanday o'zgarishlar to'g'risida Bankka yozma yoki elektron shaklda xabar berish.
 - 3.3.17. Bankning so'rovi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Mijozni lozim darajada tekshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni va hujjatlarni taqdim etish (O'zR AVda 23.05.2017 yili 2886-sun bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga" muvofiq);
 - 3.3.18. Xizmatlarni faqat Umumiy shartlarga ilovalarda kelishilgan toifalar bo'yicha taqdim etish. Mijoz ushbu bandda nazarda tutilgan majburiyatni bajarmagan taqdirda, Mijoz xizmatlar toifalari Mijoz tomonidan almashtirilganligi tufayli Bankka qo'yilgan jarima sanksiyalari, undiruvlar miqdorini (Bank ko'rgan zararni) Bankka qoplab berishi shart;
 - 3.3.19. Agar tovar yoki xizmatga buyurtma bekor qilinsa (tovarni qaytarilsa yoki xizmatdan voz kechilsa) va To'lovchining to'lov amalga oshirilgan bank kartasiga avtorizatsiyalangan to'lov miqdorini qaytarish zarurati tug'ilsa, Mijoz to'lovni qaytaradi, agar Mijoz to'lovni To'lovchining kartasiga qaytarib bera olmasa, Mijoz yozma ravishda yoki Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali qaytarish miqdori va shartlarini ko'rsatgan holda Bankka murojaat qiladi.

3.4. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

- 3.4.1. Tomonlarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lмаган yoki Mijozning fikriga ko'ra, Mijoz uchun katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar yuzaga kelganda, bunday holatlarning amal qilish muddati davomida Universal shartnomada bo'yicha Bank xizmatlaridan voz kechish, Tizim orqali yoki yozma ravishda kutilayotgan to'xtatib turish to'g'risida xabarnoma yuborish orqali bu haqda Bankni bunday to'xtatib turish sanasidan kechiktirmsandan o'z vaqtida xabardor qilish;
- 3.4.2. To'lovchi tomonidan tovar yoki xizmatga buyurtma bekor qilingan (tovarni qaytarilgan yoki xizmatdan voz kechilgan) hollarda amalga oshirilgan tranzaksiyalarni bekor qilish huquqiga ega bo'lish.
- 3.4.3. Merchant kabinetida yoki Tizimda to'lovlar to'g'risida ma'lumot olish.
- 3.4.4. Mijoz Elektron to'lov vositalarining to'lov ma'lumotlari va/yoki mijozlarning shaxsiy ma'lumotlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni uzatish, almashish va (yoki) sotish huquqiga ega emas.

IV. HISOB-KITOBLAR TARTIBI

- 4.1.** Bank va Mijoz o'rtasidagi barcha hisob-kitoblar so'mda amalga oshiriladi.
- 4.2.** To'lovlar bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlash real vaqt rejimida amalga oshiriladi.
- 4.3.** Bank to'lovni Bank komissiyasini, shuningdek ushbu Umumiy qoidalarning 3.2.7-3.2.10 - bandlarida ko'rsatilgan summalarni chegirgan holda,
Mijozga to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay amalga

- oshiradi.
- 4.4.** To'lov summasida Bankning vakillik hisobvarag'idan pul mablag'larini hisobdan chiqarish Bankning Mijoz oldida to'lovni amalga oshirish bo'yicha majburiyatlarini bajarish hisoblanadi.
- 4.5.** Ushbu Umumi shartlarning 1.1-bandida nazarda tutilgan xizmatlar Bank tomonidan taqdim etganligi uchun Mijoz Bankka komissiya (Komissiya mukofoti) to'laydi. Bank komissiyasining miqdori Bank Tariflari bilan belgilanadi.
- 4.6.** Mijoz tomonidan Bankka komissiya to'lash Bank tomonidan Mijozga to'lanadigan summalaridan Komissiya ushlab qolish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 4.7.** Agar Mijozning aybi bilan to'lovchidan qabul qilingan to'lov To'lovchiga berilmagan bo'lsa, Mijoz To'lovchining tegishli da'volarini mustaqil ravishda hal qilish majburiyatini oladi.
- 4.8.** Mijoz tushumlar va to'lovlar summasidan soliqlarni mustaqil ravishda to'laydi.
- 4.9.** Agar ko'rsatilgan xarajatlar Tomonlar o'rtasida kelishilgan bo'lsa yoki Umumi shartlar va Universal shartnomani buzish natijasida Mijoz bunday xarajatlarning aybdori bo'lsa, Mijoz Bank tomonidan amalga oshirilgan xarajatlarni, Universal shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajarish bo'yicha qo'shimcha xarajatlarni qoplab beradi.
- 4.10.** Mijoz tomonidan tashabbuslangan "Hold" operatsiyasi amalga oshirilgan taqdirda, ushbu operatsiyani amalga oshirish uchun komissiya olinmaydi.

V. OPERATSIYALARINI MONITORING QILISH

- 5.1.** Elektron to'lov vositalaridan foydalangan holda ularning qonuniyligi borasida shubha tug'diradigan operatsiyalarini aniqlash va Elektron to'lov vositalari bilan firibgarlik operatsiyalarining oldini olish choralarini ko'rish maqsadida Bank quyidagi huquqlarga ega:
- To'lovchilar tomonidan Mijozga to'lov API orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarini avtorizatsiya qilish uchun tizimga kiradigan so'rovlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni monitoring qilish (tahlil qilish);
 - Mijozning veb-interfeysi orqali amalga oshiriladigan tovarlar va xizmatlar ro'yxatining Universal shartnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarga va Umumi shartlarga 1-ilovada ko'rsatilgan, Mijozga qo'yiladigan talablarga muvofiqligini monitoring qilish (tahlil qilish).
- 5.2.** Quyidagi hollarda Bank To'lovchilar tomonidan Mijozning veb-interfeysida elektron to'lov vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan operatsiyalarni elektron shaklda avtorizatsiya qilishni to'xtatib turish huquqiga ega, bu haqda Mijozga operatsiyalarini avtorizatsiya qilish to'xtatilgan sanadan kechiktirmay xabar beradi:
- agar Elektron to'lov vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalar ular amalga oshirilgan paytda qonuniy ekanligi borasida shubha tug'dirsa (operatsiyalarini monitoring qilish natijasida Bank tomonidan olingan ma'lumotlar asosida);
 - Mijoz ushbu Umumi shartlarga 1-ilovada ko'rsatilgan veb-interfeysga qo'yiladigan talablarni buzgan taqdirda;
 - Bank Emitentdan (shu jumladan elektron shaklda) Mijozning veb-sayti va to'lov API orqali elektron to'lov vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalar firibgar ekanligi to'g'risida xabar olgan holatlarda;
 - Bank Emitentdan (shu jumladan elektron shaklda) Mijozning sayti orqali Emitentning qoidalariga muvofiq oyiga operatsiyalar sonidan/da'vo qilingan operatsiyalar bo'yicha oylik aylanmaning ruxsat etilgan darajasidan oshib ketganligi to'g'risida bildirishnomasi va to'lov API olgan holatda;
- 5.3.** Bank Tizim orqali Mijozga Umumi shartlarda nazarda tutilgan bildirishnomalarni yuborish huquqiga ega.

VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 6.1.** Umumi shartlarda belgilangan vazifalarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Tomonlar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va Universal shartnomaga muvofiq javobgar bo‘ladilar.
- 6.2.** Agar to‘lovni kechiktirish Mijozning Umumi shartlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi sababli yuzaga kelgan bo‘lsa, Bank to‘lovlarni kechiktirish uchun javobgar bo‘lmaydi.
- 6.3.** Agar Bank tomonidan amalga oshirilgan to‘lov Mijozning aybi bilan To‘lovchi yoki boshqa manfaatdor va vakolatli shaxs tomonidan buzilgan huquqni himoya qilish to‘g‘risida Bankka da‘vo qilish uchun sabab bo‘lsa, Bank To‘lovchi foydasiga Bankdan pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkni undirib olish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni Mijozdan talab qilishga haqli.
- 6.4.** Shartnomalar bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblarni o‘zaro solishtirish (qiyoslash) har qanday Tomonning yozma talabiga binoan, tegishli talab kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi, u topshirilganlik to‘g‘risida xabarnoma bilan buyurtma xati orqali yoki kuryerlik xizmati orqali yuboriladi.
- 6.5.** Mijoz Umumi shartlarning 3.3.5-bandida ko‘rsatilgan kafolatlarni buzgan taqdirda, Oluvchi bunday qoidabuzarlik tufayli Bankda yuzaga kelgan barcha zarar va/yoki ziyonlarni Bankning tegishli talabida ko‘rsatilgan muddatda to‘liq qoplab berish majburiyatini oladi.
- 6.6.** Universal shartnomalar bo‘yicha o‘z vazifalarini bajarmaganlikda yoki lozim darajada bajarmaganlikda aybdor bo‘lgan Tomon O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq ushbu qoidabuzarliklar bilan bog‘liq barcha haqiqiy, hujjatlashtirilgan zararni boshqa Tomonga qoplab beradi.
- 6.7.** Mijoz Universal shartnomalariga qo‘shilish, shu jumladan To‘lov API-sini ochish, shuningdek xizmat ko‘rsatish jarayonida Bankka taqdim etilgan hujjatlarda mavjud bo‘lgan ma‘lumotlarning ishonchliligi uchun javobgar bo‘ladi.

VII. MAXFIYLIK

- 7.1.** Tomonlar Universal shartnomani bajarish paytida olingan, har bir Tomon uchun maxfiy bo‘lgan ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar. Universal shartnomasidagi maxfiy ma‘lumotlar deganda oshkor etilishi yo‘qotishlarga olib kelishi va/yoki har qanday Tomonning ishbilarmonlik obro’siga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan, ommaviy bo‘limgan ma‘lumotlar tushuniladi, shu jumladan:
 - Bitimlar, To‘lovchilar, To‘lovlari, operatsiyalar hajmi to‘g‘risida ma‘lumot;
 - Tomonlar o‘zaro munosabatlarining tijorat sharoitlari to‘g‘risida ma‘lumot.
- 7.2.** Universal shartnomani tuzish fakti va Umumi shartlar maxfiy ma‘lumotlarga kirmaydi.
- 7.3.** Tomonlar ushbu Umumi shartlarning 7.1-bandida ko‘rsatilganlar ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar, Universal shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarining bajarilishi tufayli har bir Tomon nomidan axborot olish va uzatish huquqiga ega bo‘lgan Tomonlarning vakolatlangan mas’ul shaxslari bundan mustasno.
- 7.4.** Ushbu Umumi shartlarning 7.1-bandida ko‘rsatilgan ma‘lumotlar uchinchi shaxslarga faqat O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilishi mumkin.
- 7.5.** Universal shartnomasi bekor qilingan taqdirda, Universal shartnomalar bekor qilingan paytdan e’tiboran 3 (uch) yil ichida Tomonlar 7.1-bandda ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik va ulardan o‘z manfaatlarida va/yoki uchinchi shaxslarning manfaatida foydalanmaslik majburiyatini oladilar.

VIII. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 8.1.** Ushbu Umumiy shartlardan kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklar Universal shartnomada nazarda tutilgan tartibda hal qilinadi.
- 8.2.** Ushbu Umumiy shartlarda nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar Universal shartnomaning qoidalariga amal qilishadi.

TO'LOV API-GA QO'YILADIGAN TALABLAR
(veb-interfeys va iOS va Android uchun ilovalar)

1. Mijozning veb-interfeysi yoki mobil ilovasi statik IP-manzilga ega bo'lishi kerak (O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan). Mijozning sayti pullik xostingda (Virtual, VPS, VDS) unga tegishli yoki Mijoz tomonidan ijaraga olingan ma'lumotlarni qayta ishlash markazida (collocation) yoki ijaraga olingan maydonda Mijozning o'zi joylashgan joyida bo'lishi kerak.
2. Mijozning veb-interfeysida yoki mobil ilovasida jinsiy, giyohvandlik, siyosiy, millatchilik xarakteridagi grafik, matnli ma'lumotlarni (shu jumladan yashirin) joylashtirish, shuningdek ushbu ma'lumotlarga havolalarni Mijozning saytida va ilovalarida joylashtirish taqiqlanadi.
3. Mijozning veb-interfeysi yoki mobil ilovasida ishlamaydigan sahifalar bo'lmasligi kerak (HTTP 301, 302, 401, 403, 404, 502 kodlariga mos keladigan); o'tish yo'nalishi sayt va ilovaning biznes mantig'iga mos kelmaydigan havolalar bo'lmasligi kerak; o'tish yo'nalishi Mijozning Saytida va ilovasida e'lon qilinganlarga mos kelmaydigan havolalar bo'lmasligi kerak; boshqa saytlarga yo'naltiruvchi sahifalar/havolalar bo'lmasligi kerak (aniq yo'naltirishni ko'rsatmasdan).
4. MXIK kodlari bo'yicha tovarlar va xizmatlar toifalarining ro'yxati (14.08.2020 yildagi 489-son, 28.04.2021 yildagi 249-son) Mijozning Saytida, veb-interfeysida va mobil ilovasida joylashtirilgan tovarlar va xizmatlarning toifalariga mos kelishi kerak.
5. Mijozning veb-interfeysi va mobil ilovasida quyidagi bo'limlar bo'lishi kerak:
 - Mijozning veb-interfeysi va mobil ilovasi haqida ma'lumot. Mijozning veb-interfeysi va mobil ilovasi bilan Mijoz qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilishi mumkin bo'lgan aloqa telefonlari, elektron pochta xabarlari bo'lishi shart;
 - Mijoz tomonidan ETV-dan foydalangan holda to'lovlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha choratadbirlar, ETV-dan foydalangan holda to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar haqida ma'lumot.
 - Mijoz va To'lovchilar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq bitim tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlar (shartnomalar, ommaviy ofertalar va (yoki) boshqa hujjatlarning shakllari).
 - Universal shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi Arizada keltirilgan taklif etilayotgan tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati Sayt yoki mobil ilova orqali taqdim etiladigan xizmatlar/tovarlarga mos kelishi kerak;
 - Taklif etilayotgan tovarlar va taqdim etilayotgan xizmatlarning iste'mol xususiyatlarini batafsil tavsifi. Shu jumladan, saytda yoki mobil ilovada taklif etilayotgan tovarlar va taqdim etilayotgan xizmatlar uchun narxlar bo'lishi shart;
 - Taklif etilayotgan tovarlar va taqdim etilayotgan xizmatlarga buyurtma berish tartibining batafsil tavsifi;
 - ETV-dan foydalangan holda tovarlar va xizmatlar uchun to'lov usullarini ko'rsatish;
 - To'lovchi to'lov amalga oshirilgandan so'ng tovar va xizmatni yetkazib berish to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi uchun zarur bo'lgan tovarlar/xizmatlarni yetkazib berish muddatlari va usullari to'g'risidagi ma'lumotlar, tovarlarni berish punktlarining joylashuvi to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtirilgan holda (haqiqiy manzili, yo'l sxemasi);

- Taklif etilayotgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarni yetkazib berish bo'yicha eksport chekllovlar (agar mavjud bo'lsa);
 - Tovar va ko'rsatiladigan xizmatlardan voz kechilganda, pul mablag'larini qaytarish, bir-birini o'rnini bosadigan tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlarni taqdim etish, tovarlar yoki xizmatlarni almashtirish va boshqa protseduralarning tavsifi. Agar bunday protseduralar veb-interfeys va mobil dasturda nazarda tutilmagan bo'lsa, Mijoz bu haqda To'lovchilarni saytda yoki mobil ilova orqali xabardor qilishi shart.
- 6.** Mijoz To'lovchilar tomonidan buyurtmalar qabul qilinishini nazorat qilishi shart.
- 7.** Veb-interfeys va mobil ilovada shubhali yoki taqiqlangan veb-saytlarning havolalari yoki bannerlari bo'lmasligi kerak (masalan, kattalar uchun saytlar va boshqalar).
- 8.** Mijozning sayti va mobil ilovasi xosting xizmatlarini taqdim etadigan bepul serverlarda joylashtirilmasligi kerak.
- 9.** Farmoyishni bajarish uchun zarur bo'lgan rekvizitlar Mijozning veb-interfeysi va mobil ilovasi sahfalarida qabul qilinishi kerak.
- 10.** Mijozning veb-interfeysi va mobil ilovasi SSL123 dan past bo'limgan sertifikat turi bilan xavfsiz HTTPS ulanishini qo'llab-quvvatlashi kerak.
Agar saytda shaxsiy kabinet amalga oshirilgan bo'lsa, unda:
- foydalanuvchini autentifikatsiya qilish jarayoni HTTPS bilan himoyalangan bo'lishi kerak;
 - yangi foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish jarayoni HTTPS va robotlar tomonidan parollarni tanlashdan himoyalangan bo'lishi kerak;
 - buyurtma berish (aloqa ma'lumotlarini kiritish, etkazib berishni tanlash va hk) HTTPS va robotlar tomonidan parollarni tanlashdan himoyalangan bo'lishi kerak.
- Agar mijozning Saytida shaxsiy kabinet bo'lmasa, unda:
- buyurtma berish (aloqa ma'lumotlarini kiritish, etkazib berishni tanlash va hk) HTTPS va robotlar tomonidan parollarni tanlashdan himoyalangan bo'lishi kerak.
- 11.** Boshqaruvi paneli (administrator paneli), Mijozning veb-interfeysi, agar mavjud bo'lsa, HTTPS va robotlar tomonidan parollarni tanlashdan himoyalangan bo'lishi kerak.
- 12.** Mijozning veb-interfeysi va mobil ilovasining ishlashi bilan bog'liq barcha sahfalar bitta domen nomi ostida bo'lishi kerak.
- 13.** Bank Mijozga tizimga ulanishni rad etish huquqiga ega bo'lgan mezonlar, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda:
- Kattalar uchun ko'ngilochar kontentlar ("AdultEntertainment");
 - Bolalar pornografiyasi;
 - Tegishli litsenziyasiz va saytda homiyalar va jamg'arma tashkil etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq tavsifisiz xayriya, badallar, xayr-ehsonlar;
 - Giyohvand moddalar va boshqa taqiqlangan moddalarni sotish;
 - O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo'lgan tovarlar/xizmatlar. Mualliflik huquqi egasining huquqlarini buzadigan tovarlarni sotish;
 - Zo'ravonlik, millatlararo adovat, terrorizmni targ'ib qiluvchi mahsulotlarni tarqatish;

- "Internet" orqali tanishuv;
 - Nikoh xizmatlari, seks-shop, ayollar va erkaklar eskorti;
 - Asosiy mazmuni saytga tashrif buyuruvchilar tomonidan shakllantiriladigan saytlar – bloglar, e'lonlar taxtalari va boshqalar;
 - "Internet" tarmog‘ida sotish uchun litsenziyani va ruxsatnomani tasdiqlovchi DT yetkazib beruvchilari yoki mazkur DT ishlab chiqaruvchilari bilan shartnoma tuzmasdan DTlarni sotish;
 - Tegishli litsenziyasiz musiqa fayllarini sotish;
 - Chet elda sotilgan taqdirda dori preparatlari, BFQ;
 - Noqonuniy qimor biznesi (kazino), bukmekerlik xizmatlarini ko'rsatadigan tashkilotlar;
 - Internetda qimor, stavkalar, pul tikishlar;
 - Spirtli ichimliklar va tamaki sotish;
 - Fayl almashuvlar;
 - Telemarketing;
 - Qalbakilarni, nusxalarni sotish, sertifikatsiz yoki boshqa ruxsat beruvchi hujjatsiz sotish;
 - Telefoniya orqali intim xizmatlarini taqdim etish;
- 14.** Yuqoridagi talablar majburiy hisoblanadi, ammo veb-interfeys va mobil dasturni Bank tizimiga ulashni Mijozga kafolatlamaydi.

OSHKOR QILMASLIK TO'G'RISIDAGI BITIM

Toshkent shahri

" " _____ 202_ y.

bir tomondan, "**"ANOR BANK"** aksiyadorlik jamiyati nomidan Ustav asosida faoliyat yurituvchi Boshqaruv raisi Sh.S.Akramov, ikkinchi tomondan, birgalikda "Tomonlar" deb, alohida esa "Tomon" deb yuritiladi, keyinchalik "Bitim" deb nomlanadigan ushbu oshkor qilmaslik to'g'risidagi Bitimda quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

I. TA'RIFLAR

Qabul qiluvchi tomon- ushbu Bitimning predmetini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oladigan Bitim Tomoni

Oshkor qiluvchi tomon- ushbu Bitimning predmetini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor qiluvchi (uzatuvchi) Tomon

Bitim- ushbu shartlarni, shuningdek ushbu shartlarga, bitimlarga, protokollarga va ushbu shartlarni to'liq yoki qisman to'ldiradigan yoki ushbu Bitimga qo'shimcha ekanligini aniq ko'rsatadigan boshqa hujjatlarga havolalarни o'z ichiga olgan barcha qo'shimchalar va ilovalarni anglatadi. Ko'rsatilgan hujjatlar Tomonlar o'rtaida yagona kelishuvni tashkil etadi.

Tijorat siri- uchinchi shaxslarga noma'lum bo'lganligi sababli ilmiy-texnik, texnologik, ishlab chiqarish, moliyaviy-iqtisodiy va boshqa sohalarda tijorat ahamiyatiga ega bo'lgan, qonuniy asosda erkin kirish imkonini bo'limgan va ushbu ma'lumotlarning egasi uning maxfiyligini himoya qilish choralarini ko'radigan ma'lumotlarni anglatadi.

Maxfiy ma'lumotlar- bu yozma va/yoki elektron shakldagi barcha ma'lumotlar va/yoki ixborotlar, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, mijozlar haqidagi barcha ma'lumotlar, hujjatlar, diagrammalar, chizmalar, grafiklar, modellar, spetsifikatsiyalar, texnologiyalar, dasturiy ta'minot, dasturlar, boshqa Tomonga tegishli bo'lgan va/yoki ishlab chiqilgan hisob-kitoblar, va/yoki boshqa Tomonning faoliyati, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, haqiqiy yoki rejalahstirilgan biznes yoki marketing usullari, rejalar va strategiyalar, va/yoki savdo sirlari, professional sirlar, va/yoki tegishli haqiqiy yoki rejalahstirilgan operatsiyalar va/yoki muzokaralar va boshqa Tomonga ushbu Bitimga muvofiq ma'lum bo'lgan boshqa ma'lumotlar; bunday ma'lumot bevosita "Maxfiy", "Shaxsiy" ekanligini ko'rsatilsa yoki shunga o'xshash havola bo'lsa, ma'lumotni yozma yoki boshqa har qanday moddiy shaklda uzatuvchi Tomon oshkor qilinadigan ma'lumotlarni (bundan buyon matnda "Oshkor qiluvchi tomon" deb yuritiladi) qabul qiluvchi Tomon (bundan buyon matnda "Qabul qiluvchi tomon" deb yuritiladi) bevosita maxfiy ma'lumotlar deb hisoblaydi. Qabul qiluvchi tomonga Oshkor qiluvchi tomonning har qanday vakili yoki filiali tomonidan oshkor qilingan maxfiy ma'lumotlar ushbu Bitimning predmeti hisoblanadi. Tomonlar Qabul qiluvchi tomon tarafidan Oshkor qiluvchi tomon to'g'risida olingan har qanday ma'lumotni maxfiy ma'lumotlar deb tan olishadi, quyidagilar bundan mustasno: (a) Oshkor qiluvchi tomon tarafidan mustaqil ravishda yoki uning roziligi bilan oshkor qilingan yoki ochilgan ma'lumotlar; (b) Qabul qiluvchi tomon tarafidan tasdiqlangan ma'lumotlarga egalik qilish va tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan uchinchi shaxslardan qonuniy

yo‘l bilan mustaqil ravishda olingan ma’lumotlar.

Oshkor qilish - maxfiy ma'lumotlar, shu jumladan bank yoki tijorat sirlari, har qanday shaklda (og'zaki, yozma, boshqa shaklda, shu jumladan texnik vositalardan foydalangan holda) bunday ma'lumotlar egasining roziligesiz uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lishiga olib keladigan harakat yoki harakatsizlikni anglatadi;

Qabul qiluvchi tomon maxfiy ma'lumotlarni har qanday uchinchi tomonga oshkor qilmaydi, faqat oldindan belgilangan maqsad doirasida Maxfiy ma'lumotlarga kirish va bilish kerak bo‘lgan o‘z ishchilari, alohida tarkibiy bo‘limmalar xodimlari, pudratchilar yoki sho‘ba korxonalar bundan mustasno. Maxfiy ma'lumotlarni ruxsatsiz ishlatish yoki oshkor qilishning ilojsizligini ta'minlash uchun Qabul qiluvchi tomon Maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilishdan oldin bunday xodimlar, pudratchilar va sho‘ba korxonalar bilan ushbu Bitimning majburiyatlar bilan bir xil darajada qat‘iylik majburiyatlarini o‘z ichiga olgan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik to‘g‘risida bitimlar tuzishi shart. Agar oshkor qilish O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda vakolatli organning talabiga binoan amalga oshirilgan bo‘lsa, ushbu Bitimning har qanday Tomoni Maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli va buning uchun javobgar bo‘lmaydi. Shu bilan birga, Oshkor qiluvchi tomon ushbu oshkor qilingan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida Maxfiy ma'lumotlarning oshkor etilishi to‘g‘risida qarama-qarshi Tomonni xabardor qilishi kerak.

Huquqiy himoya/tijorat sirlari rejimi- tijorat, shu jumladan bank sirlariga kirishni cheklaydigan huquqiy, tashkiliy, texnik va boshqa chora-tadbirlar tizimi.

Zararlar - hujjatlashtirilgan xarajatlarni, shuningdek Tomonlardan biri amalga oshirgan yoki boshqa Tomon huquqlarining buzilishi tufayli amalga oshirishi kerak bo‘lgan mulk yo‘qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi (haqiqiy zarar) .

II. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Tartibga solish predmeti:

Ushbu Bitim maxfiy ma'lumotlarni uzatishda yoki uni taqdim etish shakli va uzatish usulidan qat‘i nazar, Tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

2.2. Ta’sir chegaralari:

Tomonlarning ushbu Bitim bo'yicha majburiyatları Bitim imzolangan paytdan boshlab Tomonlarning barcha munosabatlariga tarqaladi.

III. BITIM PREDMETI

3.1. Ushbu Bitimning predmeti bo‘lib Maxfiy ma'lumotlarni, uni Tomonlar almashishi va himoya qilishi tartibini, shuningdek, Tomonlardan biri tarafidan turli xil loyihalar va tuzilgan (tuziladigan) shartnomalarni (kelishuvlarni) ijar etish, rejalashtirish, muhokama qilish doirasida taqdim etilgan Maxfiy ma'lumotlar Oshkor qilingan taqdirda, javobgarlik choralarini belgilash hisoblanadi.

3.2. Tijorat siri:

- 7.1.1. kredit berish to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin, Mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumot manbalari va tashqi ma'lumot manbalaridan foydalangan holda Mijozning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati holatini tahlil qilish. Shuningdek, kredit berish jarayonida Bank Mijozning moliyaviy-xo'jalik faoliyati holatini, buxgalteriya hisobi va hisobotlari holatini, kreditdan maqsadli foydalanishni, kreditning qaytarilishini ta'minlashni, shu jumladan joyiga borib tekshirish huquqiga ega. Bunday tekshiruvlarning o'tkazish davriyligi Bank tomonidan belgilanadi;
- 7.1.2. Agar Mijoz kredit shartnomasi shartlariga va/yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid ravishda rasmiylashtirilgan bo'lsa, to'lov hujjatlarining kredit mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan to'lovlarni rad etish;
- 7.1.3. Mijozdan Kreditdan maqsadli foydalanilganligini tasdiqlovchi ma'lumot va hujjatlarni talab qilish;
- 7.1.4. Kredit shartnomasi/Tarif shartlaridan kelib chiqadigan Kredit bo'yicha asosiy qarzni, foizlarni va/yoki boshqa to'lovlarni to'lash muddati kelgan taqdirda, Bank Mijozning Bankdagi Hisob-kitob hisobvarag'idagi mablag'larni, ular bo'limgan taqdirda – boshqa har qanday hisobvaraqlaridagi, shu jumladan boshqa banklardagi hisobvaraqlaridagi (kredit chet el valyutasida, jumladan, kredit valyutasidan farq qiladigan valyutada berilganda) mablag'larni Kredit shartnomasi/Tarif shartlaridan kelib chiqadigan Kredit bo'yicha asosiy qarzni, foizlarni va/yoki boshqa to'lovlarni to'lash uchun akseptsiz va so'zsiz tartibda undirib oladi.

7.1.5. Quyidagi hollarda:

7.1.5.1. Mijoz kreditdan maqsaddan tashqari foydalanishida va/yoki Bank xodimlari tomonidan kreditdan maqsadli foydalanishini tekshirish uchun (maqsadli kredit berilgan taqdirda) imkoniyat va/yoki hujjatlarni taqdim etmaslikda;

7.1.5.2. Mijoz kredit bo'yicha har qanday qarzni (asosiy qarz, foizlar, komissiyalar va boshqa to'lovlari) yoki Bank oldidagi boshqa majburiyatlar bo'yicha to'lash majburiyatlarini bajarmaganligida;

7.1.5.3. Mijoz tomonidan Kredit shartnomasi, garov shartnomasi, sug'urta shartnomasi, boshqa ta'minot shartnomalari, shuningdek Bank bilan tuzilgan boshqa shartnomalar bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlar buzilgan va/yoki bajarilmagan va/yoki lozim darajada bajarilmaganligi;

7.1.5.4. Bankning fikriga ko'ra, Mijozning kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan, uchinchi tomonlar bilan tuzilgan har qanday shartnomalar bo'yicha to'lov yoki boshqa majburiyatlarni Mijoz bajarmaganligi;

7.1.5.5. noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlarni taqdim etilishi yoki loyihaning borishini, Mijozning moliyaviy holatini tahlil qilish va monitoring qilish uchun Bank tomonidan so'ralgan ma'lumotlarni taqdim etishdan bosh tortishi;

7.1.5.6. garov predmeti (perdmetlari) va/yoki uning (lularning) qismini yo'q qilish, xarajatlarni kamaytirish, qisman yoki to'liq yo'qotish, summasini kamaytirish holatlarda;

7.1.5.7. Mijoz Bankka garovga qo'yilgan mol-mulkni sug'urta qilish bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan va (yoki) Bankka garovga qo'yilgan mol-mulkni sug'urta qilish uzaytirilmagan taqdirda;

7.1.5.8. agar Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni to'g'ri bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday ruxsatnomalar, litsenziyalar, guvohnomalar va sertifikatlar va boshqalar o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa;

7.1.5.9. agar Bankning roziligesiz dividendlar to'lansa, kapital kamaytirilsa, qayta tashkil etilsa, birlashtirilsa, mol-mulk o'tkazilsa, Mijoz/Garov beruvchi/Kafil ajratilsa yoki tugatilsa;

7.1.5.10. Bank kredit bo'yicha to'lov majburiyatlarining bajarilishiga va/yoki kreditni qaytarilmasligi xavfini oshiradigan har qanday omillarning paydo bo'lishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin deb hisoblagan hodisalarining paydo bo'lishi;

7.1.5.11. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalariга muvofiq Mijoz/Garov beruvchi/Kafil bankrot deb e'lon qilinganda;

7.1.5.12. Mijozning boshqa kreditorlar oldidagi qarzlarini to'lov e'lon qilinganda yoki yoki boshqa asosda uni dastlabki to'lov muddati tugagunga qadar to'lash lozim bo'lganda;

7.1.5.13. kredit bo'yicha qarzdorlikning ta'minlanmagan qismi hosil bo'lganda;

7.1.5.14. agar Mijozning rahbariyati va muassislariga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilgan bo'lsa yoki sud ishi qo'zg'atilgan bo'lsa va/yoki Mijozning mol-mulki qarz qoplanishini ta'minlash qismida hibsga olingan bo'lsa va/yoki Mijozni tugatish to'g'risida sud qarori mavjud bo'lsa va/yoki Mijoz tomonidan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan operatsiyalarni muzlatish va/yoki to'xtatib turish holatlari bo'lgan bo'lsa;

7.1.5.15. Kredit shartnomasini tuzish va undan foydalanishning maqsadi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va/yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish degan shubhalar mavjudligida;

7.1.5.16. uchinchi shaxslar tomonidan Mijozga pul summasini to'lash va/yoki mijozning mol-mulkini talab qilish va/yoki hibsga olish da'vosi qo'yilib, uning miqdori Mijoz tomonidan Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini xavf ostiga qo'yadigan bo'lsa;

7.1.5.17. uchinchi shaxslar tomonidan Mijozning pul summalarini va/yoki mol-mulkini undirish va/yoki uni hibsga olish talabi qo'yilib, uning miqdori Mijoz tomonidan Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini xavf ostiga qo'yadigan bo'lsa;

7.1.5.18. Mijozning moliyaviy holatining yomonlashishi va/yoki Mijoz tomonidan taqdim etilgan biznes-rejada ko'rsatilgan kredit loyihasi bo'yicha prognoz qilingan pul oqimlari parametrlarining bajarilmasligi;

7.1.5.19. Qarz oluvchi tomonidan Garov shartnomasi, sug'urta shartnomasi va Garov predmeti va/yoki Kafillik shartnomasining sug'urta polisini Kredit shartnomalari shartlarida nazarda tutilgan muddatlarda va shartlarda o'z vaqtida rasmiylashtirilmaganligida va/yoki taqdim etilmaganligida, shuningdek ushbu Umumi shartlarning 7.4.21-bandida ko'rsatilgan majburiyatlarni buzilgan taqdirda .

Bank quyidagi huquqlarga ega:

- ✓ kechiktirilgan har bir kun uchun o'z vaqtida rasmiylashtirilmagan garov summasidan 0,5% miqdorida jarima undirishga, ammo 7.1.5.19-bandda ko'rsatilgan shartlarni bajarmaganlik uchun o'z vaqtida rasmiylashtirilmagan garov summasining 50% dan oshmasligi kerak.
 - ✓ Kredit shartnomasi bo'yicha Kreditni (Transhni) berishni (to'xtatib turishni) bir tomonlama tartibda muddatidan oldin to'xtatib qo'yish, bu haqda Mijozni kredit berishni to'xtatish (to'xtatib turish) to'g'risidagi qaror qabul qilingan kundan e'tiboran keyingi ish kunidan kechiktirmay, buning sabablarini ko'rsatgan holda Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali xabardor qilish;
 - ✓ kreditni muddatidan oldin undirishni so'rash, shu jumladan undiruvni garov va/yoki uning (ularning) qism(lar)iga qaratish orqali. Muddatidan oldin undirish to'g'risida yozma bildirishnoma yuborilgan sana deb u Garov beruvchiga/Kafilga topshirilgan sanasi yoki pochta orqali jo'natilgan sanasi hisoblanadi. Mijozni muddatdan oldin undirish to'g'risida xabardor qilish Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali amalga oshiriladi;
 - ✓ yagona mutlaq xohishiga ko'ra, Kredit shartnomasi bo'yicha kredit to'lovlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lмаган majburiyatlarни majburiy ijro etish bo'yicha sud tartib-taomillarini boshlash;
 - ✓ Kredit shartnomasi bo'yicha navbatdagi transhlar va/yoki yangi kreditlarni berishni to'xtatish;
- 7.1.6. Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan iqtisodiy normatiylar bajarilmagan taqdirda, Masofaviyb xizmat ko'rsatish kanallari orqali kredit berishni to'xtatish (to'xtatib turish) to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran keyingi ish kunidan kechiktirmay Mijozni xabardor qilib, Kredit shartnomasi bo'yicha navbatdagi transhlar va/yoki yangi kreditlar berishni to'xtatib qo'yish;
- 7.1.7. Bank o'z xohishiga ko'ra ushbu Umumi shartlarda/Kredit shartnomasida/Bank Tariflarda ko'rsatilgan har qanday huquq/talablarni qo'llashi yoki qo'llamasligi mumkin. Ushbu huquqlar/talablarni qo'llamaslik yoki qisman qo'llash ushbu huquqlar/talablardan voz kechishni anglatmaydi va ular Kredit shartnomasining amal qilish muddati davomida istalgan vaqtda qo'llanilishi mumkin.
- 7.1.8. Agar Kredit shartnomasi bo'yicha shartlar asosida Kredit (navbatdagi Transhlar) berish (muddatlar, foiz stavkasi, kredit valyutasi va boshqalar, bozor sharoitlari o'zgarganda) Bank va/yoki Mijoz uchun maqbul bo'lmasa, Bank Tomonlar o'rtasida yangi Kredit shartlari kelishilgunga qadar Kredit shartnomasi bo'yicha keyingi Transhlarni va/yoki yangi Kreditlarni berishni to'xtatishi mumkin, bu haqda Mijozni Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali sabablarini ko'rsatgan holda Kredit berishni to'xtatish (to'xtatib turish) to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmay xabardor qiladi.
- 7.1.9. Bank kredit yukining yanada ko'payishini oldini olish, muddati o'tgan qarzdorlik paydo bo'lgan kundan boshlab 7 (yetti) kalendar kun ichida Mijozga to'lov jadvalini ilova qilgan holda Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari va/yoki boshqa aloqa vositalari orqali bu haqda xabar beradi. Xabar berish usuli Bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.
- 7.1.10. Bank Kredit shartnomasi bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini Mijozning roziligi bilan boshqa shaxsga to'liq yoki qisman topshirishga haqli. Huquqlarni topshirish Tomonlar o'rtaisda tegishli bitimni imzolash orqali amalga oshiriladi.
- 7.1.11. Ushbu Umumi shartlarga qo'shilish orqali Mijoz Bankka kredit axborotining Davlat reyestrida, kredit byurosida va/yoki boshqa tashqi manbalarda Mijoz, rahbariyat va muassislar (aksiyadorlar, mulkdorlar) bilan bog'liq barcha zarur ma'lumotlarni taqdim etish va olish huquqini beradi. Shu bilan birga, Mijozning rahbari muassislardan (aksiyadorlar, mulkdorlar) Bank tomonidan ularning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga rozilik olganligini tasdiqlaydi.
- 7.1.12. Agar tomonlar ushbu Umumi shartlarning 3.8-bandni bo'yicha o'zaro kelishuvga erishmasalar, Kredit shartnomasi bo'yicha yangi Kreditlar (Transhlar) berishni to'xtatib turish huquqiga ega.

7.2. Bank quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

- 7.2.1. Mijozga Kredit shartnomasida nazarda tutilgan shartlar asosida Kredit shartnomasida nazarda tutilgan miqdor doirasida kredit mablag’larini taqdim etish;
- 7.2.2. Kredit shartnomasi shartlariga muvofiq kreditning foydalanilgan qismi uchun foizlarni hisoblash;
- 7.2.3. Kredit shartnomasining amal qilish muddati davomida oyiga bir marta Mijozning og’zaki (aloqa markazi orqali) yoki yozma so’rovi olingan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni davomida quyidagi ma'lumotlarni bepul taqdim etish: o’zlashtirish uchun kredit summasi, Kredit shartnomasi bo'yicha asosiy qarzning qoldig'i, asosiy qarz va foizlarni to'lash miqdori, navbatdagi to'lovlarning miqdori va muddati, muddati o'tgan qarzdorlikning miqdori va tarkibi, kredit bo'yicha qarzni to'lash to'g'risidagi ma'lumotlar.

7.3. Mijozning huquqlari:

- 7.3.1. ushbu Umumiylar shartlarning 3.24-bandiga muvofiq, jarima sanksiyalarini undirmsadan va bu haqda Bankni xabardor qilib, Kredit shartnomasida belgilangan muddatlardan ilgari Kreditni (Transhni) muddatidan oldin to'lash;
- 7.3.2. Mijoz tomonidan pul mablag'lari olingan davrdan oldin Kredit shartnomasi tuzilgandan keyin Kredit olishdan (Transhdan) bepul voz kechish;
- 7.3.3. ushbu Umumiylar shartlar va Kredit shartnomasi bo'yicha Kredit (Transh) berish majburiyatları bajarilmaganligi yoki o'z vaqtida bajarilmaganligi uchun Mijoz kechiktirilgan har bir kuni uchun Bankdan Kredit shartnomasi bo'yicha taqdim etilmagan Kredit (Transh) summasidan 0,001% miqdorda jarima undirish huquqiga ega, ammo taqdim etilmagan Kredit (Transh) summasining 10 foizidan ko'p bo'limgan miqdorda.
- 7.3.4. kreditni qisman to'lashda, Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali Bankka ta'minotning bir qismini bo'shatish to'g'risida iltimos bilan murojaat qilish. Shu bilan birga, Mijoz kredit limiti bo'shatilgan ta'minotga mutanosib ravishda kamaytirilishiga rozi bo'ladi.

7.4. Mijoz quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

- 7.4.1. kreditdan foydalanish jarayonida kreditlashning asosiy tamoyillariga rivoja qilish: muddatli, qaytariladigan, maqsadli xarakterga ega (maqsadli kreditlar uchun), to'laniishi kerak bo'lgan, ta'minlanadigan.
- 7.4.2. Kreditning ta'minoti sifatida mol-mulk taqdim etilganda, Kredit shartnomasining butun amal qilish davriga Kredit shartnomasiga muvofiq garovga beriladigan mol-mulkni Bankni qondiradigan shartlarda, Bank foydasiga sug'urta qilish/sug'urtani ta'minlash. Sug'urta hodisisi yuz berganda foyda oluvchi shaxs Bank hisoblanadi.
- 7.4.3. Kredit shartnomasida belgilangan muddatlarda Kredit shartnomasidan kelib chiqadigan asosiy qarzni, foizlarni va/yoki boshqa kredit to'lovlarni to'lash.
- 7.4.4. o'zining tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishi, qayta tashkil etilishi, tugatilishi kutilayotganda Bankni oldindan xabardor qilish.
- 7.4.5. ushbu Umumiylar shartlarning 8.1.1-bandida ko'rsatilgan Bankning nazorat funksiyalarini amalga oshirish uchun:
 - 7.4.5.1. Bankka moliyaviy hisobotlarni quyidagi muddatlarda taqdim etish:

(Vazirliliklar, idoralar, uyushmalar, korporatsiyalar, konsernlar va davlat mulkini boshqarishning boshqa organlari uchun)

 - chorak hisobotlari uchun, shu jumladan, buxgalteriya balansi (№1 shakl), moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (№2 shakl), shuningdek 90 kundan oshib ketgan qarzdorliklar bo'yicha solishtirish dalolatnomalari, hisobot choragi tugaganidan keyin 45 (qirq besh) kun ichida;
 - yillik hisobotlar uchun, shu jumladan, buxgalteriya balansi (№1 shakl), moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (№2 shakl), shuningdek 90 kundan oshib ketgan qarzdorliklar bo'yicha solishtirish dalolatnomalari, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (№4 shakl) va tushuntirish xati, hisobot yilidan keyingi yilning 20 martidan kechiktirmay;

(Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va xorijiy firmalarning vakolatxonalari uchun)

- chorak hisobotlari uchun, shu jumladan, buxgalteriya balansi (№1 shakl), moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (№2 shakl), shuningdek 90 kundan oshib ketgan qarzdorliklar bo'yicha solishtirish dalolatnomalari, hisobot choragidan keyingi oyning 25 (yigirma beshinchi) kunidan kechiktirmay;
- yillik hisobotlar uchun, shu jumladan, buxgalteriya balansi (№1 shakl), moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (№2 shakl), shuningdek 90 kundan oshib ketgan qarzdorliklar bo'yicha solishtirish dalolatnomalari, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (№4 shakl) va tushuntirish xati, hisobot yilidan keyingi yilning 30 martidan kechiktirmay;

(Kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun)

- chorak hisobotlari uchun, shu jumladan, buxgalteriya balansi (№1 shakl), moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (№2 shakl), shuningdek 90 (to'qson) kundan oshib ketgan qarzdorliklar bo'yicha solishtirish dalolatnomalari, hisobot choragidan keyingi oyning 25 (yigirma beshinchi) kunidan kechiktirmay;
- chorak hisobotlari uchun, shu jumladan, buxgalteriya balansi (№1 shakl), moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (№2 shakl), shuningdek 90 kundan oshib ketgan qarzdorliklar bo'yicha solishtirish dalolatnomalari, hisobot yilidan keyingi yilning 20 fevralidan kechiktirmay;

(Xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun, yuqorida ko'rsatib o'tilgan subyektlar bundan mustasno)

- chorak hisobotlari uchun, shu jumladan, buxgalteriya balansi (№1 shakl), moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (№2 shakl), shuningdek 90 (to'qson) kundan oshib ketgan qarzdorliklar bo'yicha solishtirish dalolatnomalari, hisobot choragidan keyingi oyning 30 (o'ttizinchi) kunidan kechiktirmay;
- yillik hisobotlar uchun, shu jumladan, buxgalteriya balansi (№1 shakl), moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (№2 shakl), shuningdek 90 kundan oshib ketgan qarzdorliklar bo'yicha solishtirish dalolatnomalari, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (№4 shakl) va tushuntirish xati, hisobot yilidan keyingi yilning 20 fevralidan kechiktirmay;

- 7.4.5.2. Bank xodimlariga Mijozning xo'jalik-moliyaviy faoliyati bilan bog'liq hujjatlarni Bank tomonidan tegishli talab qo'yilgan kundan e'tiboran 5 (besh) kalendar kundan kechiktirmay tekshirishga ruxsat berish;
- 7.4.5.3. 5 (besh) kalendar kun ichida Bank talabiga binoan o'z xo'jalik-moliyaviy faoliyati to'g'risida boshqa ma'lumotlarni taqdim etish;
- 7.4.5.4. Mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni har qanday ma'lumot manbalaridan foydalangan holda Bank, uning xodimlari va vorislariga tekshirish va qayta tekshirish imkoniyatini berish;
- 7.4.5.5. Bank tomonidan loyihani monitoring qilish va garov predmetining mavjudligini, holatini, shu jumladan garov predmetini tekshirish uchun to'sqinlik qilmaslik va barcha shart-sharoitlarni yaratish. Bunday tekshiruvlarning davriyligi va vaqt Bank tomonidan belgilanadi, ammo Kredit shartnomasi tuzilgan kundan boshlab har chorakda kamida bir marta. Shuningdek, Bank tomonidan Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali tegishli so'rov yuborilgan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kun ichida Mijoz garov predmeti bo'yicha barcha kerakli ma'lumotlarni taqdim etishi shart;
- 7.4.5.6. Kredit shartnomasi doirasida taqdim etiladigan kreditdan maqsadli foydalanish, garov predmetini ko'rib chiqish, kreditni monitoring qilish (maqsadli kreditlar olinganda) dalolatnomalarini o'z vaqtida imzolash;
- 7.4.6. Mijozning moliyaviy ahvoli yomonlashishiga va Mijozning Kredit shartnomasi bo'yicha Bank oldidagi majburiyatlarini bajarmasligi va/yoki lozim darajada bajarmasligi xavfiga olib keladigan hech qanday majburiyatlarni va choralarini o'z zimmasiga olmaslik;

- 7.4.7. Bankdagi hisobvaraqlarida budjet va uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlardan ozod bo'lgan pul mablag'larining eng kam qoldig'ini Bank oldidagi Kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish uchun yetarli miqdorda, bunday ijrodan 5 (besh) kun oldin saqlab turish;
- 7.4.8. Bankning birinchi talabiga ko'ra, quyidagi hollarda kredit qaytarilishining qo'shimcha ta'minotini taqdim etish:
- ✓ Mijozning moliyaviy ahvoli yomonlashganda;
 - ✓ Kafilning moliyaviy ahvoli yomonlashganda;
 - ✓ kredit shartnomasida ko'rsatilgan garov predmeti (predmetlari) va/yoki uning (ularning) qismi yo'q qilingan, qiymati pasaytirilgan, qisman yoki to'liq yo'qotilganda;
 - ✓ kreditni qaytarmaslik xavfini oshiradigan boshqa omillar paydo bo'lganda;
 - ✓ Mijoz O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Bank bilan bog'langan shaxs bo'lib qoladigan vaziyatlar paydo bo'lganda.
- 7.4.9. Kredit shartnomasi bo'yicha qabul qilingan majburiyatlar Bankning rozilgisiz to'liq bajarilgunga qadar:
- boshqa banklarda hisobvaraqlarni ochmaslik;
 - talab qilib olinguncha asosiy depozit hisobvarag'ini, agar u Bankda ochilgan bo'lsa, boshqa bankka o'tkazmaslik;
 - Mijoz Kredit shartnomasi bo'yicha majburiylarni to'liq bajarmaguncha bankdagi hisobvaraqlarni yopmaslik;
 - Bankning rozilgisiz dividend to'lovlarini, kapitalni kamaytirishni, qayta tashkil etishni, birlashishni, mol-mulkni topshirishni, Mijoz/Garov beruvchi/Kafilni ajratishni yoki tugatishni amalga oshirmaslik;
- 7.4.10. joylashuvi va boshqa rekvizitlari o'zgarganda, o'zgarishlar sanasidan boshlab 3 (uch) kalender kun ichida Bankni ular to'g'risida xabardor qilish;
- 7.4.11. Bankning talabiga binoan, Bankka yetkazilgan, shu jumladan Kredit shartnomasi doirasida berilgan kredit bo'yicha qarzni (asosiy qarz, foizlar va boshqalar) majburiy va/yoki muddatidan oldin undirish choralarini ko'rish bilan bog'liq bo'lgan barcha xaratjatlar va zararlarni qoplash.
- 7.4.12. Kredit shartnomasi shartlaridan kelib chiqadigan asosiy qarz, foizlar va/yoki boshqa kredit to'lovlarini bo'yicha to'lov muddati kelganda Mijozning Bankdagi har qanday hisobvarag'idan, shuningdek, boshqa Banklardagi hisobvaraqlaridan mablag'larni ushbu Umumi shartlarda nazarda tutilgan ketma-ketlik tartibida akseptsiz, so'zsiz va qaytarib olinmaydigan tarzda yechib olish huquqini Bankka taqdim etish;
- 7.4.13. Kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddatlarga muvofiq va muddatlarda tegishli shartnomalar/hujjatlarni tuzish/imzolash/rasmiylashtirish;
- 7.4.14. Bankning ushbu Umumi shartlarda/Kredit shartnomasida va/yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan har qanday huquqlari/talablarini amalga oshirishda Bankka to'sqinlik qilmaslik;
- 7.4.15. Bankning rozilgisiz Mijozning butun faoliyati yoki uning qismi uchinchi shaxslar tomonidan boshqariladigan yoki egaligiga o'tadigan har qanday kelishuvlarga qo'shilmaslik;
- 7.4.16. kredit hisobidan to'langan mol-mulkni/tovarni/xizmatni va hokazolarni Mijoz qaytargan taqdirda, kredit hisobidan to'langan pul mablag'larini kreditning foydalanilmagan qismini qaytarish sifatida tegishli hisobvaraqqqa qaytarilishini ta'minlash;

- 7.4.17. Bankning roziligesiz ushbu Umumi shartlar/Kredit shartnomasi bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini to'liq yoki qisman topshirmaslik;
- 7.4.18. tovarlar/xizmatlar (hisob-fakturalar va boshqalar) olingen kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kun ichida Kredit mablag'lari hisobidan sotib olingen tovarlar/xizmatlar va hokazolarni tasdiqllovchi hujjatlarning skanerlangan nusxalarini Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali Bankka taqdim etish;
- 7.4.19. Bank xodimlariga Bank tomonidan belgilangan muddatlarda kreditlash obyekti joylashgan joyga borib kredit mablag'laridan maqsadli foydalanilishini tekshirish imkoniyatini berish va barcha shart-sharoitlarni yaratish;
- 7.4.20. ushbu Illova imzolangunga qadar muassislardan (aksiyadorlar, mulkdorlar) Bank tomonidan ularning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga roziligini olish.
- 7.4.21. Agar valyuta kurslarining o'zgarishi natijasida taqdim etilgan kreditlar bo'yicha garov ta'minotining kelishilgan garov qiymati nisbati pasayib ketsa, Qarz oluvchi Bankning yozma ravishda xabardornomasi oлган kundan boshlab 5 (besh) kalendar kun ichida Bankning talablarini qondiradigan, mulkchilik huquqi asosida Qarz oluvchiga va/yoki uchinchi shaxslarga tegishli bo'lgan pul mablag'lari va/yoki ko'chmas mulk, va/yoki avtotransport vositalari va/yoki maxsus texnika garovi ko'rinishidagi, Bankning amaldagi Kredit siyosatiga muvofiq hisoblab chiqilgan garov ta'minotini qo'shimcha ravishda taqdim etish yoki kredit bo'yicha asosiy qarzning tegishli summasini muddatidan ilgari to'lash majburiyatini oladi.

VIII. Shartnomani bekor qilish tartibi

- 8.1.** Kredit shartnomasi Mijozning tashabbusi bilan istalgan vaqtida Bank bilan yakuniy hisob-kitob va qarzni to'liq to'lash sharti bilan bekor qilinishi mumkin. Shu bilan birga, Mijoz va Bank tomonidan ushbu Umumi shartlar va Kredit shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlarning to'liq va to'g'ri bajarilishi Kredit shartnomasini bekor qilish hisoblanadi.
- 8.2.** Agar Mijoz ushbu Umumi shartlar va/yoki Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan bo'lsa, Kredit shartnomasi Bank tashabbusi bilan bir tomonlama suddan tashqari tartibda bekor qilinishi mumkin, bunda Kredit shartnomasi Bank tomonidan Mijoza bunday bekor qilish to'g'risida xabarnoma yuborilgan kundan boshlab 3 (uch) kundan keyin bekor qilingan hisoblanadi.
- 8.3.** Kredit shartnomasini bekor qilish Mijozning kredit shartnomasi bo'yicha qarzini, shu jumladan Kredit shartnomasi davrida yuzaga kelgan Bank to'lovlарini to'lash bo'yicha majburiyatini bekor qilishga olib kelmaydi.

IX. XI. Yakuniy qoidalar

- 9.1.** Kredit shartnomasi bo'yicha Tomonlar bir-biriga yuboradigan har qanday bildirishnoma yoki boshqa xabarlar elektron hujjat shaklida Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali yoki yozma ravishda qog'ozda amalga oshirilishi mumkin.
- 9.2.** Xabarnomaning yoki qog'ozdag'i yozma shaklda boshqa xabarning yuborilgan sanasi uning topshirilgan sanasi yoki pochta orqali jo'natilgan sanasi hisoblanadi.
- 9.3.** Tomonlar Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali elektron tarzda yuborilgan hujjatlar tegishli dalil ekanligi va nizolar yuzaga kelganda, shu jumladan sud organlarida ham foydalanish mumkinligi to'g'risida kelishuvga erishdilar.
- 9.4.** Shu bilan birga, Bank talab qilishga haqli, Mijoz esa talabnomada ko'rsatilgan muddatda Bankka elektron shaklda yuborilgan har qanday hujjatlar/har qanday ma'lumotlar (ko'rsatkichlar)ni Bankka qog'ozga taqdim etishi shart.
- 9.5.** Kredit shartnomasi shartlarining har qanday o'zgarishi Tomonlarning o'zaro roziligi bilan amalga oshiriladi va agar ushbu Umumi shartlarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, bitim bilan rasmiylashtiriladi.
- 9.6.** Agar nizolar yuzaga kelsa, bank yozuvlari ikkala Tomonning Kredit shartnomasi bo'yicha

majburiyatlarining asosiy isboti bo'ladi.

- 9.7. Agar ushbu Umumi shartlar/Kredit shartnomasida nazarda tutilmagan holatlar yuzaga kelsa, Tomonlar Universal shartnomasi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi amal qiladilar.
- 9.8. Ushbu Umumi shartlar/Kredit shartnomasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan yoki kelib chiqqan, shu jumladan uni tuzish, o'zgartirish, bajarish, buzish, bekor qilish, to'xtatish, amal qilmasligi yoki tuzilmasligi yoki ta'minotni talab qilish olish bilan bog'liq bo'lgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar yoki da'volar Universal shartnomada belgilangan tartibda hal qilinishi lozim.
- 9.8.1. Bank va Mijoz nizoni sudgacha hal qilishning yagona usuli – da'vo tartibi ekanligini (vaziyatni hal qilish bo'yicha o'z pozitsiyasini va takliflarini bayon etgan xatlar almashinuviga) tan oladi. Nizolarni ko'rib chiqishning da'vo tartibi majburiy hisoblanadi.
- 9.8.2. Da'voda quyidagi shartlar bo'lishi kerak:
- bankning nomi va uni aniqlash uchun yetarli ma'lumotlar;
 - da'vo tuzilgan sanada Mijozning joriy qarzining miqdori va tarkibi;
 - qarzdorlikni to'lash usuli;
 - Mijoz o'z majburiyatlarini bajarishi kerak bo'lgan muddat;
 - Mijoz o'z majburiyatlarini da'vo muddatigacha bajarmaganligining oqibatlari;
 - nizoni sudgacha hal qilish usullari.
- 9.8.3. Bank Mijozga Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali da'vo yuboradi.
- 9.8.4. Da'voda ko'rsatilgan talablar Mijoz tomonidan da'voda ko'rsatilgan muddatda tegishli darajada bajarilishi kerak. Ushbu muddat tugagandan so'ng, Bank sudga murojaat qilishga haqli.
- 9.8.5. Da'veni olmaslik xavfi Mijozga tegishli bo'ladi. Agar Mijoz da'vo olmasa, Bank da'vo yuborilgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kun ichida sudga murojaat qilish huquqiga ega.
- 9.8.6. Agar Tomonlardan biri o'zining huquqiy maqomida o'zgarishlarga duch kelsa, u ushbu o'zgarishlardan oldin boshqa Tomon oldidagi Kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishi yoki boshqa Tomonning yozma roziligi bilan ularning bajarilishini o'z vorisiga yuklashi kerak.
- 9.8.7. Tomonlardan biri yuridik yoki pochta manzilini o'zgartirgan taqdirda, u ta'sis hujjatlarida tegishli o'zgartirishlar davlat ro'yxitidan o'tkazilgunga qadar bu haqda boshqa Tomonga xabar berishi shart. Tomonlarning birida bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda, u o'zgarishlar kuchga kirgunga qadar bu haqda boshqa Tomonga xabar berishi shart.

**Yuridik shaxslar va yakka tartibdagи
tadbirkorlarni kreditlashning umumiy shartlariga
1-ilova-**

Kredit shartnomasi № _____
 "Aylanma mablag'lar uchun kredit liniyasi/Asosiy vositalar uchun kredit"
(Kredit berishning individual shartlari)

Toshkent shahri _____ 20 ____ y.

«ANOR BANK» aksiyadorlik jamiyati nomidan, keyinchalik "Bank" deb ataladi, 20 yildagi - sonli Ishonchnoma asosida harakat qiluvchi, **Mijozning to'liq nomi**, bir tomonidan, va _____.20 yildagi _____ asosida harakat qiluvchi **lavozimi**, F.I.O., keyinchalik "Qarz oluvchi/Mijoz" deb ataladi, birgalikda "Tomonlar deb ataladi, quyidagi mazmunda ushbu Kredit shartnomasini (keyinchalik "Shartnoma deb ataladi) tuzdilar:

Quyidagi shartlarda, shuningdek Shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan va "Bank"ning rasmiy saytida joylashtirilgan "Yuridik shaxslar va yakka tartibdagи tadbirkorlarni kreditlashning umumiy shartlari"ga muvofiq Bank kreditni taqdim etish, Qarz oluvchi esa uni qaytarish majburiyatini oladi:

1. KREDIT BERISHNING INDIVIDUAL SHARTLARI

T/r	Shart	Shartning mazmuni
1.1.	Kredit maqsadi	
1.2.	Kreditlash shakli	qayta tiklanadigan kredit liniyasi (agar aylanma mablag'lar uchun kredit liniyasi bo'lsa) qayta tiklanmaydigan kredit liniyasi (agar asosiy vositalar uchun kredit bo'lsa)
1.3.	Kreditlash limiti	<i>(summa so'z bilan)</i>
1.4.	Shartnomaning amal qilish muddati	Shartnoma Tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi. Kredit muddati – ushbu Shartnoma tuzilgan kundan boshlab (_____) oy.

1.5.	Foiz stavkasi	Suzuvchi stavka. Kredit berish yillik % miqdorida amalga oshiriladi. Qarz oluvchi "Maxsus shartlar" bo'limida tavsiflangan shartlarni bajarmagan kunlar uchun foiz stavkasi oshadi va yillik -- % miqdorida belgilanadi. Foiz stavkasi - muddati o'tgan asosiy qarz summasining yillik %. Foiz stavkasining miqdori ushbu Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 12 oy davomida taqdim etiladigan transhlar uchun saqlanib qolinadi. Ushbu Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 12 (o'n ikki) oy o'tgach, ushbu Shartnoma doirasida yangidan beriladigan transhlar uchun foiz stavkasi O'zR Markaziy banki asosiy stavkasining oshishi/pasayishiga yoki kapital bozoridagi resurslarning qiymatiga qarab Tomonlarning kelishuvi bilan saqlanib qolishi yoki o'zgartirilishi (ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi) mumkin.
------	---------------	---

1.6.	Transhni o'zlashtirish huquqining muddati (limitning erishimligi)	Shartnoma tuzilgan kundan boshlab ----- oydan ko'p emas
1.7.	Transh muddati	Transh berilgan kundan boshlab ----- oydan ko'p emas
1.8.	Transh bo'yicha imtiyozli davr	Transh berilgan kundan boshlab ----- oydan ko'p emas
1.9.	Kreditni to'lash tartibi	imtiyozli davr tugaganidan keyin teng oylik to'lovlar bilan.
1.10	Foizlar bo'yicha to'lovni to'lash sanasi	har oyning 5-chi sanada
1.11.	Kredit berish amalga oshiriladi:	- ushbu Shartnomaning 2-bandiga muvofiq tegishli ta'minot taqdim etilgandan keyin; - boshqa shartlarda, kreditlanadigan loyiha bog'liq
1.12.	Maxsus shartlar	kredit o'zlashtirilgan kundan e'tiboran 3 (uch) kundan keyin "ANOR BANK" AJda ochilgan milliy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari qoldig'ini "ANOR BANK" AJda xizmat ko'rsatiladigan ssuda qarzi (asosiy qarz) qoldig'inining 50 foizi miqdorida har kuni ta'minlash.
1.13.	Mijozning majburiyatları	bankning roziligidan dividend to'lovlarini amalga oshirmslik, kapitalni kamaytirmaslik, mulkni qayta tashkil etmaslik, birlashtirmaslik, o'tkazmaslik, Mijoz/Garov beruvchi/Kafilni ajratmaslik yoki tugatmaslik;
1.14.	Majburiyatlarga rioya qilmaslik uchun Mijozning javobgarligi	"ANOR BANK" AJda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmati ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomaning 7-bo'limga muvofiq javob beradi

2. KREDIT QAYTARILISHINI TA'MINLASH

- 2.1.** Ushbu Shartnoma bo'yicha taqdim etilgan kredit quydagilar bilan ta'minlanadi:
- 2.2.** Bank va Qarz oluvchi o'rtasida imzolangan (Bank, Qarz oluvchi va Garov beruvchining nomi - agar garov beruvchi uchinchi shaxs bo'lsa) garov predmeti qiymatini kelishish to'g'risidagi _____.20____yilgi -sonli dalolatnomaga binoan ro'yxat va so'm miqdoridagi summa raqamlar bilan (summa so'z bilan) kelishilgan garov qiymati bo'yicha mulkchilik huquqi asosida egalik qiluvchining nomi tegishli bo'lgan uskunaning nomi garovi bilan;
- 2.3.** quydagi manzilda joylashgan ko'chmas mulkning garovi (ipotekasi) bilan:
- 2.3.1.** Bank va Qarz oluvchi o'rtasida imzolangan (Bank, Qarz oluvchi va Garov beruvchining nomi - agar garov beruvchi uchinchi shaxs bo'lsa) garov predmeti qiymatini kelishish to'g'risidagi _____.20____yilgi -sonli dalolatnomaga binoan ro'yxat va summa raqamlar bilan (summa so'z bilan) so'm miqdoridagi kelishilgan garov qiymati bo'yicha mulkchilik huquqi asosida egalik qiluvchining nomi tegishli bo'lgan _____ sh, _____ tumani, _____ ko'ch., _____ uy manzilidagi mulk;
- 2.3.2.** Bank va Qarz oluvchi o'rtasida imzolangan (Bank, Qarz oluvchi va Garov beruvchining nomi - agar garov beruvchi uchinchi shaxs bo'lsa) _____.20____yilgi -sonli garov predmeti qiymatini kelishi

- dalolatnomasiga binoan, kelishilgan garov summasi bo'yicha summa raqamlar bilan (*summa so'z bilan*) Egalik qiluvchining nomi-ga tegishli bo'lgan o'zgaruvchan tarkib aylanmasidagi balans qiymati summa raqamlarda (*summa so'z bilan*) bo'lgan tovarlar garovi bilan;
- 2.3.3. Bank va Qarz oluvchi o'rtasida imzolangan (Bank, Qarz oluvchi va Garov beruvchining nomi - agar garov beruvchi uchinchi shaxs bo'lsa) _____.20____yilgi -sonli garov predmeti qiymatini kelishi dalolatnomasiga binoan, summa raqamlar bilan (*summa so'z bilan*) so'm kelishilgan qiymat bo'yicha Egalik qiluvchining nomi-ga tegishli raqamlar bilan (*so'z bilan*) dona miqdorida, nominal qiymati summa raqamlar bilan (summa so'z bilan) bo'lgan emitentning nomi aksiyalar garovi bilan;
- 2.3.4. summa raqamlar bilan (*summa so'z bilan*) so'm miqdoridagi kafilning nomi Kafilligi bilan (keyingi o'rirlarda "Kafil" deb yuritiladi);
- 2.3.5. Bank va Qarz oluvchi o'rtasida imzolangan (Bank, Qarz oluvchi va Garov beruvchining nomi - agar garov beruvchi uchinchi shaxs bo'lsa) garov predmeti qiymatini kelishish to'g'risidagi _____.20____yilgi -sonli dalolatnomaga binoan ro'yxat va so'm miqdoridagi summa raqamlar bilan (*summa so'z bilan*) kelishilgan garov qiymati bo'yicha Egalik qiluvchining nomi tegishli quyidagi transport vositalari/maxsus texnika garovi bilan: rusumi " ", chiqarilgan yili_____, rangi , dvigatel raqami, kuzovi , davlat raqami ;
- 2.3.6. sug'urta kompaniyasining qarzni to'lamaslik xavfini sug'urtalash bilan _____ so'm summaga summa raqamlar bilan (*summa so'z bilan*). Bank Sug'urtalovchi bilan butun kreditlash muddatiga kredit qaytarilmasligi xavfini sug'urtalash shartnomasini tuzadi.
- 2.3.7. Bank va Qarz oluvchi o'rtasida imzolangan (Bank, Qarz oluvchi va Garov beruvchining nomi - agar garov beruvchi uchinchi shaxs bo'lsa) garov shartnomasiga muvofiq -sonli hisobvaraqaqa joylashtirilgan summa raqamlar bilan (*summa so'z bilan*) summadagi Qarz oluvchi/uchinchi shaxslar pul mablag'larining garovi bilan.

Bank_____

Qarz oluvchi _____

Kredit shartnomasi № _____
 "Kontokorrent kredit"

(Kredit berishning Individual shartlari)

Toshkent shahri _____ 20 _____.y.

ANOR BANK aksiyadorlik jamiyati nomidan, keyinchalik "Bank" deb ataladi, _____.20 yildagi Ishonchnoma asosida harakat qiluvchi _____, bir tomondan, _____ va **Mijozning to'liq nomi** nomidan _____.20 yildagi asosida harakat qiluvchi lavozimi, F.I.O., ikkinchi tomondan, birlgilikda "Tomonlar deb ataladi, quyidagi mazmunda ushbu Kredit shartnomasini (keyinchalik "Shartnoma" deb ataladi) tuzdilar:

Quyidagi shartlarda, shuningdek Shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan va "Bank"ning rasmiy saytida joylashtirilgan "Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarni kreditlashning umumiy shartlari"ga muvofiq Bank kreditni taqdim etish, Qarz oluvchi esa uni qaytarish majburiyatini oladi:

1. KREDIT BERISHNING INDIVIDUAL SHARTLARI

T/r	Shart	Shartning mazmuni
1.1.	Kreditning maqsadi	
1.2.	Kreditlash shakli	overdraft shaklidagi qayta tiklanadigan kredit liniyasi
1.3.	Overdraft limiti	(summa so'zlar bilan)
1.4.	Shartnomaning (kreditning) amal qilish muddati	Shartnoma Tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi. Kredit muddati –ushbu Shartnoma tuzilgan kundan boshlab () oy.
1.5.	Foiz stavkasi	Asosiy qarzdorlik bo'yicha foiz stavkasi - muddatli asosiy qarzdorlik summasining yillik %. Muddati o'tgan qarzdorlik bo'yicha foiz stavkasi - muddati o'tgan asosiy qarzdorlik summasining yillik %. Foiz stavkasining miqdori ushbu Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 12 oy davomida taqdim etiladigan transhlar uchun saqlanib qolinadi. . Ushbu Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 12 (o'n ikki) oy o'tgach, ushbu Shartnoma doirasida yangidan beriladigan transhlar uchun foiz stavkasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy stavkasining oshishi/pasayishiga yoki kapital bozoridagi resurslarning qiymatiga qarab Tomonlarning kelishuvi bilan saqlanib qolishi yoki o'zgartirilishi (ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi) mumkin.
1.6.	Transh muddati	(so'z bilan) ----kundan ko'p emas

1.7.	Transhni o'zlashtirish huquqining muddati (limitning erishimligi)	(so'z bilan) ----- kundan ko'p emas
1.8.	Foizlarni hisoblash bo'yicha imtiyozli davr	Transh berilgan kundan boshlab ----- kun davomida
1.9.	Transhni so'ndirish tartibi	transh muddati tugagandan so'ng
1.10	Foizlar bo'yicha to'lovni to'lash sanasi	har oyda 5-chi sanada
1.11.	Kredit berish quyidagilardan keyin amalga oshiriladi:	- ushbu Shartnomaning 2-bandiga muvofiq tegishli ta'minot taqdim etilgandan keyin; boshqa shartlar kreditlanadigan loyihaga bog'liq
1.12.	Mijozning majburiyatları	Bankning roziligesiz dividend to'lovlarini amalga oshirmaslik, kapitalni kamaytirmaslik, mulkni qayta tashkil etmaslik, birlashtirmaslik, o'tkazmaslik, Mijoz/Garov beruvchi/Kafilni ajratmaslik yoki tugatmaslik;
1.13.	Majburiyatlarga rioya qilmaslik uchun Mijozning javobgarligi	"ANOR BANK" AJda yuridik shaxslar va yakka tartibdag'i tadbirdorlarga kompleks bank xizmati ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomaning 7-bo'limga muvofiq javob beradi

2. KREDIT QAYTARILISHINI TA'MINLASH

- 2.1.** Ushbu Shartnoma bo'yicha taqdim etilgan kredit quyidagilar bilan ta'minlanadi:
- 2.1.1. Bank va Qarz oluvchi o'rtasida imzolangan (Bank, Qarz oluvchi va Garov beruvchining nomi - agar garov beruvchi uchinchi shaxs bo'lsa) garov predmeti qiymatini kelishish to'g'risidagi _____.20____yilgi -sonli dalolatnomaga binoan ro'yxat va summa raqamlar bilan (summa so'z bilan) so'm miqdoridagi kelishilgan garov qiymati bo'yicha mulkchilik huquqi asosida egalik qiluvchining nomi tegishli bo'lgan uskunaning nomi garovi bilan;
- 2.1.2. Bank va Qarz oluvchi o'rtasida imzolangan (Bank, Qarz oluvchi va Garov beruvchining nomi - agar garov beruvchi uchinchi shaxs bo'lsa) garov predmeti qiymatini kelishish to'g'risidagi _____.20____yilgi -sonli dalolatnomaga binoan ro'yxat va summa raqamlar bilan (summa so'z bilan) so'm miqdoridagi kelishilgan garov qiymati bo'yicha mulkchilik huquqi asosida egalik qiluvchining nomi tegishli bo'lgan _____ sh, _____ tumani, _____ ko'ch., _____ uy manzilida joylashgan ko'chmas mulknинг garovi (ipotekasi) bilan;
- 2.1.3. Bank va Qarz oluvchi o'rtasida imzolangan (Bank, Qarz oluvchi va Garov beruvchining nomi - agar garov beruvchi uchinchi shaxs bo'lsa) _____.20____yilgi -sonli garov predmeti qiymatini kelishi dalolatnomasiga binoan, kelishilgan summa raqamlar bilan (summa so'z bilan) garov summasi bo'yicha Egalik qiluvchining nomi-ga tegishli bo'lgan o'zgaruvchan tarkib aylanmasidagi balans qiymati summa raqamlarda (summa so'z bilan) bo'lgan tovarlar garovi bilan;
- 2.1.4. Bank va Qarz oluvchi o'rtasida imzolangan (Bank, Qarz oluvchi va Garov beruvchining nomi -

agar garov beruvchi uchinchi shaxs bo'lsa) ___.20__yilgi -sonli garov predmeti qiymatini kelishi dalolatnomasiga binoan, summa raqamlar bilan (summa so'z bilan) so'm kelishilgan qiymat bo'yicha Egalik qiluvchining nomi-ga tegishli raqamlar bilan (so'z bilan) dona miqdorida, nominal qiymati summa raqamlar bilan (summa so'z bilan) bo'lган emitentning nomi aksiyalari garovi bilan;

- 2.1.5. kafilning nomi (keyingi o'tinlarda "Kafil" deb yuritiladi) summa raqamlar bilan (summa so'z bilan) so'm miqdoridagi Kafilligi bilan;
- 2.1.6. Bank va Qarz oluvchi o'rtasida imzolangan (Bank, Qarz oluvchi va Garov beruvchining nomi - *agar garov beruvchi uchinchi shaxs bo'lsa*) garov predmeti qiymatini kelishish to'g'risidagi ___.20__yilgi -sonli dalolatnomaga binoan ro'yxat va summa raqamlar bilan (summa so'z bilan) so'm miqdoridagi kelishilgan garov qiymati bo'yicha Egalik qiluvchining nomi -ga tegishli quyidagi transport vositalari/maxsus texnika garovi bilan: rusumi " ", chiqarilgan yili , rangi dvigatel raqami, kuzovi , davlat raqami , ;
- 2.1.7. _____ sug'urta kompaniyasining qarzni to'lamaslik xavfini summa raqamlar bilan (summa so'z bilan) so'm summaga sug'urtasi bilan. Bank Sug'urtalovchi bilan butun kreditlash muddatiga kredit qaytarilmasligi xavfini sug'urtalash shartnomasini tuzadi.
- 2.1.8. Bank va Qarz oluvchi o'rtasida imzolangan (Bank, Qarz oluvchi va Garov beruvchining nomi - *agar garov beruvchi uchinchi shaxs bo'lsa*) garov shartnomasiga muvofiq -sonli hisobvaraqa joylashtirilgan summa raqamlar bilan (summa so'z bilan) summadagi Qarz oluvchi/uchinchi shaxslar pul mablag'larining garovi bilan.

Bank_____

Qarz oluvchi _____